

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

**“SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI TASHKIL ETISH”
KAFEDRASI**

«Investitsiya loyihalari tahlili»

FANIDAN

MA’RUZALAR KURSI

Andijon 2019

Taqrizchilar:

1. **E. Qo'ldoshev** -AndMI «Axborot texnologiyalari» kafedrası dotsenti, i.f.n.
2. **G.Zufarova**- TADU Andijon filiali «Agrobiznes va investitsion faoliyat» kafedrası dotsenti, i.f.n.

«Investitsiya loyihalari tahlili» fani birinchi navbatda iqtisodiyotda innovatsion va investitsion jarayonlarni samarali yo'lga qo'yish asosida uning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini o'rganishni asosiy maqsad qilib oladi. Investitsion faoliyatga ta'sir etivchi omillar, davlatning roli, loyihalarni moliyalashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, sug'urtalash kabi qator masalalarni o'rganishni, loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish bosqichlarini, ulardagi xarajatlar, loyiha samaradorligi kabi ko'plab jihatlarni chuqur o'rganish, loyihalarni samarali boshqarish uchun asosiy omillarni aniqlash va tahlil qilishni o'rgatadi.

Kirish

Mamlakatimizning iqtisodiy sohadagi vazifalardan biri, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasida belgilangandek, «... mamlakatimizning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyoti tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini ta'minlash. Iqtisodiyotning barcha sohalarida raqobatbop va eksportbop tayyor mahsulotlarning turi va salmog'ini ko'paytirishimiz, jadal harakat qilib, jahon bozoridan o'zimizga munosib mustahkam o'rin egallashimiz kerak».¹

Bu vazifalarni ijobiy xalq etish, ularni ta'min etuvchi ko'plab investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali erishiladi. Umumiy hisobda Harakatlar Strategiyasida 2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilgan. Natijada ushbu yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning YaIMdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 dan 85 foizgacha oshadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan loyihalarni ko'pchiligi xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda bajarilmoqda.

2019 yil uchun qabul qilingan "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" Davlat dasturiga asosan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlari va ijtimoiy sohada yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, umumiy qiymati 16,9 trln. so'm va 8 milliard 100 million AQSH dollariga teng bo'lgan investitsiya mablag'larini o'zlashtirish ko'zda tutilgan.²

Bu va bundan keyingi investitsion loyihalarni Respublikamizning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va uni rivojlantirish, hamda milliy iqtisodiyotni jahon xo'jalik tizimi bilan uyg'unlashtirishi yo'naltirish, jihatdan davr talabiga javob beradigan rahbar va mutaxassis kadrlar tayyorlashga bog'liqdir. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat manfaatini himoya qilish, jahon andozasi darajasida mahsulot ishlab chiqarish orqali jahon bozorida mustahkam o'rin egallash uchun qabul qilinayotgan u yoki bu investitsion loyihaga bahoni rahbar va mutaxassis kadrlar beradi. Shu boisdan har qanday loyihaga ob'ektiv baho beraoladigan, yuqori darajada bilimli, ishlash kobiliyatiga ega bo'lgan malakali mutaxassislar tayyorlash kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu o'rinda «Iqtisodiyot» yo'nalishlaridagi bakalavrlar tayyorlashda «Loyihalar tahlil» fani muhim o'rin egallaydi.

Fanning o'qitishdan maqsad talabalarga milliy, ma'naviy, zamonaviy iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish, respublika xalq-xo'jaligini jaxon andozalari darajasida rivojlantirishda investitsion loyihalar va ularni tahlil qilish hamda ishlab chiqish yo'llarini mukammal o'rgatishdir.

Ushbu ma'ruza kursi loyihaviy tahlilning mazmuni va mohiyati, usullari hamda loyihani asosiy bosqichlarini yoritishga harakat qilingan.

1-Modul. LOYIHA TAHLILI BILAN BOG'LIQ IQTISODIY KONSEPSIYALAR

1.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasi, Xalq so'zi, 2017 yil, 8 fevral

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvr yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi farmoni, 2019 y. 17 yanvar

R E J A

- 1.1. Fanning mavzui, vazifasi va tamoyillari (prinsiplari).
- 1.2. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati.
- 1.3. Investitsiya loyihalari tushunchasi.
- 1.4. Investitsiyalar tahlilida asoslaniladigan asosiy iqtisodiy konsepsiyalar (maqsadlar, tushuncha).
- 1.5. Investitsiya siyosatining mohiyati va yo‘nalishlari.
- 1.6. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari va yo‘nalishlari.

1.1.Fanning mavzui, vazifasi va tamoyillari (prinsiplari).

Ma'lumki, har qanday yangi turdagi yangi sifatdagi mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va mavjud mahsulot hamda xizmat ko'rsatish turini takomillashtirish muayyan loyiha asosida amalga oshiriladi. Ko'zlangan maqsadga erishish, bu boradagi loyihani qay darajada ilmiy asoslanib, ob'ektiv sharoitlarni xisobga olib tuzilganligi va uni yashovchanligi bilan belgilanadi. Bu xol har qanday yangi loyihani amalga oshirishdan avval, uni chuqur tahlil qilishni taqazo etadi. Aks holda kutilgan natija barbod bo'lishi mumkin. SHu boisdan korxona, tashqilot rahbari va uning mutaxassislari loyiha hamda uni tahlil qilishni bilishlari zarur.

Loyihaviy tahlil fanining mavzui - loyiha va uni turlari, tahlilning asosiy tushunchalari, loyiha tahlilining usullari, loyiha tsiklining bosqichlarini bayon qilishdir. SHuningdek mamlakat xalq xo'jaligini yanada rivojlantirishda loyihalar va ularning tahlilini ahamiyatini yoritishdir.

Fanning bosh vazifasi - mustaqil Respublikmizning iqtisodiy- ijtimoiy va siyosiy qudratini mustahkamlaydigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir. CHunki, dunyoda turli manfaatli va g'oyali davlatlar mavjud bo'lib, ularning iqtisodiy rivojlanishi turlicha. Xalqaro tartibga ko'ra, har qanday davlat o'zini xavfsizligini himoya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni manbaalashtirish va ularning o'lchamlarini bilish xuquqiga egadir. Agar davlat manfaati xalqaro tashqilotlar yoki biror xorijiy mamlakat tomonidan oldinga so'rayotgan shartlarga to'g'ri kelmasa, unda davlat manfaatini himoya qiluvchi aniq milliy belgilangan yo'l zarur bo'ladi. Uni himoya qilish uchun esa u yoki bu investitsion loyihaga baho bera oladigan, dunyo saviyasida ishlash kobiliyatiga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash kerak bo'ladi. Bu vazifani mazkur fan bajaradi.

Fanning ikkinchi vazifasi - loyiha "Qiymatini" belgilashdir. Bunda loyihada ko'rsatib o'tilgan barcha natijalarni baholab chiqiladi va loyihadan olinadigan daromadni uni ishga tushirilishiga sarflangan xarajatlardan ortiqligi aniqlanadi. Biroq, fanning vazifasi loyihani faqat iqtisodiy jihatdangina samarali ekanligini ko'rib chiqmasdan, balki uni boshqa jihatlarini ham tahlil qilishdir. YA'ni loyiha texnikaviy asoslanganmi?, u tijorat bo'yicha hayot kechirish kobiliyatiga egami?, u atrof muhitga qanday ta'sir ko'rsatadi?, loyiha maxalliy xususiyatlarni xisobga oladimi?, loyihani amalga oshirilishida institutsional (boshqaruv tarkibi) imkoniyatlar mavjudmi?, loyihani amalga oshirish moddiy mablag' bilan ta'minlanganmi?.

Fanning uchunchi vazifasi - loyihani foyda va xarajatlarini tahlil chogida quyidagi savolarga javob olishdir:

- loyihani noxush natijasi qanday bo'ldi.
- loyiha bo'yicha xarajatlarni kim qiladi va loyihani ijobiy natijalaridan kim foydalandi.
- loyihani ijobiy natijalari qachon va qanday xosil bo'ldi.

- loyihaga munosabati bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarni turli guruhlari uchun turli turdagi samarani qachon va qanday taqqoslash va jamg'arish mumkin bo'ladi.

Ushbu loyiha ijobiy natijasi boshqa imkonli (muqobil) loyihalar natijasi bilan qanday o'zaro nisbatda bo'ladi?

Fanning pirovard vazifasi - biror tovar mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha taklif etilayotgan bir qancha loyihalarni tahlil qilish orqali eng maqbulini tanlashni o'rgatishdir. Bu xol loyihaviy tahlil fanning Respublikamiz taraqqiyotining zamini ko'rilayotgan xozirgi kunda, eng dolzarb masalalarni ijobiy xal qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Mazkur fanni chuqur o'rganish har bir tadbirkorni, korxona, tashkilot rahbari va mutaxassislarini, o'z korxonasidagi muammolarga loyihaviy tahlili usuli bilan nazar tashlash orqali uni kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, istiqbolni belgilash va qo'yilgan maqsadlarga erishish imkonini aniqlash hamda qiyinchiliklarni bartaraf etib yo'llarini topishga imkon beradi. Bu esa korxonani bozor munosabatlari sharoitida muvofaqqiyatli ishlashini kafolatlaydi.

Loyihaviy tahlil fani o'z faoliyatida quyidagi qoida(prinsip)larga amal qiladi.

a) Avvalgi mehnat mahsulini saqlab qolish. Bu qoidani mohiyati shundaki, avvalam bor iloji boricha avvalgi mehnat tufayli yaratilganlarni saqlash, so'ngra esa yangi investitsiya loyihalari xaqida o'ylashni ifodalaydi. Bu erda mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "YAngisini qurmasdan eskisini bo'zma" degan so'zi o'rindir. YA'ni har bir navbatdagi yangi loyiha o'zidan oldingisini xulosa va natijalarini xisobga olgan holda amalga oshiriladi.

b) Loyiha taraqqiyotini tsiklligi. Bu qoida (prinsip) loyihani maqsad sari yo'naltirilgan faoliyati sifatida resurs va vaqt bilan cheklangan bo'lib, o'zining taraqqiyoti davrida bir qator ketma-ket keladigan bosqichlardan: asosiy maqsad va vazifalarni aniqlashdan boshlab to to'la-to'kis bitkazilib uni natijalarini baholashgacha bo'lgan davrini bosib o'tishini ifodalaydi.

v) Loyiha tahlili bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarni sitqidildan tayyorlanish qoidasi (prinsipi). Loyihaviy tahlilning pirovard mahsuli loyihani investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilishdir. SHuning uchun bu prinsip fanning muhim qoidasi xisoblanadi. Bu prinsipni mohiyati tahlil qilingan loyihani, barcha bosqichlarini, yetarli darajada ilmiy va ob'ektiv baholab, uni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilishni talab etadi. CHunki, qaror qabul qilinishda loyihani tayyorlov bosqichini yetarli darajada baholamaslik loyiha uchun belgilangan (rejalashtirilgan) mablag'larni xarajat qismini ko'payishiga va samaradorlikni pasayishiga olib keladi.

Jaxon banki mutaxassislarining xulosasiga ko'ra, amaliyotda loyihani belgilangan reja bo'yicha amalga oshirish ehtimoli 10-50% bo'lishi mumkin. SHu sababli mablag'larni investitsiya qilinish xaqidagi qarorni asoslanishi loyihani amalga oshirilishini tavakkalchilik darajasi miqdoriga bevosita bog'liqdir.

Loyihaviy tahlil fani o'zining taraqqiyoti va rivojlanishida hamda amaliy faoliyatida: makroiqtisodiyot, mikroiktisodiyot, menejment, tashqilot nazariyasi, moliya, buxgalteriya va audit, marketing, kibernetika, ekologiya, texnika-texnologiya, ijtimoiy va boshqa fanlar bilan o'zviy aloqada bo'ladi.

1.2. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati.

Investitsiya siyosati har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. SHunday ekan, milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish faol investitsiya siyosatini yurgizishni talab qiladi. Bu, o'z navbatida, respublikada chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot sohaslariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuk-salishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi.

Har qanday korxona o'z faoliyatini boshlashi, kengaytirishi va yangilashi uchun investitsiyalarga zarurat sezadi. Investitsiyalar korxonalarni rivojlantirish, mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning bosh omillaridan biridir. Investitsiyalar deganda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, ishlayotgan quvvatlarni saqlab turish va rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, foyda olish hamda (atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy kabi) boshqa yakuniy natijalarga erishish maqsadida turli dasturlar yoki alohida tadbirlarga (loyiha)larga sarflanadigan mablag' tushuniladi. Investitsiyalar o'z ichiga foyda (daromad) olish va ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga sarflangan pul mablarlari, shuningdek, maqsadli bank omonatlari, paylar, aksiyalar, boshqa qimmatbaho qogozlar, texnologiyalar, mashina va uskunalar, litsenziyalar (shu jumladan, tovar belgilari), kreditlar, har qanday boshqa mulk va mulk huquqlarini hamda intellektual boyliklarni oladi.

Demak, investitsiya tushunchasi «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ta'rif berilganidek, iqtisodiy yoki boshqa faoliyat ob'ektiga sarf qilinadigan moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularni tasarruf qilish huquqini ifodalaydi. Moliyaviy mohiyatiga ko'ra, investitsiyalar daromad olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga sarflanadigan barcha turdagi aktiv (vosita)lardir.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni yaratish, kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish va qayta qurollantirish uchun qilinadigan xarajat-lardir. Tijorat amaliyotida investitsiyalarning quiddagi uch shakli o'zaro farqlanadi:

- fizik aktivlarga qilingan investitsiyalar;
- pul aktivlariga qilingan investitsiyalar;
- nomoddiy aktivlarga qilingan investitsiyalar. Fizik aktivlar deganda asosiy ishlab chiqarish vositalari ya'ni ishlab chiqarish binolari va inshootlari hamda xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan har qanday mashina va uskunalar tushuniladi.

Pul aktivlari deganda boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag'larini olish huquqi, masalan, bankdagi depozitlar, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar anglatiladi.

Nomoddiy aktivlar — xodimlarni qayta tayyorlash yoki malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, litsenziyalarni sotib olish, savdo belgilarini ishlab chiqarish natijasi-da firma ega bo'ladigan boyliklardir.

Qimmatbaho qogozlarga qilinadigan investitsiyalar portfel investitsiyalari, fizik aktivlariga qilinadigan investitsiyalar esa real investitsiyalar, deb ataladi.

Investitsiyalarning har ikki turi ham korxonalar barqaror ishlashi uchun muhim ahamiyatga ega. Portfel investitsiyalar muammolari moliyaviy menejment sohasida chuqur o'rganilishini ta'kidlagan holda, bu o'quv qo'llanmamizda ko'proq real aktivlarga qilinadigan investitsiyalarga to'xtalamiz.

Real aktivlarga qilinayotgan investitsiyalarni tayerlash va tahlil qilish asosan firmaning maqsadlariga, ya'ni investitsiya yordamida firma nimaga erishmoqchiligiga bogliq. TTTu nuqtai nazardan investitsiyalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

I. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun qilinadigan investitsiyalar. Bunday investitsiyalardan asosiy maqsad uskunalarini almashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini samarali hududlarga ko'chirish asosida firmalarning xarajatlarini kamaytirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

II. Ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qilinadigan investitsiyalar. Bunday investitsiyalardan maqsad mavjud quvvatlar xosiga oldindan shakllangan bozorlar uchun tovarlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

III. Yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish uchun qilinadigan investitsiyalar. Bunday investitsiyalar ilgari ishlab chiqarilmagan tovarlar va ko'rsatilmagan xizmatlarning vujudga keltirish yoki ilgari ishlab chiqarilgan tovarlar bilan yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi.

IV. Davlat boshqaruv idoralari talablarini bajarish uchun qilinadigan investitsiyalar. Masalan, ekologiya va mahsulot standartlari talablarini bajarish uchun sarflanadigan investitsiyalar. Investitsiyalarni bunday tasniflashda tavakkalchilik darajasi har xil bo'lishi asos qilib olingan.

Yuqorida keltirilganlardan birinchi va to'rtinchi tur investitsiyalarida tavakkal xavfi darajasi past, qolgan ikki-tasida esa yuqori hisoblanadi. Bozorda avval ma'lum bo'lmagan mahsulotni ishlab chiqarish va yangi bozorlarni egallash uchun investitsiya sarfi katta tavakkalchilikni talab qiladi. Shu sababli ham uchinchi guruh investitsiyalari tavakkal xavfi eng yuqori bo'lgan investitsiyalardir.

Ishlab chiqarishni kengaytirishga qilingan investitsiyalarda tavakkal xavfi yangi ishlab chiqarishga qilingan investitsiyalarga qaraganda pastroq. Ayni paytda samaradorlikni oshirishga qilinadigan investitsiyalar bozor allaqachon kabul qilgan tovarlarning sifatini oshirish, tannarxini kamaytirishni ko'zda tutgani uchun ham, ularda tavakkal xavfi darajasi ikkinchi va uchinchi guruhlar investitsiyalarinikidan ancha past bo'ladi. Xuddi shu kabi davlat boshqaruv idoralari talablarini bajarishga sarflangan investitsiyalarning tavakkal xavfi darajasi ancha kichik hisoblanadi.

Investitsiyalar, shuningdek, manbalariga ko'ra, ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi. Ichki investitsiyalar manbalarini davlat byudjeti, korxonalar va aholi mablag'lari, bank kreditlari hamda nobyudjet jamgarmalari mablag'lari, tashqi investitsiyalar manbalarini So'lib, xorijiy davlatlar va firma-larning, iqtisodiy, xalqaro tashkilotlarining maolag'lari hisoblanadi. Investitsiyalarni manbalariga ko'ra bunday. Guruhlari ularning manbalarini bo'yicha tuzilishini xam o'ziga o'zlashtirish imkonini beradi. Iqtisodiy-tahlil maqsadlarida va amaliyotda investitsiyalarning manbalariga ko'ra tuzilishi bilan birga ularning tarmoq tuzilishi, hududiy tuzilishi, mulkchilik shakllariga ko'ra tuzilishi, takror ishlab chiqarish tuzilishi va texnologik tuzilishi farqlanadi.

Investitsiyalarning tarmoq (hududiy) tuzilishi alohida tarmoq (hudud)ning ma'lum davrda qilingan investitsiya sarflaridagi ulushini ko'rsatadi, mulkchilik shakllariga ko'ra tuzilishi jami investitsiyalar manbai va sarfidagi davlat va nodavlat mulki ob'ektlarining hissasini ko'rsatadi. Takror ishlab chiqarish tuzilishi yangi qurilish, ishlab chiqarishni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va qayta qurollantirish maqsadlarida sarflangan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi ko'rinib chiqadi.

Investitsiyalarning texnologik tuzilishi qurilish-mon-taj ishlari, uskuna va inventarlar hamda boshqa xarajatlar (loyiha-kidiruv ishlari, boshqaruv xarajatlari va h.k.)ga qilingan xarajatlarning jami investitsiya xarajatlardagi ulushini ko'rsatadi.

Investitsiyalar tuzilishini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatiga bog'liq.

1.3. Investitsiya loyihalari tushunchasi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida qaror topishi o'zining bozor munosabatlari sharoitiga mos erkin huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'lini tanlash imkoniyatini yaratadi.

O'tkazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida esa turli mulk shakllarining vujudga kelishi, tadbirkorlik erkinligining ta'minlanishi mustaqil qarorlar qabul qilish va boshqaruv faoliyatining rivojlantirilishini taqozo etdi. Ayniqsa, bunday iqtisodiy vaziyat iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirish sharoitida yangi investitsiya loyihalarini hayotga keng joriy etish va tadbir qilish talablarini keltirib chiqardi.

Dunyo tajribasi ko'rsatishicha, keng iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalarni, xususan, turli sohalaridagi investitsiya loyihalarini samarali amaliyotga tadbiriq etish bilan ko'proq ta'minlanishi mumkin ekan. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmi va miqdoriga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar va siljishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Umuman, bugungi kunda investitsiya loyihalari to'g'risida ko'plab gapirilmogsa. Investitsiya loyihasi tushunchasining tobora keng qo'llanilishi, avvalom bor, ushbu yangi atamaning iqtisodiy mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.

«Investitsiya loyihasi» tushunchasining o'zi iqtisodiy nazariyada va amaliyotda keng qo'llaniladi va u ikki xil ma'noda talqin etiladi:

1. Muayyan maqsadlarga erishishni (ko'zlangan natijalarni hosil qilishni) ta'minlovchi qandaydir faoliyatlar yig'indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda «xo'jalik tadbiri», «ish (ishlar yig'indisi)», «loyiha» terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi.

2. Qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayonetuvchi hujjatlar to'plami sifatida qaraladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, darslik va o'quv qo'llanmalarda «investitsiya loyihasi» ikkinchi mazmundagi tushuncha sifatida qo'llaniladi. «Loyiha» termini birinchi mazmun bo'yicha tushuniladi.

Investitsiya loyihasi tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, ob'ektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ti-zim sifatida qaralishi mumkin.

To'liq shakllangan, yakuniga etgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- investitsiya g'oyasini shakllantirish;
- investitsion imkoniyatlarni tadqiq etish;
- investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash;
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- ob'ektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqgisodiy ko'rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi xisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal xisob-kitoblar yordamida asoslangan yuri-dik hujjat xisoblanadi.

Investitsiya loyihasining boshqa xujjat va «loyiha»lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq xisob-kitoblar bilan baholanadi. Shuningdek uning amalga oshirili-shi muayyan miqsordagi mablag'larni safarbar etishga asoslanadi.

Investitsiya loyihasi investitsiya g'oyasining shakllanishidan vujudga kelar ekan, uning murakkab jarayonlar asosida yaratilishida turli tadqiqotlar va tahlil etish ishlarini olib boruvchi mutaxassislarining asosiy o'rin egallashlarini alohida e'tiborga olmoq zarurdir. Investitsiya loyihasining o'ziga xos xususiyati uning amalga oshirilishi moliyalashtirishning turli shakllariga mos tushishi bilan izoxlanadi. Bunda investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun turli manbalardan mablag'larni jalb etish mumkinligi uning qulayligini, foydaliligini, samaradorligini va afzalligini oshiradi.

Investitsiya loyihasi amal qilish sohasi va darajasiga ko'ra 40-50 yilgacha muddat bilan ishlab chiqilishi mumkin. Undagi xisob-kitoblar esa shu davrga mo'ljallangan bashoratlar asosida tizimli amalga oshiriladi. Bunday loyihalar, ko'proq, davlat ahamiyatiga molik va hukumat mablag'lari evaziga moliyalashtiriladigan ob'ektlarni ishga tushirish yoki muayyan sohaning tizimli o'zgartirilishini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida keng qamrovli va uzoq yillarga mo'ljallangan bashoratlar asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bunga mamlakat bo'yicha kommunikatsiya tarmog'ini tizimli zamonaviylashtirishga, aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashga mo'ljallangan, makrodarajadagi ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalari (ko'proq, davlat investitsiya loyihalari) misol bo'la oladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishda uning monitoringini olib borish tizimining amal qilishi loyihaning, nafaqat, iqtisodiy samaradorligini, shuningdek ijtimoiy samaradorligini va siyosiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning mevasi, natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi. YA'ni u cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan bog'-liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisidir.

1.4. Investitsiyalar tahlilida asoslaniladigan asosiy iqtisodiy konsepsiyalar (maqsadlar, tushuncha).

Investitsiyalarni tahlil qilish, ularning samaradorligi, darajasini aniqlash bir qancha iqtisodiy konsepsiyalarga tayanib amalga oshiriladi.

I. Investitsiyalarning firma boyligini oshirishdagi roli,

Har qanday firma investitsiya qilar ekan, avvalo, o'z boy-liklarini oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsad firmaning foydani ko'paytirish kabi ko'pincha asosiy deb qaraladigan boshqa bir maqsadidan ancha kengroqdir. Chunki firmaning asosiy maqsadi foydani ko'paytirishdan iborat deyilganda foyda va rentabellik darajasini darhol ko'paytirishni emas, balki bozordagi o'z sektorini kengaytirish yoki nomoddiy aktivlarini oshirishga qaratilgan tijorat strategiyalarini tushunish qiyin bo'lar edi. Demak, firma boyligini oshirish investitsiyalashga undovchi anchagina universal bo'lgan sababdir.

Firma boyligi o'z ichiga firma o'z kapitalining bozor qiymatini (UKBQ) hamda firma majburiyatlarining bozor (MBQ) qiymatini oladi. YA'ni:

$$\text{Firma boyligi} = \text{O'KB} + \text{MBQ}$$

Firma boyligi — firma egalari (xoh ular yagona xo'jay-in, xoh minglab aksiyadorlardan biri bo'lsinlar) ixtiyorida bo'lgan (yoki ular xohlasalar va o'z mulklarini sotsalar, pul ko'rinishida olishlari mumkin bo'lgan) real boylikdir. Shu narsa ravshanki, firmaning real boyligi uning kapitali (yuqori likvidli aktivlar ko'rinishida turgan kapitalni istisno qilgan holda) kanchalik ko'pligi bilan emas, balki bu kapital tovarlar va xizmatlar bozorida firmaga qanday holatni ta'minlab berishi bilan belgilanadi. TTTu sababga ko'ra, investitsiyalar firmalarning raqobatbardoshligini yaxshilasa va ular kapitalining daromadlilikini oshirsa, ularning boyligi ko'payadi hamda egalari yanada boyiydilar. Aks holda investitsiyalar firma balansi passivlarini ko'paytirgani holda uning raqobatbardoshligini oshirmasa, firmaning rentabelligi pasayib ketishi, buning oqibatida esa uning boyligi kamayi-shi mumkin. Aytilganlardan xulosa shuki, investitsiyalar, shu jumladan, real aktivlarga qilinadigan investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholashning asosiy mezon bo'lib, ularning firma boyligiga qanday ta'sir etishi hisoblanadi.

II. Pul tushumlari haqida tushuncha.

Pul tushumlari -(pul ob'ekt oqimlarining, saʼl yogʻu) iqtisodiy adabiyotlarimizda yaqindan buyon ko'llanilayotgan atama bo'lib, firma tijorat faoliyati natijasida olingan sof tushumlarni, ya'ni pul kiritilari va chiqimlarini ko'rsatadi.

Pul tushumlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Asosiy faoliyat bo'yicha:
 - naqd pul evaziga sotishdan olingan pul tushumi;
 - pul o'tkazish yo'li bilan sotishdan olingan pul tushumlari.
2. Investitsiyalar bo'yicha:
 - qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan daromadlar;
 - shu'ba korxonalar va xorijdan tushumlar;
 - aktivlarni sotishdan keladigan tushumlar.
3. Moliyaviy operatsiyalar bo'yicha:
 - qimmatli qogozlarni sotishdan olingan tushumlar;
 - qarzlarni.

Firmaning pul chiqimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1. Asosiy faoliyat bo'yicha:

- xom ashyo va materiallar uchun to'lovlar; -V;
- ish haqi to'lovlari;
- soliq to'lovlari;
- sug'urta to'lovlari.

2. Investitsiyalar bo'yicha:

- asosiy kapitalni sotib olishga;
- asosiy kapitalni montaj qilishga.

3. Moliyaviy operatsiyalar bo'yicha:

- foizlar va dividendlar to'lashga;
- sudalar va obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni so'ndirishga.

Pul tushumlari va chiqimlari o'rtasidagi farq, ya'ni sof pul tushumlari firma boyligi oshishini ta'minlovchi sof pul krldig'idir. Ammo firma faoliyatining yakuniy natijasini baholashda buxgalter yondashuvi bilan moliyachi yoki iqtisodchi yondashuvi o'rtasida farq bor.

Buxgalter yondashuviga ko'ra, firma faoliyatining yakuniy natijasini soliqlar to'lagandan keyin firma ixtiyorida qolgan sof daromad tashkil etadi. Moliyachi va iqtisodchi yondashu-viga ko'ra, yakuniy natijaga nafaqat firma ixtiyorida qolgan srf daromad, balki foydalanilishi me'yoriy hujjatlar bilan cheklab qo'yilgan, ammo pirovardida firmaning umumiy boyli-giga qo'shilib, uni ko'paytiradigan pul mablarlari ham kiradi. Bunday mablag'larga amortizatsiya ajratmalari hamda hisob-langani, ammo to'lanmagan soliqlar kiradi.

Amortizatsiya o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, asosiy kapitalning ma'naviy va jismoniy eskirishini qo'shish uchun mablag' jamg'arishni ta'minlaydigan maksadli s'jratmadir. Bu ajratmalar mikdori uch omilga bogliq:

- asosiy kapital tarkibiga kirgan uskunaning balans qiymatiga;
- uskunaning xizmat muddatiga;
- uskuna uchun beyagilangan amortizatsiyani xrsoblash uslubsh'. Amortizatsiya ajratmalari maqsadli pul jamg'armasini

tashkil etish manbai bo'lgani holda, shuningdek, firma foyda-sidan boshqa xarajatlar singari ayirib tashlansa-da, firma mulki bo'lib qolaveradi. Firma asosiy kapitalni yangilashga kirishganda amortizatsiya jamg'armasidan sof foyda kabi foy-dalaniladi. SHu nuqtai nazardan amortizatsiya jamg'armasini shakllantirish firmaning investitsiya zahirasi jamg'arish-ni anglatadi.

SHu sababga ko'ra, hisoblangan amortizatsiyani firma ti-jorat faoliyatining yakuniy natijasiga, ya'ni (sof) pul tu-shumlariga kiritish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Buxgalteriya hisobiniig Amerika standartlari GAAR (Genegally Asserted Assoipting Rrincip les) atamalaridan foydalansak, pul tushumlarini aniqlash tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$PT = MRT - (JX - A) - FT - S_{to'l}$$

Bu erda: PT — pul tushumlari;

MRT - mahsulot realizatsisidan tushum;

JX - jami xarajatlar;

A - amortizatsiya;

FT - foiz to'lovlari;

S to'l.- to'langan soliqlar.

Iqtisodiy nazariya nuktai nazaridan qaraganda har qachon firmaning boyligi kelajakda bo'ladigan barcha pul tushumla-rining hozirgi qiymatiga teng. Investitsiyalar maqsadga mu-vofiqligini aniklash uchun barcha pul tushumlari va chiqimla-ri to'g'ri baholanib, ular firma boyligini qanchaga ko'paytiri-shi aniklab olinadi. Olingan natija esa yakuniy karor qabul qilish uchun asos bo'ladi.

1.5. Investitsiya siyosatining mohiyati va yo'nalishlari.

Uzbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yoqilri, energetika va don mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'z-

garishlarni amalga oshirish, eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chikarishni ko'paytirish uchun ustuvor sohalarini qo'llab-quvvatlash, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun ochik eshiklar siyosatini olib borish kabilarga qaratildi. Investitsiya siyosatini olib bo-rishda quyidagi tamoyillarga asoslanildi[^],

- belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlar va faoliyat sohalarini tanlab qo'llab-quvvatlash;

- ijtimoiy ahamiyatli tarmoklarni (sog'likni saqlash ta'lim, madaniyat va h.k.), aholi turmush darajasini yaxshilash, umrini uzaytirish, ijtimoiy jihatdan keskin tabaqalanishning oldini olish, iste'mol talabining faollashuvini ta'minlash maqsadida etarli darajada qo'llab-quvvatlash;

- chet el investitsiyalarini o'zaro manfaatdorlik asosida ustuvor sohalariga jalb qilish;

/ potensial investitsiya resurslarini savdo sohasi va pul bozoridan sanoat sohasiga qayta taqsimlash;

- ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini qo'llab-quvvatlash, xorijdan yangi texnikalar uchun litsenziyalar sotib olish, katta laboratoriyalarni saqlab turishga quvvati etadigan yirik korporatsiyalar tuzish orqali ishlab chiqarish kapitalini jamlash hisobiga intellektual kapital va ilmiy-texnik potensialni oshirish[^].

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mineral xom ashyo resurslarini chukur qayta ishlash va ularni tashqi bozorda ra-qobatbardosh bo'ladigan darajaga olib chiqishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash;

- aholining ozik-ovqat va iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ishlab chiqarish quvvatlarini jadal rivojlantirishni investitsiyalar bilan ta'minlash;

- investitsiya jarayonlari ishtirokchilarining o'zaro alo-qalarini tartibga solib turuvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish.

Investitsiya manbalarini shakllantirish borasida davlat ko'radigan chora-tadbirlar investitsiyalarning ichki manbalariga tegishli bo'lib, asosan soliq-byudjet siyosati va pul-kredit siyosati vositalari yordamida, aholi, korxona, bank va davlat byudjeti mablag'larini shakllantirish, qayta taksimlash va ular o'rtasida ma'lum proporsiyalarni yuzaga keltirishga qaratilgan. Masalan, solik stavkalarining pasaytirilishi aholi va korxonalar daromadlarining oshishiga, investitsiyalar manbai bo'lgan aholi jamg'armalari va korxonalarning sof foydasi miqdorlarining kupayishiga olib keladi. Ayni paytda investitsiyalarning manovalariga ko'ra tuzilishida bu ikki guruhning ulushi oshadi. Jami investitsiyalar hajmida bank kreditlari, korxona va aholi mablag'lari hisssasi-nings yuqori bo'lishi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijobiy hodisa hisoblanadi.

Bir qator davlatlarda qo'llaniladigan jadallashtirilgan amortizatsiya usuli ham korxonalarda investitsiya mablag'larining tezroq jamlanishiga olib keladi va investitsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Investitsiya siyosatining eng muhim bo'g'ini investitsiya mablag'larini eng ustuvor va ahamiyatli tarmoqlar va hududlarga jalb qilish borasidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu maqsadda, umuman, mamlakat iqtisodiyotida, xususan esa, ustuvor deb belgilangan tarmoqlar va hududlarda qulay investitsiya muhitini yaratish zarur. Investitsiya muhiti bir kator shart-sharoitlarga qarab baholanadi. Bu shart-sharoitlarga siyosiy barqarorlik, inflyatsiya va ishsizlik darajalari, byudjetning to'ldirilish darajasi, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki va xususiy sektorning rivojlanish darajasi, iqtisodiyotning, xususan, tashqi savdo, valyuta bozorlarining erkinligi, bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, tabiiy va mehnat resurslarining mavjudligi va ulardan foydalana olish imkoniyatlari, ishchi kuchining malakasi, soliq tizimining xususiyatlari, bank foiz stavkalari, bozor sigimi va boshqalar kiradi.

Investitsiya muhitini belgilovchi eng muhim omillardan biri mamlakatda investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar va kafolatlardir. Investorlar uchun soliq imtiyozlarini berish amaliyotda keng qo'llaniladigan tadbirdir. Masalan, respublikamizda korxonalar foydasining ishlab chikarishni kengaytirishga, rekonstruksiya qilish va qayta qurollantirishga sarflangan qismi soliqqa tortilmaydi. SHuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, xalq iste'moli tovarlari, bolalar assortimentidagi hamda eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab

chiqarish kabi bir qator sohalarda yangi ochilgan korxonalar solyqlardan vaqtincha ozod etilishi, umumiy soliq stavkalariga nisbatan pastrok soliq stavkalari qo'llanilishi kabi imtiyozlarga ega bo'ladilar.

Ichki investitsiya manbalari cheklangan bir sharoitda, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlar uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish aloxdsa ahamiyatga ega. Respublikamizda mustaqillik yillarida 13 mlrd. AQSH dollaridan ko'proq mikdordagi chet el investitsiyalari o'zlashtirildi. Xorijiy investorlar uchun, ular oladigan yakuniy moliyaviy natijalarga bevosita va bilvosita ta'sir etadigan bir qator imtiyozlar va kafolatlar tizimi yaratilgan (1-ilova). Mamlakatimizda mustaqillik yillarida chet el investitsiyalari ishtirokida bunyod etilgan eng yirik sanoat ob'ektlari respublikamizning eksport saloxdyatini oshirdi, eksport va importning tovar tuzilishida ijobiy siljishlarga erishish, mamlakatning to'liq yoqilsh-energetika mustaqilligani ta'minlash imkonini berdi.

1.6. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari va yo'nalishlari.

CHet el investitsiyalarini dunyoning hamma mamlakatlari jalb etadi. Bundan rivojlangan mamlakatlar ham xoli emas. Har yili dunyo xo'jaligiga 2,0 — 2,5 trln. AQSH dollari miqdo-rida investitsiya sarflanadi. Asosiy investorlar o'ta rivojlangan ettita davlat yoki Rambuys klubiga a'zo 65'lgan davlatlar hisoblanadi. Bular AQSH, Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya, YAponiya va Kanadadir.

Rambuys klubining asosiy maqsadi murakkab iqtisodiy masalalarni echishda a'zo davlatlarning umumiy strategiyasini aniklab olishdan iborat. Unda jahon iqtisodiyotining istiqbollari, moliyaviy, savdo va investitsiya muammolari chuqur o'rganiladi. AQSH — bir tomondan, eng nufuzli investor, ikkinchi tomondan esa investitsiya talab qiluvchi mamlakatdir. Masalan, AQSH chet davlatlarga 600 mlrd. dollar miqdorida investitsiya chiqarsa, 500 mlrd.dollar chetdan investitsiya kiritadi. YAponiyada 18 mlrd. dollar investitsiya chiqarilsa, chetdan bor-yo'ga 1 mlrd. dollar investitsiya kiritiladi. 1994 yil ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarga 150 mlrd.dollar investitsiya chiqarilgan. SHundan SHarqiy Osiyoga — 40, Lotin Amerikasiga — 37, Evropa va Markaziy Osiyoga — 18, Janubiy Osiyoga — 3,5, YAqin SHarq va Afrikaga — 1,0%i to'g'ri keladi.

Bu mablag'larning asosiy qismi iqtisodiyotni isloh qilish, mulk-ni davlat tasarrufidan chiqarish loyihalariga sarf etiladi.

Investitsiya jarayonida bir tomondan investor (kredit be-ruvchi), ikkinchi tomondan karz oluvchi (debitor) turadi. Har ikka-la tomon ham o'z manfaatlarini o'ylab ish ko'radi. Masalan, inves-tor bor mablag'ini katta foyda keltiradigan loyihaga sarflashni xohlaydi va shu sababli ham qarz oluvchiga shubha bilan qaraydi. CHunki karz oluvchi investorning mablag'idan noto'g'ri foydalanib, uni behudaga sarf qilib yuborishi mumkin. qarz oluvchi loyiha juda samarali ekanligi va ikki tomon uchun ham katta foydani keltirishga to'liq ishonishi kerak. Har qanday holda ham u marke-ting qonuniyatlari asosida, ya'ni mahsulotni realizatsiya qilish bozorini, uning hajmini, sotib oluvchining talabi va xohishi, ta-vakkalchilik darajasini, raqobatchilarning kelgusidagi harakat-larini chuqur bilish asosida ish yuritishi kerak. Ikki tomon bir qarorga kelganidan keyingina loyiha amalga oshishi mumkin. In-vestitsiya bozorida mablag' etarli bo'lmagani yoki etishmaganligi uchun asosan kreditor har doim imtiyozli holatda bo'ladi.

Ichki va tashqi investitsiyaga bo'lgan talab dunyoda juda yuqori bo'lganligi uchun investitsiyalashtirishni amalga oshirish shakllari va vositalarga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Bunda dastavval ichki imkoniyatlarni hisobga olib, ichki va tashqi investitsiyalarning optimal variantini vujudga keltirish kerak. Investitsiya natijasida vujudga kelgan mahsulot yoki xizmatlarni jahon bozorida sotish juda katta muammodir. Bu erda raqobatga bardosh berish juda mushkul; davlat tomonidan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni himoya qilish maqsadida, chet el mahsulotlarini mamlakatga kiritishni kamaytiradigan qonunlar qabul qilinishi kerak.

Tashqi bozorga chiqishni amalga oshirish uzoq muddat talab etadigan jarayondir. Buning uchun tinimsiz ravishda mahsulot sifatini yaxshilash, marketing xizmatini yuqoridan olib chiqish hisobiga mahsulot chiqaruvchining imidjini oshirishga erishish zarur. CHeg el investitsiyalarini har xil usullar bilan iktisodiyotga kiritish mumkin. Bunga konsessiya usuli misol bo'la oladi.

Konsessiya — ma'lum bir vaktga chet el xususiy mulk egasiga yoki boshqa yuridik shaxsga berilgan er uchastkasidan qazilma boyliklarni qazib olish, har xil inshootlar qurish va tabiiy boyliklarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan shartnomadir. Bu shartnomada ijara haqi, konsessor (konsensiya olgan shaxs)-ning atrof-muhitning holatini yaxshilashi, ishchilar yollashi kabi shartlar va boshqalar belgilanib olinadi.

Investitsiyalarni jalb qilishning ikkinchi usuli kompensatsiya shartnomalari asosida bo'ladigan investitsiyalardir. Bunda chet ellik hamkor mamlakatga kredit beradi va shu kredit hisobiga quriladigan ob'ektlar uchun litsenziya, uskunar va mashinalar sotib oladi. Buning evaziga u keyinchalik etishtirilgan mahsu-lotning bir qismiga egalik qilish huquqiga ega bo'ladi. Bu mahsu-lotning qiymati berilgan investitsiya summasi va uning foizlari-ni qoplashi kerak. Bunday shartnomalar sanoat kompensatsiyasi dey-iladi. Ob'ekt egasi buyurtmachi xdsoblanadi. Hozirgi vaqtda bun-day shartnomalar MDH davlatlarining hammasida mavjud. Investorlar bunday shartnomalar orqali juda katta buyurtmalarga, bu-yurtmachi esa o'z kapitalini ishga solmagan holda, yangi ishlab chiqarish quvvatlariga va qisman yangi texnologiyalarga ega bo'ladi.

SHu bilan bir qatorda, juda katta qiymatlarni o'zlashtirish va vujudga kelgan ob'ektlarning to'liq ekspluatatsiyasini amalga oshirish katta muddatni talab etadi. SHu saobli bunday loyihalarni iinvestitsiyalashtirishda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni chuqur o'rganish kerak.

Investitsiya sharoitini yaxshilashning eng progressiv yo'li litsenziyalar importidir.

Bu bilan patent orqali himoyalangan ilg'or texnologiyaga asoslangan litsenziyalar yordamida mahsulot ishlab chiqariladi va jahon bozoriga tayyor mahsulot bilan chiqish amalga oshiriladi. Litsenziya sotib oluvchiga litsenziyalarni import qilish shu ishlarni o'zida amalga oshirishga nisbatan arzonga tushadi. Litsenziyalarning quyidagi turlari mavjud:

- oddiy litsenziyalar — bunda litsenziya sotuvchi ishlab chiqarishni o'zi tashkil etadi;
- favqulodda litsenziyalar — bunda litsenziya sotuvchi o'z hu-dudida monopol huquqqa ega bo'ladi;

to'liq litsenziyalar — bunda litsenziya sotib oluvchiga mulkhuquqi to'liq o'tadi va litsenziya sotuvchi ixtiro yoki kashfiyotdanumuman voz kechadi. Litsenziya bahosi shartnoma orqali vujudgakeltirilgan foyda, mahsulotning qiymati yoki miqdoridan kelibchiqqan holda aniqlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Investitsiyalarning mohiyati nimada?
2. Investitsiyalarni turlicha tasniflash mezonlari degan-da nimani tushunasi»?
3. Investitsiyalar tuzilishini turli mezonlarga ko'ra izoh-lang va ahamiyatini tushuntiring.
4. Firma boyligi nima va uning inveetitsiyalar samarador-ligini baholovchi boshqa ko'reatkichlardan afzalligi nimada?
5. Pul oqimlarining mazmunini va tarkibini tushunti-rib bering.
6. Firma faoliyatining yakuniy natijasiga moliyachi vaiqtisodchi yondashuvidagi farq nimadan iborat?
7. Jamg'arish va investitsiya tengligi ayniyati nimanianglatadi va unga qanday erishiladi?
8. Uzbekistonda o'tkazilayotgan investitsiya siyosatiningyo'nalishlari va tamoyillari nimalardan iborat?
9. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uslublari vayo'naliytlarini izohlab bering.

R E J A


- 2.1. «Loyiha» tushunchasi, loyihalarning turlari va xususiyatlari.
- 2.2. Loyiha xayot davrining asosiy bosqichlari.
- 2.3. Loyiha tahlilining mohiyati va vazifalari.
- 2.4. Loyiha tahlili tuzilmasi.
- 2.5. Davlatning iqtisodiy faoliyati va investitsiya loyihalari.

2.1. «Loyiha» tushunchasi, loyihalarning turlari va xususiyatlari.

Loyiha - inglizcha «proekt» soʻzidan olingan boʻlib, jismoniy obʼektlar, texnologik jarayonlarni yaratish yoki takomillashtirish va ularni amalga oshirish boʻyicha texnik, tashkiliy xujjatlar, moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa manbaalar hamda ularni bajarish boʻyicha boshqaruv qaror va tadbirlarni maqsad doirasida taʼriflangan xujjatlar turkumini ifodalaydi.

Loyiha atamasini qisqa taʼrifini quyidagicha ifodalash mumkin.

Loyiha - gʻoya, muammo, maqsad va uni amalga oshirish vositalari (qaror, tadbirlar) hamda maqsad, yaʼni gʻoyani amalga oshirish jarayonida olinadigan natijalarni ifodalovchi xujjatlar toʻplamidir. U quyidagi sxematik koʻrinishda ifodalanadi.



Xalq xoʻjaligining bir qator tarmoqlari, yaʼni aviakosmik tadqiqotlar, mudofaa sanoati singarilarda yaratilayotgan obʼektlar shunday marakkab va keng qamrovli xisoblanadiki, oʻzining echimi uchun koʻp vaqt talab etadi. Bularni bir loyiha tarkibida amalga oshirib boʻlmaydi, ular oʻz tarkibiga bir necha loyihalarni qamrab olgan “Dastur” asosida amalga oshiriladi.

Xozirgi davrda Oʻzbekistonda quyidagi rivojlanish dasturlari ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda:

- don mustaqilligi; aholini oziq-ovqat bilan toʻla taʼminlash; energetika va yoqilgʻi mustaqilligi; transport va aloqa; turar joy bilan taʼminlash; mashinasozlik; qishloq xoʻjaligini tubdan isloh qilish; aholi gaz va ichimlik suvi bilan taʼminlash va boshqalar.

YUqorida bayon etilganlardan maʼlum boʻldiki loyiha- bu jamiyat hayoti va faoliyatning turli tomonlarini oʻz ichiga oluvchi keng miqiyosdagi tushunchadir.

Loyiha turlari. Loyiha turlari quyidagi 5 omil orqali aniqlanadi.

1. Loyihaning koʻlami.

2. Loyihani amalga oshirish (realizatsiya muddati).
3. Loyiha sifati.
4. Manbalarining chetlanganligi.
5. Loyihani amalga oshirish joyi va sharoiti.

Bu omillar bo'yicha loyihalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Kichik loyiha
- Qisqa muddatli loyiha
- Multi loyiha
- Mono loyiha
- Mega loyiha
- Xalqaro loyiha

Kichik loyiha - ko'lami bo'yicha katta bo'lmagan, sodda va hajmi cheklangan. AQSH amaliyotida bunday loyihalarga kapital qo'yilmalar 10-15 mln. dollargacha; mehnat sarfi 40-50 ming odam/soatni tashkil qiladi.

Qisqa muddatli loyiha - korxonada qisqa muddatda bajarilishi zarur bo'lgan ishlarga tuziladi. Bularga korxonada ishlab chiqarish bo'yicha turli yangiliklarni qo'llash, tajriba o'tkazish va tiklash ishlarni amalga oshiruvchi loyihalarni ko'rsatish mumkin.

Multi loyiha - buyurtmachining o'zaro bog'liq bir necha loyihalarga tegishli bo'lgan g'oyasi (fikri) asosida tuzilgan loyihadir. Multi loyiha mavjud yoki yangi tashqil etilayotgan korxona va firmaga ma'lum bir o'zgartirish kiritishda qo'llaniladi.

Buyurtmachilarni talabi va cheklangan vaqt moliyaviy hamda ishlab chiqarish imkoniyatlarida firmani ishlab chiqarish dasturi doirasidagi bir qancha buyurtma va xizmatlarni amalga oshiruvchi loyihalar multi loyihalar xisoblanadi.

Multi loyihalarga mana bunday misollar keltirish mumkin:

- bir pudratchi kompleks ishni turli buyurtmachilar bilan turli xildagi ishni alohida shartnomalar asosida bajaradi.
- bir buyurtmachi ob'ekting kompleks ishini bir necha pudratchilar tomonidan bajaradi.

Mono loyiha - multi loyihaning muqobili xisoblanib alohida investitsiya, ijtimoiy va boshqa loyihalar cheklangan vaqt va resurslar bilan yagona loyiha bo'yicha bajarilishi tushuniladi.

Mega loyiha - bu umumiy maqsad sari birlashtirilgan zarur resurslar va uni bajarish uchun vaqtga ega bo'lgan o'zaro bog'liq bir qancha loyihalarga ega bo'lgan maqsadli dasturdir. Bunday dasturlar xalqaro, davlat, milliy, xududiy bo'lishi mumkin. Mega loyihani o'ziga xos jihatlari quyidagilar:

- o'ta qimmat (bir mlrd. va undan ortiq dollar);
- kapital sig'imi yuqori;
- mehnat sarfini ko'pligi (loyihalashtirishga 2 mln. kishi/soat, qurilishga 15-20 mln. kishi/soat);
- amalga oshirishni o'zoq muddatliligi (5-7 va undan ko'p yil);
- boshqa mamlakatlar ishtirokining zarurligi;
- loyihani amalga oshirish xududlarini o'zoqligi, binobarin infrastrukturaga qo'shimcha xarajatlar qilinishi;
- xudud va umuman mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy muhitiga ta'sir etishi.

Xalqaro loyiha - odatda qimmat va murakkabligi bilan boshqalardan farqlanadi, yana u qaysi mamlakat uchun tayyorlangan bo'lsa shu mamlakatning siyosiy va iqtisodiy holati bilan farqlanadi. Bu loyihani o'ziga xos jihatlari quyidagicha:

- loyiha uchun jihozlar va materiallar odatda jaxon bozoridan sotib olinadi;
- loyihani tayyorlash darajasi shunday "ichki" loyiha tayyorlash darajasidan sezilarli darajadan yuqori bo'ladi;
- loyihani tayyorlash davrini o'zoqligi;
- loyihani tayyorlashda xalqaro axborot va ma'lumotlardan foydalanishi. Bu har doim "ichki" loyihalardan juda samarali bo'ladi shunga muvofiq qimmatdir.

2.2. Loyiha xayot davrining asosiy bosqichlari.

Loyiha yuzaga kelgan vaqtdan toki u t^{at}ilgunga qadar o't-gan vaqt oralig'iga loyihaning hayot davri, loyiha bosib o'tishi lozim bo'lgan holatlarga esa fazalar, bosqichlar deyiladi. Loyi-halar hayot davri(LHS) ning q^{ay}idagi boskichlari farqlaiadi:

1. Investitsiya oldi bosqichi.
 - a) investitsiya imkoniyatlarining tahlil;
 - b) dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash;
 - v) texnik-iqtisodiy asoslash;
 - g) investitsiya imkoniyatlari to'rrisida doklad.
2. Investitsiya boskichi.
 - a) muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish;
 - b) loyihalashtirish;
 - v) qurish(q)ilish ishlarini amalga oshirish);
 - g) marketing;
 - d) xodimlarni o'qitish.
3. Ekspluatatsiya bosqichi.a)qabul qilish va ishga tushirish;
b) uskunalarni almashtirish (yangilash); v)kengaytirish, innovatsiya. Mehnat sig'imiga ko'ra, LXS ni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Bosqichlar	Konsepsiya	Rejalashtirish	Loyihalashtirish	Qurilish	yakunlash
Vaqt	3 %	P%	20%	00%	12%

Loyihaning konsepsiyasini ishlab chiqish loyihaning yakuniy maksadlari va bu maqsadlarga erishish yo'llarini belgilashni o'z ichiga oladi. Bunda muqobil maqsadlar ko'rib chiqiladi, hajmlar, muddatlar, foyda hajmi miqdoran solishtiriladi.

Loyihaning yashovchanligini baholash dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash mazmunini tashkil etadi. Bunda bir necha muqobil variantlar ko'rib chiqiladi va qiymati hamda foyda bo'yicha baholanadi. Loyihani rejalashtirish bosqichida loyiha bo'yicha ishlar rejasi tuziladi. Bu rejada ishlarning tarkibiy va vaqt bo'yicha bosqichlari, ijrochilari aniklanadi. Biz fa-qat investitsiya oldi bosqichini o'rganamiz, xolos, LXSni xarak-terlagan holda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Loyiha g'oyasi.
 2. Muammo tahlili (maqsadlar, talablar, vazifalar).
 3. Konsepsiyani ishlab chiqish (ishlab chiqishga qo'yilgantalablar, amalga oshirish imkoniyatlari tahlili, muqobil kon-sepsiyalar).
 4. Loyihani ishlab chiqish.
 5. Loyihani amalga oshirish (ish hujjatlari, xarid, si-nov, qabul qilish).
 6. Ekspluatatsiya (natijalar sinovi, texnik xizmat ko'r-satish).
 7. Tugatish (demontaj, sotish, rivojlantirish haqidaqaror qabul qilish va yangi loyiha).
- Loyihani ishlab chiqishning turli bosqichlarida turli darajadagi aniqlikka erishiladi va xatolikka, qaltislikka yo'l qo'yiladi.

2.3. Loyiha tahlilining mohiyati va vazifalari.

Loyiha tahlili — xarajatlar va daromadlar hamda loy-iha bilan borliq bo'lgan qaltislikni (tavakkalchilikni) ti-zimli baholash va ochib berish asoeida loyihalarni tayyorlash, baholash va tanlab olish usulidir. Loyiha tahlilining katta qismi loyiha davrining dastlabki bosqichvda, ya'mi uni qabul qilish yoki qilmaslik to'g'risida qaror qabul qilingungacha amalga oshiriladi.

Loyihaning daromadlilikini aniqlash loyiha tahlilining vazifasi hisoblanadi. Daromadlilik esa loyihadan olinadigan daromad bilan unga qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq sifa-tida aniqlanadi. YA'ni loyihaning daromadlilikini aniqlash uchun uning barcha natijalarini aniqlash hamda loyihadan olingan daromadlar unga qilingan xarajatlardan ortish yoki ortmasligi-ni hisoblab kurish kerak. Chunki loyihani amalga oshirish uchun bugun qilinayotgan xarajatlar bilan undan qandaydir vaqt o't-gandan keyin olinadigan daromadlarni bevosita solishtirib bo'lmaydi. Loyihaning ko'pgina aktivlari va inshootlari uzoq mud-dat xizmat qilishi buning sababi hisoblanadi. Loyihaning ay-rim xarajatlari va natijalarini, masalan, qurilish ishlari xarajatlari o'lchash va baholash oson. Boshqalarini esa o'lchash oson, lekin baholash ancha qiyin. Masalan, xodimlarni o'qitish xarajatlari va natijalarini miqdoriy va sifat jihatdan o'lchash oson, lekin real natijalarini baholash ancha murakkab.

Nihoyat, ayrim loyihalar natijalarini, masalan loyiha-larning an'anaviy faoliyat turlariga ta'sirini o'lchash ham, baholash ham qiyin.

Loyiha xarajatlari turli xilda bo'lishi tufayli loyiha har xil nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

1. Loyiha texnik jihatdan asoslanganmi?
2. Loyiha tijorat talablariga javob beradimi?
3. Loyiha o'z-o'zini moliyaviy jihatdan qoplaydimi?
4. U iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydimi?
5. Loyiha atrof -muhitga kanday ta'sir o'tkazadi?
6. Loyiha mahalliy ijtimoiy - madaniy xususiyatlarni hisobga olganmi?
7. Loyihani amalga oshirishning institutsional (tashkiliy) imkoniyatlari bormi?

Ijobiy natijalar yalpi xarajatlardan ortish-ortmasligini aniqlash zarur. Xarajatlarni tahlil qilish uchun quyidagi savollarga javob olishimiz kerak:

- Loyihaning biz istagan natijasi qanday?
- Loyiha xarajatlari kim ko'taradi va uning ijobiy natijalaridan kim foydalanadi?
- Loyihaning ijobiy natijalari qachon va qaerda paydobo'ladi?

Loyihaning yakuniy qiymati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun loyihaga aloqador bo'lgan kishilarning turli guruh-lari olgan foyda va qilgan yuqotishlarni qanday taqqoslash va jamlash kerak?

Bu loyihaning yakuniy ijobiy natijasi boshqa mumkin bo'lgan loyihalar natijasidan nimasi bilan farq qiladi?

Loyiha tahlili loyihani shakllantirish jarayonining uzidayoq uning turli jihatlari ta'sirini va rolini o'zgartirish imkonini beradi. Har qanday yangi axborot, agar foydali bo'lsa, ilgari qabul qilingan karorlarni o'zgartirish uchun sa-bab bo'lishi mumkin.

Demak, loyiha-smeta hujjatlari loyiha tahlili jarayo-nida, ya'ni loyihaning turli jihatlari ko'rib chiqish natijalari va yangi olingan axborotlardan kelib chiqib, ilgari berilgan baholarni tuzatish bilan birga ishlab chiqiladi.

2.4. Loyiha tahlili tuzilmasi.

Loyiha tahlilida daromadlar va xarajatlar quyidagi 7 nuqtai nazardan turib baholanadi va ular loyiha tahlilining 7 bo'limini tashkil etadi.

1. Texnik tahlil: loyiha texnik jihatdan asoslanganmi?
2. Tijorat tahlili: loyiha mahsulotiga bozorda talabbormi?
3. Moliya: moliyaviy jihatdan loyiha yaroklimi?
4. Loyihaga qilingan xarajatlar undan foydalanuvchi(iste'molchi)lar hisobiga qoplanadimi ?
5. Ekologiya: loyiha atrof-muhitga kanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Institutsional rivojlanish: loyiha uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar uni amalga oshirish va ekspluatatsiya qilishga qodirmilar?
7. Loyihaning ijtimoiy va madaniy talablarga mosligi: loyiha mahalliy sharoitlarga

moslanganmi? Loyiha aho-lining ayrim guruhlariga ta'sir ko'rsatadimi ?

8. Iqtisod: loyihaning ijobiy natijalari uni amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish xarajatlaridan ortiqmi ?Loyihada tavakkalchilik darajasi qanday ?

Loyiha tahlilining har bir bo'limi o'z uslubiga ega hamda ko'rilayotgan xarajat, daromad yoki boshqa omillar xarakteriga ko'ra miqdor yoki sifat ko'rsatkichlari to'g'risidagi foydalani-ladigan axborot hajmi o'zgarib turadi. Hatto tahlilning miq-doriy jihatlariga tegishli bo'lgan moliyaviy loyihalar ham pro-gnozlashga xos bo'lgan noaniqlik omillaridan kelib chiquvchi sifat elementlariga ega. YA'ni loyiha tahlili loyihaning ke-lajak holatlar to'g'risidagi fikrlarning o'zgarishiga ta'sir-chanligini hisobga ola bilishi kerak.

2.5. Davlatning iqtisodiy faoliyati va investitsiya loyihalari.

Loyiha tahlilining turli bo'limlari doirasidagi tadqi-qotlar loyihaning o'zaro kelishio olingan vazifalaridan ke-lib chiqib olib borilishi lozim. Ko'pincha bu vazifalar, hududdagi mahalliy sharoitlar loyihani amalga oshirishga ko'rsatadigan ta'sirni hisobga olgan holda alohida sektorlarni rivojlantirish dasturlarini aks ettiradi. Bu vazifalar xa-rakteriga, shuningdek, quyidagilar ham ta'sir ko'rsatadi:

- turli tadbirlarni o'tkazishni kinga (davlat yoki xususiy sektorga) topshirish to'rrisida jamiyatning xohish-irodasi.
- davlat loyihalari oldiga qo'yilgan maqsadlar bo'yicha ijtimoiy guruhlarining o'zaro kelishuvga erishishiga yordam be-ruvchi jarayonlar.

Ilmiy tadqiqotlar yakunlari hamda to'plangan tajriba shuni ko'rsatadiki, davlatning faolliligi ko'lamlarini qis-qartirish hamda davlat dasturlarini xususiy iqtisodiy fao-liyat uchun qulay siyosiy sharoitlar yaratishga yo'naltirish foy-daliroq bo'lar ekan. Bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda ham, shuningdek, sobiq sotsialistik davlatlarda ham siyoeatchilar va iqtisodchilar davlatning nafaqat bevosita davlat korxona-lari faoliyatidagi rolga, shu bilan birga davlat aa'anaviy ishtirok etib kelgan infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi rolga ham ikkilanish (shubha) bilan karashadi.

Xususiy sektorning bu sohalarda ishtirok etish uchun intilishiga bosh sabab menejerlar shaxsan javobgar bo'lgan sha-roitda ob'ektlar faoliyati samaradorligini oshirish imkoniya-ti mavjudligi hisoblanadi. Xususiy investorlar maishiy xiz-matlarga muvaffaqiyatli jalb qilingan hollarda moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyatlari kengayishidan ham ma'lum ma'noda manfaatdorlik kelib chiqadi.

Puxta o'ylangan makroiqtisodiy siyosat yuritayotgan mam-lakatlarda investitsiyalangan kapitallardan keladigan daro-mad ancha yuqori. Iqtisodiyotdagi xatoliklar nisbatan katta bo'lmagan mamlakatlarda investitsiyalardan keladigan samara 10%dan ancha ortiq va 20%gacha hamda undan ham ko'proqqa eta-di. Noto'rri makroiqtisodiy siyosat yuritayotgan ^shuningdek, valyuta mukofoti yuqori bo'lgan) mamlakatlarda investitsiya-lardan keladigan samara (qaytim) bor-yugi 10% ga etadi va ko'pincha undan ham past bo'ladi.

Makroiqtisodiy siyosatni to'g'ri va noto'g'ri olib borayotgan har ikkala guruh davlatlarida ham xususiy, ham davlat investi-siyalaridan olinadigan foyda jami investitsiyalarning milliy hajmidagi davlat investitsiyalari ulushiga mutanosib tarzda o'z-garadi. Davlat investitsiyalari ulushi past bo'lgan sharoitda investitsiya samarasi (qaytimi) yuqori bo'lishi, bu ulush 40% gacha va undan yuqori bo'lsa keskin pasayib ketishi kuzatiladi.

Kuzatilgan bu ikki qonuniyat ham davlat faoliyatini o'zgartirish ya'ni makroiqtisodiy xatoliklarni qisqartirish va iqtisodiy faoliyatda davlat rolini pasaytirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida xususiy sektorning makroiqtisodiy siyosat maqsadlarini belgilashda hamda loyihalarda ishtiroki kengaytirilgandagina bunday o'z-garishlardan yutuqqa erishish mumkin.

Davlat loyihalarini tanlashda hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan takdirda ham, xususiy investitsiyalarni avtomatik tar-zda siqib chiqarmasligi lozim.

Xususiy kapital ishtiroki uchun sharoitlarni yaxshilash zarurati loyihalarni kim amalga oshirishi kerakligi hamda xususiy kapital ishtiroki ko'zda tutilgan loyihalarni kim ishlab chiqishi kerakligi to'g'risida so'rov o'tkazishni, shuningdek, mavjud davlat tuzilmalari va siyosati iqtisodiyotning yangi sektorlarga xususiy kapitalni kiritishga qay darajada yordam berishi yoki to'sqinlik qilishini ko'rib chiqish zarur.

Loyiha maqsadi, tahlil chizmasi va rejalashtirish barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi jarayonida muntazam muvo-fiqlashtirib borilsagina, davlat ixtiyorida qolgan loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Bu manfaatdor tomonlar jumlasiga loyiha tufayli zarar ko'ruvchilar ham, foyda oluvchilar ham, loyihani amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish uchun mas'ul bo'lgan tashkilot xodimlari ham, shuningdek, davlat boshqaruv idrallari, siyosatchilar hamda moliyachilar ham kiradi.

Loyiha vazifalari va ko'lamini belgilash uchun hamda loyihani tayyorlashda, boshqarishda, ishlab chiqarish grafigini o'rnatishda turli guruhlarining rolini va mas'uliyatini aniqlash uchun bu guruhlar ishtirokida (hamkorligida) rejalar ishlab chiqish jarayonidan tobora ko'p foydalanilmoqda. Loyiha tahlilining etti bo'limi loyihaning barcha jihatlarini har tomonlama baho-lash imkonini beradi. Bunga, shubhasiz, loyiha tahlili jarayoni-da hamkorlik qilayotgan guruhlar tarkibi ham ta'sir ko'rsatadi.

Loyihalarni» rejalashtirishga bunday yondashuv ikki to-monlama ustunlikka ega. Biriichidan loyihalar hamkorlikda rejalashtirish o'zaro kelishuvga erishishga yordam beradi hamda ishtirokchilarni loyiha maqsadlari va vazifalariga tarafdor-liklarini ta'minlaydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday re-jalashtirilgan loyiha muvaffaqiyatli va yashovchan bo'ladi.

Ikkinchidan, turlicha manfaatlarga ega bo'lgan ishtirok-chilarning jalb qilinishi ekspertlar guruhlarini o'rtasida loy-iha xarajatlari va natijalarining nisbiy qiymati to'g'risi-dagi tortishuvlarga nisbatan samaraliroqdir.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning turli loyihalari shunday natijalarga olib keladiki, ularni ob'ektiv baholab bo'lmaydi (masalan, hayvonot turlarining yo'qolib ketishi). Agar rejalash-tirish jarayoniga manfaatdor tomonlar, kerak bo'lsa, mahalliy aholi va xalqaro jamiyat jalb etilsa, ilgari echilishi gumon bo'lgan muammolarni echish uchun ham imkon topilishi mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Loyihaning asosiy elementlari nimalardan iborat?
2. Loyihalarning asosiy xususiyatlarini tushuntirib be-ring.
3. Loyiha hayot davri bosqichlariga izoh bering.
4. Loyiha tahlilining mohiyati nima va vazifalariganimalar kiradi?
5. Loyiha tahlili jihatlarini va tuzilmasini tushunti-ring.
6. Loyihalarda davlat ishtiroki qaysi shakl va yo'nalishda bo'lishi maqsadga muvofiq?

3-modul. LOYIHALARNI TAYYORLASH

R E J A

- 3.1. «Loyihalarni tayyorlash» tushunchasi.
- 3.2. Investitsiya loyihalari xujjatlarini tayyorlash bosqichlari.
- 3.3. Investitsiya mkoniyatlarini qidirishni tashkil etish.
- 3.4. Loyihalarni birlamchi tayyorlash.
- 3.5. Loyihalarning oxirgi shakllangan varianti va uni texnik-iqtisodiy xamda moliyaviy jixatdan afzalligi.

- 3.1. «Loyihalarni tayyorlash» tushunchasi.

Loyihalar ma'lum ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanishlar va marketing tadqiqotlari natijasida tuziladi va ilmiy jihat-dan asoslanadi. Izlanishlar natijasi sifatida aniq ROYA va loyihaning kotsepsiyasi yaratiladi. G'oya esa real va aniq davr bilan chegaralanadi. Loyihani amalga oshirishda yulboshchi-ning roli benihoya kattadir. SHu bilan birga loyihaning mu-hiti qulay va rag'batlashtirish mexanizmi samarali bo'lishi kerak. Loyiha yulboshchisi o'z atrofiga professional muta-xassislardan iborat komandani to'shgay olsagina, har tomonlama asoslangan loyihani yaratishni ta'minlashi mumkin.

Korxonaning investitsiya loyihasini korxona rahbari va uning etuk mutaxassislari ishlab chiqishadi. Agar korxona mu-taxassislarning bilimi va tajribasi etarli bo'lmasa, profes-sional maslahatchilar xizmatidan foydalaniladi. Agar yirik loyihalar ko'p komponentlarga ega bo'lsa, bunday loyihalarni tayyorlashga xalqaro tajribaga ega bo'lgan ekspertlar va mahal-liy mutaxassislar jalb etiladi. Ularning bilim va tajribala-ri tayyorlangan loyihalarning real va ilmiy asoslilikini ta'minlaydi. Loyihalarning real bo'lishi uchun, shuningdek, ularni tayyorlash jarayonida ekspertlarning xulosasini olish maqsadga muvofikdir. Ba'zi hollarda loyihalarni tayyorlash jarayonida ularning samaradorligi pastligi va amaliyotga tatbiq etish qiy-inligi ekspertlar tomonidan isbotlanadi. Natijada kelgusidagi un}tisiz xarajatlarning oldi olinadi.

3.2. Investitsiya loyihalari xujjatlarini tayyorlash bosqichlari.

Investitsiya loyihalarini xalqaro tajribada uchta yi-rik bosqichga bo'ladilar:

- investitsiya oldi bosqichi;
- investitsiya bosqichi;



- yangidan vujudga kelgan ob'ektlarni ekspluatatsiya qilishbosqichi.

«Investitsiya loyihalari tahlili» fanining asosiy nazifasi birinchi bosqich to'g'risida fikr yuritishdir. BMTning YUNIDO nomli bo'limi tomonidan chiqarilgan byulletenda investitsiya oldi bosqichini to'rtta yo'nalishga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi. Bular:

- investitsiya konsepsiyalarini tanlash;
- dastlabki (birlamchi) loyihalarni vujudga keltirish;
- yakuniy loyihani vujudga keltirish va uning texnik-iqtisodiy hamda moliyaviy jihatdan ma'qulligini baholash;
- loyihaning yakuniy muhokamasi va u bo'yicha ma'lum qaror-ga kelish.

Investitsiya oldi bosqichini bunday yo'nalishlarga ajratish maksadga muvofiqdir. CHunki avval korxonaning yoki tar-moqning investitsiya yordamida ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsat-

kichlarini yaxshilash imkoniyati bor yoki yo'qligini aniqlash kerak. Bundan keyin investitsiya haqidagi fikrlarni chuqur o'rganib chiqish va shu asosda biznes-rejani vujudga keltirish lozim. Agar bu reja investor va buyurtmachida qiziqish uyg'ot-sa, ishni keyingi bosqichlarda davom ettirish lozim. Bu yo'nalish biznes-rejani chuqur tahlil qilish va uni iqtisodiy-mo-liyaviy tomondan baholashdan iborat. Agar bu izlanishlar natijasi ijobiy bo'lsa, loyihalarni vujudga keltirish bilan bog'liq bo'lgan oxirgi xulosa chiqarish yo'nalishiga o'tish tavsiya etiladi. Industrial rivojlangan mamlakatlarda investitsiya oldi bosqichini vujudga keltirish loyiha qiymatining 1,5-5% hajmidagi xarajatni talab etadi.

Albatta, bu erda loyiha qiymati hajmi asosiy rol o'ynaydi. Umumiy investitsiya xarajatlardagi investitsiya oldi bosqichining yo'nalishlari bo'yicha xarajatlar ulushi quyidagicha: birinchi yo'nalishda 0,2 - 1,0%, ikkinchi yo'nalishda 0,25 - 1,5 %, uchinchi yo'nalishda katta loyihalar bo'yicha 0,2 - 1,2 %, kichiklari bo'yicha esa 1,0 - 3,0%.

Investitsiya oldi bosqichida mukrbil variantlarga ega bo'lgan bir necha loyihalar o'rganiladi va ulardan samaradorligi pastlari yoki samara bermaydiganlari chiqarib tashlandi. Bunday loyihalar kelgusi yo'nalishlarda ko'rilmaydi va bu bilan juda katta mablag' tejab qolinadi.

Loyihalarning investitsiya oldi bosqichini quyidagi sxema ko'rinishida ifodalash mumkin:

3.3. Investitsiya mkoniyatlarini qidirishni tashkil etish.

Investitsiya loyihalari uchun g'oyalarni qidirish va ular orasida makbulini tanlab olish juda murakkab hamda mas'uliyatli vazifadir. Birinchidan, bu muammoni echish uchun loyi-hani vujudga keltirishdan kim mafaatdor ekanligini bili-shimiz zarur. Agar bu loyiha ishlab turgan korxona uchun bo'l-sa, unda investitsiya konsepsiyasi shu tarmoqda yig'ilgan taj-riba, undagi xodimlarning malakasi, bozor muammolari ma'lum ma'noda belgilangandir. Bu korxonalarni boshqaruvchi idora-lar ham investitsiya konsepsiyasini vujudga keltirishda qiy-nalmaydilar. Ular uchun bunday loyihani amalga oshirish zarur-rati, korxona mahsulotlari hozircha mavjud talabni etarlicha qondira olmasligi yoki shu tarmoq shu davrda ustuvor tarmoq ekanligi ham belgilab beriladi.

Xalqaro tajribada turli sohadagi korxonalar uchun in-vestitsiya konsepsiyalarini izlab topish uchun asos bo'lib xiz-mat qiladigan dastlabki shart-sharoitlarning quyidagi tas-nifi (klassifikatsiyasi) qabul qilingan:

- ishlab chiqarish yoki qayta ishlash uchⁿ zaRUR bo'lgan foydali qazilmalar resurslarining mavjudligi;
- qishloq xo'jaligining agrosanoat kompleksi doirasidaamalga oshirilishi mumkin bo'lgan loyihalar doirasi xamdakishlok xo'jaligini rivojlantirish potensialini belgilab beruvchi imkoniyatlari va an'analari;
- ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar ta'siridayoki bozorda yangi tovar vujudga kelishi natijasida talab hajmiva tarkibida kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarnibaholash (masalan, radiotexnikaning rivojlanishi gramplas-tinkalar ishlab chiqaruvchi korxona. uchun investitsiya konsepi-yalarini yaratishda turtki bo'lib xizmat qiladi);
- import tuzilmasi va hajmi. Bu ko'rsatkichlar imdorto'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni yaratishga yo'naltirilganloyihalarni vujudga keltirishga turtki bo'lishi mumkin;
- o'xshash resurslar va ijtimoiy-iqtisodiy darajaga egabo'lgan davlatlarning ishlab chikarish tuzilmasini rivojlan-tirish bo'yicha tajribalari va an'analari;
- milliy yoki jahon iqtisodiyoti doirasida iste'molchi tar-moqlarda yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlar;
- iste'molchi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini oshi-rshp rejalari to'g'risidash yoki ishlab chiqarilgan mahsulotga jahonbozorida talabning o'zgarishini xarakterlovchi axborotlar;
- yagona xom ashyo bazasida turli xil mahsulotlar ishlabchiqarishning ma'lum va yangidan topilgan imkoniyatlari;

- ommaviy ishlab chiqarishdan iqtisodiy tejamkorlikka erishish maqsadida ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirish;
- umumiy iqtisodiy shart-sharoitlar (masalan, hukumat tomonidan qulay investitsiya muhitining yaratilishi, milliy va lyuta almashuv kursining o'zgartirilishi natijasida eksport imkoniyatlarining yaxshilanishi va h.k.).

Yuqorida keltirilganlar loyihalarni investitsiyalash uchun umumiy shart-sharoitlar hisoblanadi. Bu shart-sharoitlar hali loyihalarni tashkil etish uchun to'liq asos bo'la olmaydi. U yoki bu loyiha konsepsiyasining keyingi bosqichlarini davom ettirish yoki ettirmaslik uchun mutaxassislarning chuqur tahlili natijalari zarur bo'ladi. Moliyaviy manbalardagi axborotlar etarli bo'lishiga karamay, investor o'zicha biror qarorga kelishdan xavfsiraydi. Bundan tashqari turli tahlillarga sarf etish uchun uning vaqti ham yo'q. SHuning uchun investor har xil konsultantlarga murojaat etishni lozim ko'radi. Investi-siya o'ryicha konsultantlar shunday shaxs yoki firmalarki, ularning asosiy vazifasi o'z mijozlariga mablag'larni qaysi loyi-haga sarf etishni tavsiya etishdan iborat.

3.4. Loyihalarni birlamchi tayyorlash.

Loyihalarni birlamchi tayyorlash yo'nalishiing asosini biznes - reja tashkil etadi. Kichik loyihalar uchun biznes-reja birinchi darajali asoslovchi hujjat hisoblansada, katta loyihalarni tayyorlashda oraliq hujjat vazifasini o'taydi, xolos. Bunday biznes-rejaning vazifasi quyidagi savollarga javob topishdan iborat:

- Investitsiya loyihasining konsepsiyasi loyiha ustidaishni davom ettirib, texnik-iqtisodiy va moliyaviy jihatdan foydali ekanligini baholash uchun hujjatlar tayyorlashga arziydigan darajada qiziqarli va foydalimi?

- Bu konsepsiyada kelajakdagi muvaffaqiyat uchun halkiluvchi rol o'ynaydigan, shu sababli alohida e'tibor bilan tadqiq qilinishi shart bo'lgan jihatlar bormi?

Biznes-reja — investitsiya loyihalarrshi asoslaydigan, loyi-halarning imkoniyatlarini belgilaydigan, daromad va xarajatlar-ni xisoblaydigan, mablag okimini ko'rsatadigan muxim hujjatdir-Bu hujjat orkali loyihalar boshqariladi. Biznes - rejaning asosiy vazifasi loyihalarga sistemali baho berishdan iboratdir.

Biznes-reja iqtisodchi va ishbilarmonlarga quyidagi to'rtta asosiy masalani echishda yordam berishi kerak:

- bozor sishmi va uning rivojlanish istiqbollarini o'r-ganishda;
- bozorga zarur bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash uchun ke-tadigan xarajatlarni baholash va bu xarajatlarni tovarlar-ni sotish baholari bilan solishtirib, mo'ljallangan ishning foydaliligi darajasini aniqlashga;
- yangi biznesning birinchi yillarida bo'aorda kutilishi(mumkin bo'lgan to'siqlarni aniqlashga;
- ish rivojlanayotganligi yoki orqaga ketayotganligani do-imiy baholab borish imkonini beruvchi signal-ko'rsatkichlarni aniqlashga.

Biznes-reja istiqbol xarakterga ega bo'lib, uni kamida 3 yoki 5 yil oldinga tuzish tavsiya etiladi. Biznes-rejada bi-rinchi yil muhim ahamiyatga ega bo'lganligi uchun reja ko'rsat-kichlari oylar bo'yicha, ikkinchi yili chorak (kvartal)lar bo'yi-cha, keyingi yillarda esa yilda bir marta ifoda etiladi. Biz-nes-reja ma'lum bir tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Masalan, YUNIDO ma'lumotnomasida bu tuzilmada qabul qilinishi mumkin b5'lgan qarorlarni tahlil qilishga bag'ishlangan quyi-dagi bo'limlarni ajratib ko'rsatish tavsiya etilgan:

- [govar ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasi. Bozor sig'imini va korxonaning ishlab chiqarish kuvvatlarini baholash u uchun asos isoblanadi;
- mahsulot ishlab chikarish uchun foydalaniladigan re-surslar assortimenti va xajmi;
- yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirish ;
- ishlab chikarishni tashkil kilishning texnik asoslari:kelgusidagi texnologiyalar va ularni realizatsiya kilishni ta'-minlovchi uskunalar parki tavsifi;
- ishlab chikarish, boshqaruv va savdo xodimlari ishini ta'-minlash uchun sarflanadigan

xarajatlar hajmi va tuzilmasi;

- ishlab chiqarish va boshkaruv xodimlari ish faoliyati-ni tashkil kilish, shu jumladan, mehnat haqi masalalari;
- loyihani amalga oshirishni tashkiliy-huquqiy jihatdan ta'minlash, shu jumladan, yangi tashkil qilingan ob'ektlarning huquqiy maqomi;
- loyihani moliyaviy ta'minlash, ya'ni zarur investitsiyasummalari, taxminiy ishlab chiqarish xarajatlari, shuningdek, investitsiya resurslarini olish imkoniyatlar hamda ulardan foydalanishning samaradorligini baholash.

Mahsulotlar realizatsiya qilinadigan bozor va raqobat-ni baholash biznes-rejada katta o'rin tutadi. Ishlab chiqara-yotgan mahsulotingiz nihoyatda sifatli, oxirgi texnika va tex-nologiya talablariga javob beradigan bo'lishining o'zi hali ijtimoiy natija emas. Eng muhimi, mahsulotingiz iste'mol-chiga kerakli bo'lishi va u realizatsiya qilinishi lzim. SHuning uchun bu bo'limning asosiy vazifasi ishlab chiqaradigan mahsu-lotingiz o'z iste'molchisini topa olishi va rakrbatga chidamli-ligiga investorni ishontira olishdan iboratdir.

Mahsulot realizatsiya qilinadigan oozorlarni o'rganish davrida ularni to'rt guruhga bo'ladilar:

- ishlab chiqaradigan mahsulotingizni iste'molchilar bilmaydigan bozorlar;
- ishlab chiqarmoqchi bo'lgan mahsulotingizni iste'molchilar biladigan, lekin sotib olmaydigan bozorlar;
- raqobatchingiz mahsulotini sotib oladigan bozorlar;
- iste'molchilar sizning mahsulotingizni sotib oladigan bozorlar.

Ana shu bozor turlari chuqur tahlil qilingandan keyin loyiha mahsulotini qaerda va necha so'mdan sotish kerakligi aniqlanadi,

Biznes - rejadan tashqari, agar investitsiya asosiy fondlarni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilishga sarf etilsa, unga smeta ham tuziladi.

3.5. Loyihalarning oxirgi shakllangan varianti va uni texnik-iqtisodiy xamda moliyaviy jixatdan afzalligi.

Loyihalarni texnik-iqtisodiy va moliyaviy asoslashda, uning barcha jihatlari (ya'ni texnik, moliyaviy, tijorat jihatlari) bilan bog'liq bo'lgan muammolarni muqobil sur'atda ko'rib chiqiladi. Bu vazifani faqat iqtisodchilarning o'zlarigina uddalay olmaydilar, shu sababli loyihalarni tayyorlash-ning bu bosqichida turli sohadagi mutaxassislar guruhi ishtirok etishi maksadga muvofiq bo'ladi.

Bular:

- shu tarmokda ish tajribasiga ega bo'lgan iqtisodchi (iloji bo'lsa mutaxassislar guruhiga iqtisodchi rahbarlik qilishi kerak);
- mahsulot realizatsiya qilinadigan bozorni tahlil qila-digan mutaxassis (marketolik);
- mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi bila-digan bir yoki bir necha muhandis-texnolog;
- mahsulot xususiyatlarini, uni sotishda yuzaga kelishimumkin bo'lgan muammolar, xizmat ko'rsatishni yaxshi biladi-gan muhandis-konstruktor;
- shunga o'xshash ishlab chiqarishlarni barpo etish bilanshug'ullangan quruvchi-muhandis;
- shu turdagi ishlab chiqarishlarda xarajatlar hisobiniyuritish bo'yicha mutaxassis.

Doim ishlovchi mutaxassislar bilan bir qatorda guruh ishida loyihaning ayrim muammolari bo'yicha mutaxassislar ham (masalan, ekologlar) vakti-vaqti bilan jalb etilishi mumkin. Loyihani qabul qilishga, qandaydir omillar ta'sir ko'rsatishi aniqlansa, loyiha guruhi darhol bu to'siqni bartaraf etuvchi muqobil echimlarni topishi lozim.

Loyihani yakuniy shakllantirish va uni to'liq texnik-iqtisodiy va moliyaviy asoslashning mazmunini yakuniy karorga kelish uchun zarur bo'lgan barcha turdagi ma'lumotlarni tayyorlash tashkil etadi.

Loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash deganda ularning maqsadga muvofiq ekanligi va standartligini ko'rsatadigan, hisoblanadigan hujjatlar majmuasini tayyorlash tushuniladi.

Bu investitsiya oldi hujjat bo'lib, unda loyihalar muhandislik - konstruktorlik, qurilish-texnologik tomondan asoslanadi. Tajribada bu jarayonga bir yoqlama yondashish uning hamma loyihalar uchun bir xil modelini topish juda qiyin.

TIA bo'limlarining taxminiy tuzilmasi quyida keltirilgan:

Loyihalarni vujudga keltirish shart-sharoitlari va uoyasi:

- 1.1. Loyiha G'OYASINING mazmuni.
- 1.2. Loyiha tashabbuslari.
- 1.3. Loyiha bo'yicha ma'lumotlar.
2. Bozor tahlili va marketing strategiyasi:
 - 2.1. Umumiy iqtisodiy tahlil.
 - 2.2. Marketing bo'yicha izlanishlar.
 - 2.3. Loyiha strategiyasi asoslari.
 - 2.4. Marketing konsepsiyasi.
 - 2.5. Marketing tarmoqlari va xarajatlari.
3. Loyihani resurslar bilan ta'minlanganligi:
 - 3.1. Xom ashyo va materiallar tasnifi (klassifikatsiyasi).
 - 3.2. Materiallarga bo'lgan talabning o'ziga xos xususiyatlari.
 - 3.3. Material resurslar mavjudligi va ularni etkazib berish.
 - 3.4. Materiallarni etkazib berish marketingi.
 - 3.5. Butlovchi mahsulotlar va material resurslar xarajatlari.
4. Loyihalardagi ob'ektlarni joylashadigan o'rni va atrof-muhit:
 - 4.1. Ob'ekt joylashadigan joy tax/shli.
 - 4.2. Tabiiy muhit.
 - 4.3. Atrof-muhitning ta'sirini baholash.
 - 4.4. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat.
 - 4.5. Loyihalarning infratuzilmasi holati.
 - 4.6. Loyiha uchun joyni tanlash.
5. Loyihalash va texnologiya:
 - 5.1. Ishlab chiqarish dasturi va quvvatlar.
 - 5.2. Loyiha uchun texnologiya tanlash.
 - 5.3. Loyiha uchun texnologiya sotib olish.
 - 5.4. Loyiha uchun asosiy hujjatlarni tayyorlash.
 - 5.5. Loyiha uchun kerakli mashinalar va uskunalarni tanlash.
 - 5.6. Aholi uchun uy-joy qurish.
 - 5.7. Texnikaviy xizmat ko'rsatishga qo'yiladigan talablar.
 - 5.8. Umumiy investitsiya xarajatlarini baholash.
6. Loyihalar ko'rsatilgan korxonani tashkil qilish va boshqa xarajatlari:
 - 6.1. Korxonani boshqarishni tashkil etish.
 - 6.2. Loyihalashni tashkil etish.
 - 6.3. Umumxo'jalik va umumishlab chiqarish xarajatlari.
7. Mehnat resurslari:
 - 7.1. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhit.
 - 7.2. Xodimlarning toifa bo'yicha mehnat resurslariga talabi.
 - 7.3. SHtat jadvali.
 - 7.4. Xodimlarni o'qitish-o'rgatish va qayta tayyorlash rejasi.
 - 7.5. Xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlarini baholash.
8. Investitsiya loyihasini amalga oshirishni rejalash-tirish:
 - 8.1. Investitsiya loyihasini amalga oshirishni rejalash-tirishning maqsadi.
 - 8.2. Loyihalarni amalga oshirish bosqichlari.
 - 8.3. Loyihalarni amalga oshirish grafigi.

8.4. Loyihalarni amalga oshirish byudjeti.

9. Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil va investitsiyalarni baholash:

9.1. Loyihalar moliyaviy tahlilining maqsadi va vazifalari.

9.2. Loyiha xarajatlarini baholashning tahlili.

9.3. Loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubi.

9.4. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. Ijобiy TIANi vujudga keltirish uchun loyiha goyasi mamlakat va xudda umumiy iqtisodiy sharoitlarga mos kelishi kerak. Loyiha royasida investitsiyaning aniq mazmunini ifoda qilish va investorlarning nima uchun bu loyihaga qiziqishi sabablarini belgilash zarur. Bu bo'limda loyihaning tarixi, g'oyaning vujudga kelish sababi, u bo'yicha oldin qilingan izlanishlar bayonoti beriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

Investitsiya loyihalari hujjatlarini tayyorlash bosqichlariga tavsif bering.

Investitsiya oldi bosqichining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Investitsiya konsepsiyalarini izlab topish uchun asosbo'luvchi shart-sharoitlarni sanab o'ting.

Biznes-reja nima va uning vazifalari nimadan iborat?

Biznes-reja tuzilmasiga tavsif bering.

Loyihalarga yakuniy baho berish uchun jamlanadigan mutaxassislar guruhi qanday bo'lishi kerak?

Loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash bosqichlariga izoh bering?

4-modul. Investitsiya loyihalarini moliyaviy –iqtisodiy baholashning uslubiy asoslari

R E J A

4.1 Investitsiya loyihalarini tanlashda moliyaviy-iqtisodiy baholashning roli.

4.2. Diskontlash xaqida tushuncha.

4.3. Annuitetning kelgusi va joriy qiymati.

4.4. Renta qiymati.

4.1 Investitsiya loyihalarini tanlashda moliyaviy-iqtisodiy baholashning roli.

Real aktivlarga mablag' sarf qilishning maqbul variantlarini tanlash va asoslab berish jarayonida investitsiya loyihalarini iqtisodiy - moliyaviy baholashning ahamiyati juda katta. Boshqa barcha jihatlari ijobiy bo'lgani holda ham kuyidagi shartlarni ta'minlamagan loyiha amalga oshirish uchun qabul qilinmaydi:

- tovarlarning realizatsiya qilinishidan kelgan daromadlar sarf etilgan xarajatlarni qoplamasa;
- loyihani mablag' bilan ta'minlaydigan investor o'rta-cha foyda me'yoridan kam bo'lmagan rentabelikka erishmasa;
- investor uchun ma'qul keladigan davr ichida xarajatlarni qoplanmasa.

Mana shu shartlarning bajarilishi real ekanligini aniqlash investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholashni eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bunday baholashni o'tkazish bir qancha sabablarga ko'ra, ancha qiyin. Bu sabablar quyidagilardir:

- birinchidan, investitsiya xarajatlari bir marta qilinishi yoki uzoq muddat ichida bir necha marta takrorlanishi mumkin;
- ikkinchidan, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan natija olish jarayoni ham uzoq davom etishi mumkin;

- uchinchidan, uzoq muddatli operatsiyalarni amalga oshirish investitsiya loyihalarining barcha jihatlarini baholash-da noaniqlik darajasi oshishiga, turli xatoliklarga yo'l qo'yilishiga olib keladi. Aynan ana shu omillarning mavjudligi investitsiya loyihalarini baholashning maxsus, xatolik darajasi minimal bo'lgan, etarlicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradigan uslublarini yaratishni taqozo etdi.

4.2. Diskontlash xaqida tushuncha.

Investitsion jarayon doim tavakkalchilik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki vaqt noaniqlikni kuchaytiradi va xarajatlarni qoplashning muddatlari kanchalik o'zoq bo'lsa, investitsion loyiha shunchalik tavakkalchiligi yuqori bo'ladi. Shu boisdan loyiha bo'yicha qaror qabul qilinayotganda, xarajatlar, tushum, foyda va iqtisodiy rentabellik baholanayotganda, albatta, vaqtiy o'zgarishlarni inobatga olmoq'i lozim. Ana shu narsa diskontlashtirish deyiladi, va odatda bir necha muqobil variantlarda amalga oshiriladi.

Diskontlash - murakkab foyiz ko'shimchasiga qarama-qarshi operatsiya bo'lib, u loyihada keltirilgan kelajak qiymatlarini hozirgi davrda mavjud qiymatlarga aylantirishda qo'llaniladigan usuldir. U kelajak to'lovlarini yoki tushumlarini joriy qiymatini aniqlashga imkon beradi. Bundan kishilar joriy va kelajak iste'moli oraligidagi tanlovda foydalaniladilar.

Diskontlashtirishda - investitsiyalarni muqobil imkoniyat bilan aniqlanuvchi joriy foyiz stavkasi ishlatiladi va turli davrlarda olinadigan bir xil miqdorni nisbiy qiymatini xisoblashda ishlatiladi.

Diskontlashtirish asosi bo'lib "vaqtinchalik avfzallik" tushunchasi yoki pullarini vaqt bo'yicha qiymatini o'zgarishi xizmat qiladi. Bu oldin olingan bir birlik miqdordagi pullar so'ngroq olingan bir birlik miqdordagi pullarga nisbatan kattaroq qiymatga egaligini ifodalaydi. YA'ni diskontlashtirish kelajakda qilinishi mumkin bo'lgan summaning hozirgi pulli ekvivalentini aniqlashdir.

Diskontlashtirish loyiha tahlilini barcha bo'limlarida foydalaniladi. Jumladan, loyihani moliyaviy va iqtisodiy tahlilida diskontlashtirish foyda va xarajatlarni diskont stavkasi yordamida har yili qayta xisoblab chiqish va daromad hamda xarajatlarni joriy ahamiyatini bilib olishga yordam beradi.

Loyihani tijorat tahlilida diskont stavkasi korxonani qo'shimcha kapitalini safarbar qilishga ketgan xarajatlarni aniqlab beradi. Diskont stavkasi iqtisodiy tahlilda rakobatlashuvchi investitsion imkoniyatlar borligidan darak beradi.

Diskontlashtirishda avval diskonta ya'ni, markaziy bank kredit berishda belgilagan foyiz stavkasi asosida diskont meyor (stavkasini) quyidagi formula yordamida xisoblab chiqiladi.

$$F=D/100$$

Bu erda: F-diskont meyor, %
D-diskonta (markaziy bank kredit berish uchun belgilangan foiz), % 100-koeffitsient

So'ngra diskontlashtirish quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi.

$$KK=XK(1QF)^n$$

Bu erda: KK- kelgusi qiymat, so'm
XK- hozirgi qiymat, so'm
n- yillar soni

Misol uchun yillik diskonta 10% desak, u holda diskont meyor $F=10/100=0.1$ tashkil etadi. Agar biz loyiha uchun bugun 1 mln. summi investitsiyalagan bo'lsak, 1 yildan sung u $1.0*(1Q0.1)^1=1.1$ mln. sumga teng bo'ladi.

Ikki yildan keyin $1.0*(1Q0.1)^2=1.21$ mln. so'mga, uch yildan keyin esa, mablag'imiz $1.0*(1Q0.1)^3=1.33$ mln. so'mga teng buladi va x.k.

Odatda investorni kelgusida oladigan pulini hozirgi kundagi qiymati qanday bo'lishini ya'ni loyiha uchun investitsiyalangan pulni qay darajada qaytarilishi qiziqtiradi.

Buni quyidagi formulada aniqlanadi.

$$KK = \frac{XK}{(1+F)^n}$$

YUqoridagi misolimiz ma'lumotlaridan foydalanib investorni loyiha uchun bugun sariflagan 1 mln. so'm mablag'i 3 yildan so'ng 1.33 mln. so'm qilib qaytarilsa investor 3 yil kutib yana $1.33/(1+0.1)^3 = 1.33/1.33 = 1$ mln. so'mga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Boshqacha qilib aytganda qarzni uzish uchun belgilangan bir birlikdagi pul qancha o'zoqqa cho'zilsa uni to'lov qobiliyati ya'ni to'lanadigan to'lov qobiliyati xozirgi xolatga keltirilgan qiymati shuncha kichik bo'ladi. Bu quyidagi formula orkali aniqlanadi.

$$TK = TS / (1+F)^n$$

Bu erda TK - to'lov qobiliyati (To'lanadigan pul miqdorini xozirgi xolatga keltirilgan qiymati).

TS - To'lanadigan pul miqdori.

Misol uchun diskonta yiliga 10% ($F=0.1$), to'lov vaqti (n) 3 yil, to'lanadigan pul miqdori (TS) 1 mln. sum bo'lsa, $TK = 1/(1+0.1)^3 = 1/1.33 = 0.75$ mln. so'mga teng.

Demak 10%li diskonta bo'yicha 1.0 mln. so'm 3 yildan so'ng 0.75 mln. so'm to'lov qobiliyatiga ega bo'ladi.

SHunday qilib diskontlashtirish orqali loyiha uchun sarflanayotgan investitsiya miqdorini kelgusidagi qiymati aniqlanib uni loyihani malga oshirilganda olinadigan daromad bilan taqqoslab loyiha qabul qilish xaqida xulosa qilish imkonini beradi.

4.3. Annuitetning kelgusi va joriy qiymati.

Investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholash tamoyillari yaxshiroq tushunib olish uchun moliyaviy opera-siyalarning yana bir, kelajakda ma'lum summani to'plash uchun har yili pul mablag'lari to'lab borilishini ko'zda tutuvchi turi-ni tahlil qilib ko'rishimiz zarur. Annuitet (ingl. ANNUITE — yillik to'lov) deb nomlanadigan bu turdagi operatsiyalarga amortizatsiya fondini jamg'arish, ya'ni asta-sekin eskirgan asosiy fondlar o'rniga yangisini sotib olishga etarli bo'lgan pul sum-masini jamg'arish misol bo'la oladi. Asosiy vositalarning qiy-mati juda yuqori bo'lganligi sababli to'liq eskirib bo'lganida ularni faqat joriy yilda olingan foyda hisobigagina yangi-lab bo'lmaydi. Bunday holatdan qutulipdshng birdan-bir to'g'ri yo'li amortizatsiya fondlarini shakllantirib borishdir. Bu me-xanizm shunchalik muhimki, butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olinadi va amortizatsiya summasi soliqqa tortilmaydi.

Ammo amortizatsiya ajratmalari ular uchun belgilangan vazifani bajarishlari uchun, menejerlar hozirda qilinayotgan ma'lum miqdordagi ajratmalar hisobiga kelajakda qanday summaga ega bo'lishlarini bilishlari kerak. Bunday hisob-ki-toblarni 1-formula yordamida bajarish mumkin bo'lsa-da, elek-tron jadvallar va maxsus ma'lumotnomalardan foydalanish ancha qulayroq usul hisoblanadi.


Misol: Aytaylik, siz har yilning oxirida 1 mln. so'mdan, 3 yil davomida 10% stavka bilan bankdaga maxsus hisobvaraqqa mablag o'tkazib bordingaz. 3 yildan so'ng siz qanday summaga ega bo'lasiz? Brfinchi yil o'tkazilgan million so'm bankda 2 yil tura-di, ikkinchi millon so'm esa 1 yil turadi, uchinchi million esa uchinchi yil oxirida o'tkazilgani $\{^4\}^n$ ham foiz ishlashi nuqtai nazaridan oankda hech qancha muddat turmaydi. Kelgusi qiymatni xisoblash formulasi yordamida har bir o'tkazma uchinchi yil oxiriga qadar qanday miqsorgacha o'sib borishini va ularni ko'shib, shu muddatda qancha mikdordagi mablagta ega bo'lishimizni topamiz.

1-jadval Investitsiyalarning kelgusidagi qiymati hisob-kitobi

Mablag o'tkazi.ladigai	Foiz dyaromndn hisoblaiadngyan vakt (yil)	Yillik o'tkazma (ajratma)nnig kelgusi- kiymati
---------------------------	--	---

yil tartib rakami		(mln.so'm)
1	2	$1,00 \cdot (1+0,10)^2 = 1,21$
2	1	$1,00 \cdot (1+0,10) = 1,10$
3	0	$1,00 \cdot (1+0,10)^0 = 1,00$
Jami	Kelgusi qiympt	3,31

Bu jarayonni grafikda quyidagicha tasvirlash mumkin:



SHunday qilib, annuitetning yakuniy summasi quyidagicha topildi:

$$FV_3 = 1.00 \cdot (1+0.10)^2 + 1.00 \cdot (1+0.10)^1 + 1.00 \cdot (1+0.10)^0 = 3.31$$

Bu hisoblash sxemasini universal formula ko'rinishidatavirlaymiz (3-formula):

$$FVA = \sum_{t=1}^n PMT_t \cdot (1+k)^{n-t}$$

Bunda, FVA - annuitetning kelgusi qiymati

PMT_t - t-davr oxirida to'lanadigan (ajratiladigan, ut-kaziladigan) summa;

p-daromad olinadigan davrlar (oylar, choraklar, iillar)

soni;

k - daromad darajasi.

Agar hamma davrlardagi to'lovlar miqdoririr xil bulsa, bu tenglamani hech bir qiyinchshshksiz quyidagi ko'rinishda yozish mumkin (4-formula):

$$FVA_n = \sum_{t=1}^n PMT_1 \cdot (1+k)^{n-t}$$

Formulada birinchi va oxirgi yilgi to'lovlar o'rinlari almashib qolganligi tufayli birinchi (1=1) yilgi to'lov hech qanday daromad keltirmagandek (chunki, $(1+K)^0$ miqsor 0 ga teng bo'ladi) va aksincha, oxirgi (1=n) yilgi to'lov esa daromad-ga eng ko'p hissa qo'shgandek bo'lib ko'rinadi. Ammo to'lovlar-ning mutlaq hajmi bir xil bo'lganligi tufayli bu «matematik adolatsizlik» olinadigan natijalarga ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha bu holat annuitetni hisoblash formulasini yanada soddallashtirish imkonini beradi. Bunday soddallashtirish na-tijasida formula quyidagi ko'rinishni oladi (5-formula):

$$FVA_n = PMT_1 \cdot FVA_{n, k}$$

$FVA_{1,n,k}$ - foiz daromadi stavkasi $1s$ ga teng bo'lgan sharo-itda va p davr mobaynida 1 so'mlik annuitetning daroma^d oli-nadigan har bir davr oxiridagi kelgusi qiymati. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi (6- formula):

$$FVA_{1,n,k} = [(1+k)^n - 1]/k$$

To'lovlar hamma davrlar uchun bir xil bo'lgan bunday annu-itet unifikatsiya qilingan (standart) annuitet deb ataladi.

Annuitet bo'yicha summaning o'sib borishini hisoblashda maxsus jadvallardan foydalanish mumkin (3-ilova). Bunda, avvalo, foiz stavkasi $1 <$ ga teng bo'lgan sharoitda bir so'mning p - yildagi kelgusi qiymati jadvaldan topiladi va so'ngra to-pilgan koeffitsient pul oqimining yillik summasi (RMT)ga ko'paytiriladi.

2.4. Annuitetning joriy qiymati

Investitsiya loyihalarini asoslab berish va tahlil qilishning asosini bugun qilinadigan (joriy) xarajatlar bilan kelgusida olinadigan pul tushumlari (pul oqimlari) ni taqkrslash tashkil etadi. Bu vazifani bajarishga annuitet-ning joriy qiymatini aniqlashni ko'zda tutuvchi yondashuv juda yordam beradi. Bu yondaip^v asosida bugun qo'yilgan mablag'lar kelgusidagi tushumlar bilan qanchalik qoplanishini etarli darajada aniq hisoblab topish mumkin.

Misol: Aytaylik investitsiya loyihasi kelgusi 3 yil-ning har bir yili oxirida 1 million so'mdan pul tushumiga ega bo'lishni ko'zda tutsin. Foiz stavkasi yiliga 10% bo'lgan sha-roitda 2-formula va 4-ilovadan foydalanib, bu pul tushmla-rining joriy qiymatini aniqlaymiz. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Annuitetning joriy qiymatini aniqlash

Iillar	Pul tushumlarp (mln.so'm)	Jorny qiymati
1	1	$1.0 * [1/(1+0.1)^1] = 0.909$
2	1	$1.0 * [1/(1+0.1)^2] = 0.826$
3	1	$1.0 * [1/(1+0.1)^3] = 0.751$
Jami	Jorin knGimat	2,486

Investitsiya natijasida bunyod bo'lgan ob'ekt necha yil amal qilishiga qaramasdan bu hisoblash usulining mazmuni o'zgarmaydi. 2-formulaga asoslangan holda bu xisob-kitob quyidagicha o'tkazildi:

$$PVA_3 = 1/(1+1.10)^1 + 1/(1+1.10)^2 + 1/(1+1.10)^3 = 2.486$$

Bunga asoslangan holda annuitetni keltirilgan kiyma-tini hisoblashning umumiy tenglamasini yozamiz (7-formula):

n

$$PV_n = \sum PMT_1 / (1+k)^1$$

$tq1$

Bu erda: $RMT_1 - 1$; davr oxirida bo'ladigan kelgusidagi to'lov;

k - investitsiyalar bo'yicha zarur daromad me'yori;

n - hozirgi investitsiyalardan daromad keladigan davrlar soni.

Aggt annuitet bo'yicha hamma davrlardagi to'lov miqdori bir xil bo'lsa, 7-formulani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin (8-formula);

$$PVA_n = PMT_1 * PVA_{1,n,k}$$

Bu erda: $RUA1_p$ - daromadlilik stavkasi ga teng bo'lgan sharoitda p davrning har biri oxiridagi annuitetning joriy qiymati(9-formula).

$$PVA1_{n,k} = [1 - 1/(1+k)^n]/k$$

8- va 9- formulalar yordamida zarur miqsozlarni topish uchun maxsus jadvallardan(5- ilova) foydalanish mumkin. Bunda 1 so'mlik annuitetning kelgusi qiymatini joriy qiy-matga keltirish koeffitsienti topiladi va so'ng bu koeffitsient annutetning haqiqiy summasiga ko'paytiriladi.

4.4. Renta qiymati.

Investitsiya loyihalarini baholash jarayonida, ba'zida, eng ko'p qancha miqdorda mablag' sarflash mumkin, degan savolga javob berishga to'g'ri keladi. Bu savolga javob toshpp uchun m}ammoga renta tshvvdaga quyilmalardan olish mumkin bo'lgan m^^qobil daro-mad nuqtai nazaridan yondashish foydali. Renta tipidagi qo'yilma-larga banklardagi mudsatsiz depozitlar misol bo'la oladi.

Bu turdagi investitsiyalar annuitetga qarama-qarshi o'la-roq perpetuitet (ingl.regre1;i11u-abadiylik) deb ataladi.

Perpetuitet ko'rinishidagi investitsiyalarning muddati cheklamagani holda, hisoblangan foiz daromadini birdaniga olish imkoniyati mavjud bo'ladi hamda asosiy summa daromad keltirishda davom etaveradi.

B)T1day holatda yillik daromad quyidagi formula yorda-mida aniqlanadi (10- formula):

$$PMT \text{ q } PV * k$$

Bu erda: RU- bankka qo'yilgan muddatsiz depozitning aso-siy summasi;

- bu turdagi depozitlar uchun bank tomonidan to'lanadi-gan daromadning foiz stavkasi;

RMT- depozit bo'yicha yillik daromad.

Agar formulani boshqa ko'rinishda yozsak, unda xuddi shu miqdordagi pul tushumini vujudgaa keltirayotgan investitsiya-larning qiymatini anglab etamiz (11-formula).

$$PV = PMT/k$$

Bu formulani qo'llash bizni investitsiya tahlilining juda oddiy mantig'ini anglab etishga olib keladi. Uning mohiyatini quyidagi misol yordamida ko'rib chiqamiz:

Aytaylik, bank depozitida bizning 1 mln. so'm omonati-miz bor va bank bu depozit uchun yillik 60% daromad to'laydi. Demak, har yili yanvar oyining boshlarida o'tgan yil uchun hisoblangan 600 ming so'm daromadni bankdan olishimiz mum-kin. 11-formuladan foydalanib, daromad stavkasi yiliga 60 % bo'lganda 600 ming so'm daromad olish uchun qancha miqdorda investitsiya qilishimiz zarurligini topamiz:

$$PV = 600000/0.60 = 1000000 \text{ sum}$$

Ko'rilgan misol asosida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: agar bank depozitiga qo'yilgan 1 million so'm yiliga 600 ming so'm daromad keltirsa, keyingi yilning boshida 600 ming so'mga teng (yoki undan kam) daromad keltiradigan inves-titsiya loyihasi-ga 1 million so'mdan ko'p mablag' ajratish maq-sadga muvofiq emas.

Perpetuitetning yana bir ko'rinishi investitsiya davri-ning cheklanmaganligi va doimo o'sib boruvchi yillik daromad bilan xarakterlanadi. Agar bu o'sish (g' ga teng sur'atda ro'y bersa va RMT birinchi yilning oxirida kutilayotgan pul tu-shumlari summasini aks ettirsa, davri

cheklanmagan investitsiyalarning joriy qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi (12-formula);

$$PV = PMT_1 / k - q$$

Bu tenglama, odatda, Gordon modeli deb aytiladi. Bu formula sodda ko'rinishga ega bo'lishiga qaramasdan, undan ehtiyot bo'lib foydalanish kerak. Gordon modeli yordamida olingan natijalar to'g'ri bo'lishi uchun bir necha shartlarga amal qilish zarur.

Birinchidan, formula sur'atidagi RMT 0 indeksi bilan emas, balki 1 indeksi bilan turibdi. Bundan xulosa shuki, formula bo'yicha hisob-kitoblar investitsiyalangan mablaglar bo'yicha ular ishlatilgan birinchi davr oxiridagi to'lovdan boshlab bajariladi. Agar to'lov investorga darhol kelib aushsa, bu to'lov summasini Gordon modeli yordamida topilgan joriy qiymat summasiga qo'shish kerak.

Ikkinchidan, bu modelni pul tushumlari oqimi uzluksiz va bir xil sur'atda o'sgan holdagina ishlatish mumkin. Uchinchidan, bu modelda (d) o'sish sur'ati () diskontlash koeffitsientidan kam bo'lgan holdagina model yordamida olingan natija haqiqatga yaqin bo'ladi. Bu talab pul bozori xususiyatlaridan kelib chiqadi va bajarilishi noreal emas. Chunki, agar bir tarmoqda daromadlarning o'sish sur'ati diskontlash koeffitsienti (daromadlilikning o'rtacha darajasi) dan yuqori bo'lsa, tezda bu tarmoqqa investitsiya mablaglari okib kela boshlaydi va daromadlilik darajasi pasayib ketadi.

Mavzuga yakun yasay turib, har qanday investitsiya loyihalarini baholashda amal kilinishi shart bo'lgan bir necha ta'moyillarni ta'kidlab keltiramiz:

1. Hisob-kitoblar bir xil qiymatdagi pullarda olib borilishi shart. Bu uchun barcha xarajatlar va olingan natijalar kelgusidagi yoki hozirgi davrdagi ma'lum bir sanaga keltirib olinadi.
2. Investitsiyalarni baholash bu mablaglar investor uchunular sarflanishi mumkin bo'lgan boshqa loyihalarga nisbatan kam bo'lmagan daromad keltirishi mumkinligi nuqtai nazaridan turib amalga oshirilishi kerak.
3. Umumiy holatlarda pul tushumlari u bilan bir xil qiymatga keltirilgan pul xarajatlaridan ko'p bo'lgan investitsiyalarni tanlash joiz.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Loyihalarni moliyaviy-iqtisodiy baholashning maxsus usullarini yaratish zarurati paydo bo'lishiga sabab nima?
2. Diskontlash va diskont stavkasi atamaları nimani anglatadi?
3. Annuitetning kelgusi va joriy qiymatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Perpetuitet nima va perpetuitet ko'rinishidagi investitsiyalarning samaradorligi qanday aniqlanadi?
5. Gordon formulasi qanday vaziyatlarda qo'llaniladi?
6. Sof joriy qiymat «uzoq muddatli xarajatlar va uzoqmuddatli pul tushumlari» holatida qanday aniqlanadi?
7. Investitsiyalarning reytabelliligi ko'rsatkichi bo'yicha loyihalarning maqbulligi qanday mezonlarga ko'ra aniqlanadi?
8. Ichki foyda me'yori ko'rsatkichining mohiyati nimada?
9. Diskontlashga asoslangan usullar bo'yicha investitsiyalar samaradorligini aniqlash mezonlarini sanab o'ting.
10. Buxgalteriya reytabelliligi ko'rsatkichi investitsiyalar reytabelliligi ko'rsatkichidan nima bilan farq qiladi?
11. Investitsiyalarni baholashning statik usullari kamchiligi va afzalliklari nimada?

5-modul. Investitsiya loyihalarini moliyaviy-ihtisodiy baholashning asosiy usullari

R E J A

- 5.1. Investitsiya loyihalarini moliyaviy-ihtisodiy baholashning mohiyati va usullari.
- 5.2. Investitsiya loyihalarini moliyaviy-ihtisodiy baholashning pul tushumlarini diskontlashga asoslangan uslublari
- 5.3. Investitsiya loyihalarini baholashning sodda uslublari

5.1. Investitsiya loyihalarini moliyaviy-ihtisodiy baholashning mohiyati va usullari.

Har qanday investitsiya loyihasini moliyaviy-iqtisodiy baholash mazmunini juda sodda savolga, ya'ni kelgusidagi pul tushumlari hozirgi qilingan xarajatlarni qoplaydimi yoki yo'qmi, degan savolga javob topish tashkil etadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda investitsiyalarni baholashning turli loyihalarga qo'yilgan mablag'larning foydaliligini taqqoslashga asoslangan usullari ko'p qo'llaniladi. Bunda u yoki bu loyihaga investitsiya qilishning muqobil varianti boshqa ob'ektlarga mablag' sarf-lash, shuningdek, mablag'larni ma'lum foiz bilan bankka qo'yish yoki ularni qimmatli qog'ozlarga aylantirish imkoniyatlari hisoblanadi.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uslublari deganda xarajatlarning foydaliligi va qoplanishi nuqtai nazaridan turli ob'ektlar-ga (loyihalarga, tadbirlarga) investitsiya qilishning maqsad-ga muvofiqligini aniqlash usullari tushuniladi. Investitsiya-samaradorligini aniqlashda, ularning ayrim jihatlari-nigina xarakterlaydigan alohida ko'rsatkichlardan foydalanish etarli bo'lmaydi. SHu sababli investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun bir necha uslublar va ko'rsatkich-lar tizimidan foydalaniladi.

Investitsiya loyihalarini baholashda besh asosiy uslub-dan keng foydalaniladi. O'z navbatida bu uslublarni ikki guruhga aratish mumkin:

1. Diskontlash konsepsiyasini qo'llashga asoslangan uslublar:
 - sof joriy qiymatni aniqlash uslub;
 - investitsiyalarning rentabellik darajasini aniqlash uslub;
 - ichki foyda me'yori ni aniqlash uslub.
2. Diskontlash konsepsiyasini qo'llashni ko'zda tutmagan uslublar:
 - investitsiya loyihalariga sarflangan mablag'larni qop-lash davrini aniqlash uslub;
 - investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash uslub.

Ushbu uslublarni ko'rib chiqishdan oldin shuni ta'kid-lash zarurki, har beshala uslub investitsiyalarning mutlaq samaradorligini aniqlash usuli sifatida ko'rib chiqiladi. YA'ni har bir investitsiya loyihasini amalga oshirish firmaning boshqa loyihalarga investitsiya sarflash imkoniyatlariga ta'sir etmaydi, degan shartga amal qilinadi.

Bunday shartning kiritilishiga sabab shuki, amalda ko'pchilik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi boshqa loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini pasaytiradi yoki mutlaqo yo'qqa chiqaradi. Bunday investitsiya loyihalari o'zaro konfliktli loyihalar deyiladi. Uzaro konfliktli loyiha-lar jumlasiga shuningdek, firmaning ma'lum bir pirovard maqsadiga erishishning turli yo'llarini ko'zda tutuvchi loyiha-lar kiradi. Turli loyihalarning konfliktli bo'lishiga sabab korxona mablag'larining cheklanganligidir. Firmalalar loyihalarni nafaqat mutlaq samaradorligi mezoniga ko'ra, balki mablag' etmay qolganligi sabab boshqa loyihalarni amalga oshira olmasligi tufayli o'zi ko'rish mumkin bo'lgan yo'krtishlar nuqtai nazaridan kelib chiqib ham tanlaydi. Boshqacha aytgan-da, firma investitsiya loyihalarini nisbiy samaradorlik mezoniga ko'ra tanlaydi.

Investitsiyalar samaradorligini aniqlash usullarini o'rganishga kirishishdan oldin e'tiborga olishimiz zarur bo'l-gan yana bir shart shundan iboratki, bu jarayonda loyiha bilan borliq bo'lgan barcha xarajatlar va tushumlar pul ko'rinishiga ega deb karaladi.

5.2. Investitsiya loyihalarini moliyaviy-ihtisodiy baholashning pul tushumlarini diskontlashga asoslangan uslublari

Sof joriy qiymat — **NPN** Sof joriy qiymat ko'rsatkichi loyiha amalga oshirilishi natijasida firma boyligi kanchaga ko'payganini xarakterlaydi. Sof joriy qiymatga asoslangan holda investitsiyalarni tahlil qilish usuli quyidagi ikkita shartdan kelib chikadi:

- har qanday korxona yoki firma o'z boyliklarini oshi-rishga harakat qiladi;
- har xil vaqtda sarflangan mablag'lar bir xil qiymatga ega bo'lmaydi.

Sof joriy qiymat bu diskontlangan pul tushumlari bilan (albatta investitsiya natijalarida vujudga kelgan) dis-kontlangan xarajatlarning farkidir.

Agar boshlanishch investitsiya mablag'larini I , 1-davr oxi-ridagi pul tushumlarini SG' , deb belgilasak, u holda sof joriy qiymatni aniqlash formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (-formula):

$$NPN = CF_1/(1+k)^1 + CF_2/(1+k)^2 + \dots + CF_n/(1+k)^n - I_0 = \sum CF_t/(1+k)^t - I_0$$

Agar sof joriy qiymat (ΔRU) musbat miqdorga ega bo'lsa bu loyiha uchun qilinadigan investitsiya samaralidir.

Misol: Firma 500 mln. so'mga universal do'kon uchun joy, bino sotib oldi. Bu do'kondan 10 yil davomida har yili 100 mln.so'mdan pul tushumlari bo'ladi. O'sha davrda muqobil foyda me'yori 10% bo'lsa, shu do'konni sotib olish kerakmi, degan savol tug'aladi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, firma 10 yil ichida o'z kapitalini 114,6 mln. so'mga ko'paytiradi. Loyiha samara-lidir.

Ayrim hollarda «uzoq» muddatli investitsiya sarf etilib, uzoq mudatst ichida pul tushumlari vujudga keladi. YA'ni pul oqimi birdaniga emas, bir necha yilga cho'ziladi. Bunda quyida-gi formuladan foydalanish mumkin(-formula):

$$NPV = \sum_{t=1}^n CF_t/(1+k)^t - \sum_{t=1}^n I_t/(1+k)^t$$

Loyihalarning hayot davri cheklanmagan holatlarda MRUni hisoblashda Gorden formulasidan foydalaniladi(15-formula):

$$KRU = SG' / (Q-d) - I_0$$

Bu erda: SG' - pul tushumlari;

d - pul tushumlarining doimiy o'sish sur'atlari.

Misol: Firma yangi «Modellar uyi»ni 510 mln. so'mga sotib olmoqchi SHu davrda muqobil foyda me'yori 15%. Har yili bu korxona 70 mln.so'm pul tushumlarini vujudga kelti-radi. Korxonani sotib olish to'g'ri bo'ladimi?

$$NPV = 70/(0.15-0)-510 = 466.7 - 510 = -43.3$$

Bundan ko'rib turibmizki, korxonani sotib olish firma uchun ziyon keltiradi:

Faraz qilaylik, pul tushumlari yiliga 4% ga oshsin va

yil oxirida 70 mln. so'm pul tushumiga ega bo'linsin, bunda holatda korxonani sotib olish foydali bo'ladi

$$NPV = 70/(0.15-0.04)-510 = 70/0.11-510 = 636.4-510 = 126.4 \text{ mln sum}$$

Investitsiyalar samaradorligini **NPV** asosida aniqlash usuli keng tarqalganiga sabab bu ko'rsatkichning dastlabki shart-sharoitlar turli kombinatsiyalarida barkaror o'zgarmay turi-shidir.

NPV investitsiyalashning ushbu varianti firma boyli-gi o'sishiga olib keladimi, degan savolga javob bersa-da, bun-day o'sishning nisbiy o'lchamlari haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Bunday ma'lumot esa investor uchun juda zarur. Bu kamchilikni to'ldirish uchun boshqa bir ko'rsatkich investitsiya-lar rentabelligini hisoblash usulidan foydalaniladi.

Investitsiya rentabelligi **PI** — qilingan har bir so'm invesgitsiyaga qanday darajada foyda olinganligini yoki investor boyliga qanchaga ko'payganini ifodalaydi-gan ko'rsatkichdir. Ko'pincha, foyda me'yori, deyiladigan bu ko'rsat-kichni quyidaga formula bilan aniqlash m^{tmkin} 16-form>⁷la):

$$PI = \left[\sum_{t=1}^n CF_t / (1+k)^t \right] / I_0$$

Bunda: I_0 - dastlabki investitsiya summasi;

SG' - pul tushumlari;

I - davr.

Agar «uzoq muddatli xarajatlar — uzoq muddatli tushum-lar» holati bo'lsa, bunda formula quyidagi shaklga ega bo'la-di(-formula):

$$PI = \sum_{t=1}^n CF_t / (1+k)^t / \sum_{t=1}^n I_t / (1+k)^t$$

Oldingi misolga (modalar uyi) qaytib, loyihaning ren-tabellik darajasini aniqlaymiz:

$$PI = 100 * 6.1446 / 500 = 1.23 = 123\%$$

ya'ni loyiha uchun sarf etilgan har bir so'm 0,23 so'm sof joriy daromad olib kelmoqda.

-formuladan ko'rinib t>ribdiki, unda sof joriy qiy-matning ikki tomoni — daromad va investitsiya tomoni o'zaro taq-^oslanadi. Agar diskontning qandaydir darajasida loyihaning rentabelligi birga teng bo'lsa, u holda keltirilgan investitsiya

Xarajatlari keltirilgan daromadlarga teng va loyihaning sof keltirilgan diskontlangan daromadi nolga teng bo'ladi.

Agar **NPV** musbat bo'lsa, **PI** albatta 1 dan katta bo'ladi. Demak, **PI** 1 dan katta bo'lsa,

investitsiyalar samarali hisoblana-di. SHuni ta'kidlash joizki, **PI** investitsiyalarning mutlaq samaradorligi ko'rsatkichi bo'lishi bilan birga investitsiya loyi-halarini yana ikki jihatdan turib baholash imkonini beradi.

Birinchidan, bu ko'rsatkich yordamida loyihaning barqaror-ligi darajasini tekshirib ko'rish mumkin.

YA'ni **PI** qancha katta bo'lsa, loyihaning mustahkamligi (barqarorligi darajasi) shun-cha katta bo'ladi. Bunday loyiha sharoitlar o'zgarishi ta'sirida darhol foyda keltirmaydigan loyihaga aylanib krlmaydi.


Ikkinchidan, R1 mutaxassislarga turli investitsiyalarni ularning samaraliligi nuqtai nazaridan taqkrslash imkonini beradi.

Ichki foyda me'yori IRR daromadlilikning shunday me'yoriki, unda pul tushushgarining diskontlangan qiymati pul chikimlarining diskontlangan qiy-matiga teqg bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, SHK loyiha bo'y-icha investitsiyalashdan olingan sof tushumlarning diskont-langan kiymati investitsiyalarning diskontlangan qiymatiga teng bo'lishini ta'minlovchi koeffitsientdir. Uni hisoblash uchun sof joriy qiymatni hisoblashda qo'llaniladigan formu-lalar qo'llaniladi. Ammo bunda berilgan minimal foiz me'yo-rida (diskont stavkasida) pul oqimlarini diskontlash o'rni-ga foiz me'yori (diskont)ning NPV ni nolga teng bo'lishini ta'minlovchi miqdori topiladi. SHunday qilib, IRR - diskont koeffitsientining shunday mikdoriki, bunda NPV 0 ga teng bo'ladi. Buni grafikda quyidagicha tasvirlash mumkin:

YUqoridagi grafikdan kurinib turibdiki, IRR diskont-lash koeffitsientining shunday mikdoriki, unda NPV gorizonttal o'qni kesib o'tadi, ya'ni nolga teng bo'ladi.

Iktisodiy adabiyotda ichki foyda me'yorini ichki daromad me'yori, qoplash koeffitsienti yoki

NPV



NPV ning dnskontlash kozffpsieitiga boklnqligi grafigi.

samarasi, bazida esa kapital qo'yilmalar samarasi, deb ham ataladi. IRR ni hisoblash usuli NPV ni hisoblash usuli singari diskontlash konsepsiya-siga asoslanadi. IRR miqdorini ikki usulda topish mumkin:

Birinchi usulda sof joriy qiymatni hisoblash formula-sida NPV miqdori nolga tenglashtirib olinib, diskonlash ko-effitsienti hisoblab topiladi. YA'ni quyidagi formulalardagi k miqdori topiladi (-formulalar).

$$O = \sum_{tq1}^n CF_t / (1+k)^t - I_0$$

$$O = \sum_{tq1}^n CF_t / (1+k)^t - \sum_{tq1}^n I_t / (1+k)^t$$

Bu formulalar yordamida aniq javob olish qiyin. Olingan natijalar ma'lum darajada taqribiy bo'ladi. Ichki foyda me'yorini topish uchun «sinov va xato» usulidan foydalaniladi, ya'ni formulaga diskontning ancha katta va kichik miqdorlari berilib olingan natija solishtiriladi. Agar olingan natijalardan biri nolga yaqinroq bo'lsa, bunga sabab bo'lgan dis-kont stavkasiga yaqin miqdorlar berilib, formula, natija toki nolga maksimal darajada yaqinlashmaguncha echiladi.

Ikkinchi usulda IRR miqdorini topish uchun keltirish koeffitsientlari jadvallaridan foydalaniladi.

Misol: Aytaylik, transport firmasi 40 mln. so'mga yuk tashish mashinasini sotib olmoqchi. Uni ekspluatatsiya qilish 20 yil davomida yiliga 3,2 mln. sum pul tushumlarini kelti-rishi kutilmoqsa. Pul tushumlari yil oxirida bo'ladi deb hi-soblasak, annuitet holatiga duch kelamiz:

$$PVA_n = PMT_1 * PVA_{1n, k}$$

$$40 = 3.2 * PVA_{1n, k}$$

$$PVA_{1n, k} = 40/3.2 = 12.5$$

Annuitetning joriy qiymatini hisoblash koeffitsient-lari jadvalidan 20-qatorda (20 yillik muddat) olingan na-tijaga eng yaqin miqdor 12,462 bo'ladi. Bu miqdor 5% lik diskont stavkasiga mos keladi. Ayni shu diskont stavkasida kelgusida mashinani ekspluatatsiya qilishdan olingan pul tushumlarining diskontlangan joriy qiymati uni sotib olish uchun qilingan hozirgi investitsiyalarga teng bo'ladi, ya'ni NPV 0 ga teng bo'ladi. Demak, mazkur loyihada IRR 0,05 ga teng.

IRR ba'zida tekshiruv diskonti deb ham ataladi, chunki u diskontlash koeffitsientining loyihalarini samarali va sa-marasiz turlarga ajratish imkonini beruvchi darajasidir. Buning uchun IRR firmaga standart sifatida kabul qilingan mablag'larning qoplanish darajasi bilan solishtiriladi. Bun-day qo'yilmalar rentabelligining standart darajasi barer koeffitsienti HR deb ham ataladi.

- agar $IRR > HR$ - bo'lsa loyiha ma'qul;
- agar $IRR < HR$ - bo'lsa loyiha ma'qul emas;
- agar $IRR \approx HR$ - bo'lsa loyiha har kanday qaror qabul qilish mumkin.

$IRR > HR$ bo'lgan holatda NPV musbat, investitsiyalar rentabelligi esa birdan yuqori. $IRR < HR$ bo'lsa, MRU manfiy, R1 esa birdan kichik bo'ladi.

SHunday qilib, NPV ma'qul bo'lmagan loyihalarni ajra-tib oluvchi tur vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari bu ko'rsatkich loyiha bo'yicha tavakkal xavfi darajasi indikatorini hisoblanadi. IRR barer koeffitsientidan qanchalik katta bo'lsa, loyihaning mustahkamligi zahirasi shuncha katta bo'ladi. Bu esa kelgusidagi pul tushumlarini baholashda yo'l qo'yiladigan xatolar natijasida ko'riladigan zarar xavfi kam bo'lishini ta'minlaydi.

5.3. Investitsiya loyihalarini baholashning sodda uslublari.

Endi investitsiya loyihalarini baholashning sodda(statik) usullarini ko'rib chiqamiz. Bu uslublar diskontlash kon-sepsiyasi paydo bo'lmagan oldin ham keng qo'llanilgan bo'lib, ular yordamida, asosan pul kirimlari va chiqimlarini taqqoslash orqali loyihalarning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Investitsiyalarning qoplanish davri RR (ingl. Rate of Return), bu shunday davrki, barcha dastlabki qilingan investitsiyalar miqsdori tiklanadi (20-formula).

$$PP = I_0 / CF_t^{\sum}$$

Bunda: I_0 -dastlabki investitsiya miqdori; $CF_t^{\sum}$ - loyihani amalga oshirish natijasida bir yilda tushadigan mablag'. Bunda $CF_t^{\sum}$ darajasidagi summa belgisiga e'tibor berish kerak. Bu belgi $CF_t^{\sum}$ summasini ikki usulda (tomon-lama) aniqlash mumkinligini ko'rsatadi. Birinchi usul qachon-ki, pul tushumlari yil davomida bir xil bo'lsa qo'llaniladi. Aytaylik, biz 600 mln. so'm investitsiya sarf qildik va 8 yil ichida har yili 150 mln. so'mdan daromad olishni kutayapmiz. Unda 600/150=4 yil ichida sarflangan investitsiya tiklanadi va keyingi 4 yil davomida investor sof foyda oladi.

Ikkinchi usul investitsiya qilingandan keyin, pul tushumlari bir xil bo'lmasa yoki o'sib boruvchi miqdorni tashkil etsa qo'llaniladi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolimizda pul tushumlari yillar bo'yicha bir xil bo'lmasdan ortib borsin:

1-yil	50 mln. so'm;
2-yil	100 mln. so'm;
3-yil	200 mln. so'm;
4-yil	250 mln. so'm;
5-yil	300 mln. so'm.

Bunda 3 yil ichidagi pul tushumlari investitsiya summasi-dan kam, 4 yil ichidagisi esa ko'p. Bunday holatlarda investi-siyalarni qoplash davrini aniq belgilab olish uchun quyidagi ishlarni bajarish lozim:

- qaysi yillar orasida investitsiya summasi krplanishi-ni topish zarur. Bizning misolda 3-4 yillar orasida;
- krplanmagan summa miqdorini aniqlash kerak, bizning misolda bu 150 mln. so'mni (600- (100Q 150Q200));
- aniklangan qoplanmagan summani 4-yilgi pul tushum-lari miqdoriga bo'lish kerak, ya'ni 150/300q0,5. Ko'rinib turibdiki qoplanmagan summa 4-yilning yarmida qoplanadi. Demak, bunda investitsiyalarni qoplash davri 3,5 yilni tashkil qiladi.

Investitsiyalarning qoplanish muddati ko'rsatkichidan quyidagi shartlar bajarilgandagina foydalanish yaxshi nati'ja berishini e'tiborda tutish kerak:

- 1) bu ko'rsatkich yordamida taqqoslanayotgan barcha loyiha-lar bir xil hayot davriga ega bo'lishi kerak;
- 2) barcha loyihalar boshlangich investitsiyalarning birmartalik sarflanishini ko'zda tutadi;
- 3) mablag' sarflanib bo'lingandan so'ng barcha investor-lar loyiha hayot davrining oxirigacha bir xil pul tushumlari-ga ega bo'ladi.

Bu ko'rsatkich hisoblab topish osonligi, tushunish uchun soddaligi bilan birga loyihaning tavakkal xavfi darajasi haqida ma'lumot berishi tufayli ham qadrlidir. Investitsiyalarning qoplanish muddati qanchalik katta bo'lsa, dastlabki hisoblangan natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarning yuzaga kelishi xavfi shuncha yuqori. bo'ladi.

SHu bilan birga bu ko'rsatkich jiddiy kamchiliklarga ham ega. YA'ni u ikki muhim holatni inkor qiladi:

- 1) turli muddatlarda pulning qiymati turlicha bo'lishini;
- 2) qoplanish muddati tugagandan so'ng ham pul tushumlarining davom etishini.

SHu sababli ham RR ko'rsatkichini investitsiyalar eamaradorligini baholashda asosiy usul sifatida qo'llab bo'lmaydi. SHuni ta'kidlash joizki investitsiyalarning qoplanish mudda-tini hisoblashdagi ko'rsatilgan birinchi kamchilikni tuzatish mumkin. Vu uchun pul oqimlari diskontlab olinadi, xolos.

Investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi ROI ko'rsatkichi loyihalarini baholashning ikkinchi soda (statik) ko'rsatkichi bo'lib, adabiyot-larda investitsiyaga o'rtacha foyda me'yori (ARR), hisoblangan foyda me'yori (ARR), deb ham yuritiladi. Bu ko'rsatkich vositasida investitsiyalarga pul tushumlari asosida emas, bal-ki buxgalteriya ko'rsatkichi bo'lgan firma daromadi miqdoriga asoslanib, o'ziga beriladi.

Ko'rsatkichning nomidan xulosa qilish mumkinki, u bux-galteriya hisoboti bo'yicha firma daromadi o'rtacha miqdorini investitsiyalarning o'rtacha miqdoriga nisbatini ifodalaydi.

Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi(20-formula):

$$ROI = EBIT (1-C) / [(q.a.y.b - q.a.y.o)/2]$$

Bu erda: EV1T -firmaning foiz va soliqlar to'lovlarini amalga oshirgunga qadar (yoki soliq to'lovlarydan keyingi, lekin foiz to'lovla-rigacha) bo'lgan foydasi miqdori;

S - soliq stavkasi(koeffitsientda beriladi);

Qa.y.b., Qa.y.o. - aktivlarning yil boshidagi va yil oxi-ridagi qiymati. Bu ikkala miqdor o'rtasidagi farq investi-siya xarajatlari hajmini ko'rsatadi.

KOI ko'rsatkichining qo'llanishi uning hisoblangan dara-jasini tashkilot uchun standart bo'lgan rentabelliklilik dara-jalari bilan solishtirishga asoslangan. Agar bu ko'rsatkich tashkilot tomonidan standart deb qabul qilingan ko'rsatkich-dan katta bo'lsa, loyiha ma'qul deb hisoblanadi. Bu ko'rsatkich hozirgacha dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida keng qo'llanib kelinishiga quyidagilar sabab:

Birichidan, uni hisoblash oson va diskontlash kabi mu-rakkab hisob-kitoblarni talab etmaydi. SHu bilan birga ay-rim shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, hisoblangan ROI miqdori ROI miqdoriga juda yaqin bo'ladi. Bu shart-sharoitlar quyida-gilardir:

- agar investitsiyalar perpetuitet ko‘rinishida yillikpul tushumlarining teng miqdordagi summolari sifatida amalga oshirilsa;
 - to‘plangan amortizatsiya qo‘shimcha mablag‘larsiz eskir-gan uskunalarni yangilash uchun etarli bo‘lsa;
 - investitsiyalarni amalga oshirish davrida aylanma ka-pital miqdorida o‘zgarish ro‘y bermasa.
- Loyihalarni baholashning statik usullari loyiha bo‘yi-cha qo‘shimcha ma’lumotlar olish imkonini berishi bilan qadr-lidir.

Ikkinchidan, aksiyadorlik kompaniyalarida bu ko‘rsatkich menejrlarni investitsiyalashning aksiyadorlarni eng ko‘p qiziqtiradigan buxgalteriya rentabelligi ko‘rsatkichi bilan bog‘liq bo‘lgan variantlariga yo‘naltiradi.

ROI ko‘rsatkichi kamchiliklari uning afzalliklari aksi-ni tashkil etadi. YA’ni bu ko‘rsatkich vositasida investitsiya loyihalari taqqoslanganda:

- pulning turli vaqtlarda qiymati bir xil bo‘lmasligie’tiborga olinmaydi;
 - loyihalar turlicha muddat xizmat qilishi inkor qili-radi, ya’ni bir xil rentabellikka ega ikki loyihadan biri 5yil, ikkinchisi 10 yil daromad olishini ta’minlashi bu ko‘r-satkichda aks etmaydi.
- SHuningdek, investitsiyalarning buxgalteriya rentabelli-ligi firma boyligining real o‘zgarishini xarakterlamasdan, aksiyadorlar va «chetdagi» boshqa shaxslarning talablariga mos natija olishga qaratilgan

Ko‘rib chiqilgan investitsiya loyihalarini baholashning barcha usullarini birgalikda qo‘llashgina loyihalarning samarali yoki samarasiz ekanligi to‘g‘risida aniq xulosa olish imkonin beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

12. Loyihalarni moliyaviy-iqtisodiy baholashning maxsus usullarini yaratish zarurati paydo bo‘lishiga sabab nima?
13. Diskontlash va diskont stavkasi atamalari nimani anglatadi?
14. Annuitetning kelgusi va joriy qiymatlari deganda nimani tushunasiz?
15. Perpetuitet nima va perpetuitet ko‘rinishidagi investitsiyalarning samaradorligi qanday aniqlanadi?
16. Gordon formulasi qanday vaziyatlarda qo‘llaniladi?
17. Sof joriy qiymat «uzoq muddatli xarajatlar va uzokmuddatli pul tushumlari» holatida qanday aniqlanadi?
18. Investitsiyalarning reytabelliligi ko‘rsatkichi bo‘yicha loyihalarning maqbulligi qanday mezonlarga ko‘ra aniqlanadi?
19. Ichki foyda me’yori ko‘rsatkichining mohiyati nimada?
20. Diskontlashga asoslangan uslublar bo‘yicha investitsiyalar samaradorligini aniqlash mezonlarini sanab o‘ting.
21. Buxgalteriya rentabelliligi ko‘rsatkichi investitsiyalar rentabelliligi ko‘rsatkichidan nima bilan farq qiladi?
22. Investitsiyalarni baholashning statik uslublari kamchiligi va afzalliklari nimada?

6-modul . Biznes-reja.

1. Biznesni rejalashtirishning mohiyati va vazifalari
2. Biznesni rejalashtirishni tayyorlash bosqichlari
3. Biznesni rejalashtirish tuzilmasi (strukturasi).

6.1. Biznesni rejalashtirishning mohiyati va vazifalari

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan korxonalarda ishlab chiqiluvchi oldingi texnika–sanoat–moliya rejalari, qurilish–moliya rejalari, transport–moliya rejalari tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib o'z o'rnini biznesni rejalashtirishlarga bo'shatib berdi. Biznesni rejalashtirishda biznes falsafasi, korxonaning joriy va istiqboldagi strategiyasi aks ettiriladi.

Ko'pchilik, ayniqsa, amaliyotchilar ushbu hujjatni tayyorlashning nafaqat muhim, balki juda murakkab ekanligidan ham xabardorlar. «Bir lahzada tayyorlanuvchi biznesni rejalashtirish» kitobi mualliflari Gustav Berl va Pol Kirshnerning «biznesni rejalashtirishga ega bo'lib, siz professionalga aylanasiz, o'z biznesingizni rivojlantirishingiz mumkin bo'ladi»² deb aytganligi bejiz emas, albatta. Haqiqatdan ham, biznesni rejalashtirish bu biznes ummonidagi mayoq, biznesning hozirgi va kelajakdagi holatining suratidir. U yangi paydo bo'layotgan biznesning yuragidir.

Ko'ngildagidek ishlab chiqilgan biznesni rejalashtirish ishlab chiqarishni faol rivojlantirish va shu bilan bir paytda uning dinamikasini nazorat qilish, investorlar, hamkorlar va kredit resurslarini jalb qilishni amalga oshiradi. Eng asosiysi u yoki bu ishlab chiqarishga pul kiritish joizmi, barcha xarajatlarni qoplaydigan miqdorda daromad olinadimi degan savollarga javob beradi. To'g'ri, biznesni rejalashtirish faqat shu bilan cheklanib qolmaydi, chunki u funksional vazifalariga ko'ra ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnika va texnologiyalar, korxonaning moliyaviy rejalari bilan bog'liq muhim masalalarni hal qilishga qaratiladi. Bu haqda biz keyinroq batafsil to'xtalib o'tamiz.

Aytish kerakki, biznesni rejalashtirish xo'jalik boshqaruvi vositasi sifatida mamlakatimizdagi korxonalar ish amaliyotiga ko'ngildagidek tez kirishib ketgani yo'q. Masalan, oz fursat davomida turli yondashuv va nuqtai nazarlarning mavjudligi biznesni rejalashtirishlarning ahamiyati va mohiyatiga ham, ularni ishlab chiqish usullariga ham aniqlik kiritmagan. Ayniqsa, iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida zarur ilmiy–uslubiy adabiyotlarning etishmasligi o'z ta'sirini ko'rsatdi. SHu va boshqa sabablarga ko'ra ko'plab korxonalarning biznesni rejalashtirishlari yuqorida darajada asoslanganlik bilan ajralib turmadi va ko'p hollarda bank muassasalari tomonidan ularni moliyalashtirishda inkor qilindi.

Biznesni rejalashtirish bo'yicha xorijiy adabiyotlar oqimining o'sishi ushbu sohaga ma'lum bir aniqlik kiritib, uning ilmiy–uslubiy asoslarini boyitdi. Ayrim mualliflar fikr va mulohazalarini keltirib o'tishga harakat qilamiz.

Masalan, yuqorida aytib o'tilgan «Bir lahzada tayyorlanuvchi biznesni rejalashtirish» asarida bu savol asosan yakka tartibda o'z biznesini ochish niyatida bo'lgan shaxslarga yo'naltirilgandir. Unda, xususan, «biznesni rejalashtirish korxonangiz gullab–yashnashi uchun kerakli yo'lni tanlab olishingizga xizmat qiluvchi hujjatdir. Biznesingiz bilan bog'liq bo'lgan eng ahamiyatli holat bu menejmentdir. Qisqasi bu – siz» degan mulohaza oldinga suriladi.

Edvard Blekvellning «Qanday qilib biznesni rejalashtirish tuzish» asarida ko'rsatilishicha: «Biznesni rejalashtirish bank yoki boshqa moliyaviy muassasalardan pul olish kerak bo'lganda, shuningdek, aksiyalar emissiyasida foydalaniluvchi rejadir».

1998 yilda Gruzinov V.P. muharrirligi ostida nashr qilingan «Korxona iqtisodiyoti» darsligida qayd etilishicha: «biznesni rejalashtirish biron–bir tijorat loyihasini amalga oshirish yoki yangi korxona yaratish uchun mo'ljallangan asoslangan hatti–harakatlar yig'indisini ifodalovchi hujjatdir»³. 1996 yilda Gorfinkel V. L. va Kupryakova E.M. muharrirligi ostida chiqarilgan xuddi shunday kitobda aytiladiki «tadbirkorlik biznesining asosiy maqsadi foyda olishdir. Ko'zda tutilgan bitimni rejalashtirishda avvalo qanday summa olishga umid qilish va loyiha umuman kutilayotgan miqdorda foyda keltirishga qodirligiga ishonch hosil qilish lozim»⁴.

Biznesni rejalashtirish quyida keltirilgan uchta asosiy funksiyalarni bajarishga bog'liq degan fikr ham mavjud:

- biznes yuritish konsepsiyasini ishlab chiqish;
- korxona faoliyatining amaldagi natijalarini baholash;

² Густав Берл, Пол Киршнер. Мгновенный бизнес-план.- М.: ИНФРА –М, 2001

³ Экономика предприятия. Под ред. проф. Грузинова В.П.- М.: «ЮНИТИ», 1998

⁴ Экономика предприятия. Под ред. проф. Горфинкеля В.Я., Купрякова Е.М. –М.: «ЮНИТИ», 1996

- pul mablag'larini jalb qilish zarurligini asoslab berish.

Yuqorida keltirilgan sharhdan ko'rinib turibdiki, biznesni rejalashtirishni tuzish zarurati ayrim hollarda o'z biznesini yaratish bilan, ikkinchi holda bank yoki boshqa moliyaviy muassasadan pul olish niyati bilan, uchinchi esa tijorat loyihasini amalga oshirish, yangi korxona yaratish zarurati bilan asoslanadi.

G'arblik iqtisodchi olimlarning o'z mamlakatlari hukumatlari bilan birgalikda jamiyatda tadbirkorlik ruhini yaratishga harakat qilayotganliklarini tushunish mumkin (Amerikaliklar shiorini eslaylik «biznesmen – millatning oltin fondi»). SHu sababli ular o'z tavsiyalarining aksari qismini yangi ish ochish, o'z biznesi bilan shug'ullanish niyatida bo'lgan shaxslarga yo'naltiradilar.

Biroq oddiy, aytaylik, non va non mahsulotlari, lok-bo'yoq materiallari yoki oyoq kiyimi ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi hamda yangi qurilish yoki yangi loyihani amalga oshirishni hayoliga ham keltirmaydigan korxonalar bilan nima bo'ladi? Bu holda biznesni rejalashtirish kerak bo'ladimi yoki korxona ishlab chiqarish–xo'jalik va iqtisodiy faoliyat uchun oddiy reja tuzish bilan cheklanib qolaveradimi?

Biznesni rejalashtirishlarning ahamiyati va zarurligini shubha ostiga qo'ymagan holda aytish joizki, bu hujjatni ishlab chiqish xoriyda keng qo'llanishi sababligina urf–odatga aylanib qolmasligi lozim. SHuningdek u boshqa korxonalar ham shunday qilayotganligi uchungina ishlab chiqilmasligi kerak. Biznesni rejalashtirishni tayyorlash, uning maqsad va vazifalarida aniqlik bo'lishi zarur. Busiz yuqorida eslab o'tilgan V.P. Gruzinovning «Korxona iqtisodiyoti» darsligida ko'rsatilgan holat kelib chiqishi mumkin: «Korxona biznesni rejalashtirishi – yangi korxona yaratishni ko'zda tutuvchi hujjatdir»⁵.

O'zbekiston sharoitlarida korxonalarning katta qismi (80% atrofida) xodimlar soni 10 kishidan 100 kishigacha bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalardan iboratligi bilan bog'liq xususiyatni hisobga olish zarur. Aynan ular biznes va tadbirkorlikning tashkiliy shakllari hisoblanadi. SHu munosabat bilan tabiiy savol tug'iladi: bunday korxonalarga zamonaviy darsliklar va g'arb adabiyotlarida taklif qilinayotgan hamdagi va tuzilmaviy mazmunli biznesni rejalashtirishlar kerakmi? Kichik korxonalar yirik korxonalarning biznesni rejalashtirishlaridan nusxa ko'chirib olmaydilar?

Bizningcha, biznesni rejalashtirish ham yirik korxonalarda, ham kichik korxonalarda ishlab chiqilishi lozim. Bunda uni ishlab chiqish korxonani rivojlantirish strategiyasidan tashqari, ularni amalga oshirish uchun ayni paytda korxonadan qo'shimcha moliyaviy resurslar talab qiluvchi yangi loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik jihozlash, mahsulot diversifikatsiyasi, ichki va tashqi bozorlarga kirib borish bilan bog'liq bo'lishi lozim. CHunki biznesni rejalashtirish korxonaning kundalik faoliyatidan tashqari, bank muassasalari tomonidan yuqorida ko'rsatilgan va shunga o'xshash tadbirlarni moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa hollarda esa korxona o'z biznesni rejalashtirishini nima deb atashining unchalik ahamiyati bo'lmaydi, bu korxonaning o'z ixtiyorida bo'ladi.

Gap shundaki biznesni rejalashtirish har qanday muammolardan himoya qiluvchi vosita bo'la olmaydi, u korxonaning o'zi bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni o'zidan–o'zi hal qilmaydi. Amaliyotning guvohlik berishicha, reja juda yaxshi ishlab chiqilgan bo'lsada, undan noto'g'ri foydalanishda korxona zarar ko'rishi mumkin. Biroq bu biznesni rejalashtirish umuman kerak emas degan fikrga olib kelmasligi kerak. Masalan, banklar, investitsiya firmalari va boshqa muassasalar aniq va to'g'ri tuzilgan biznesni rejalashtirishni olmaguncha korxonalardan moliyaviy qo'llab–quvvatlash bo'yicha qaror qabul qilmaslikka harakat qiladilar.

Biznesni rejalashtirish birinchidan, korxonaning barcha bo'lim va xizmatlari majburiyatlari va javobgarligini aniqlashga imkon beradi, ikkinchidan, ularni korxona istiqboli bilan shug'ullanish hamda korxona maqsadlarini va ularga erishish yo'llarini aniqlashga majbur qiladi, uchinchi, korxona faoliyatining muhim yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatkichlarni

⁵ Экономика предприятия. Под ред. проф. Грузинова В.П.- М.: «ЮНИТИ», 1998

belgilab beradi, to'rtinchidan esa, korxonaning bozordagi kutilmagan o'zgarishlarga yanada moslashuvchan va tayyor qilib qo'yadi.

Biroq shunday bo'lsada, biznesni rejalashtirishni bank yoki boshqa muassasalar tomonidan korxonaning iqtisodiy holatini yaxshilash va uning ishlab chiqarish salohiyatidan unumliroq foydalanish tashlangan qutqarish vositasi deb tushunmaslik kerak. Gap shundaki, turli maslahatchilar, bankirlar, huquqshunoslar, moliya xizmatchilari, buxgalterlar va boshqalar rejada biznesni ko'rsatish uchun turli nuqtai nazarga ega bo'ladilar. Aynan shu jihat biznesni rejalashtirishni korxonaning oddiy rejalaridan farqli qilib qo'yadi. SHu sababli biznesni rejalashtirishni ishlab chiqish birinchidan, qog'ozda qolib ketmasdan amaliyotda qo'llanishi, ikkinchidan, ekspertiza tomonidan rad qilinmasligi va uchinchidan, foydaning o'sishi va korxonaning umumiy moliyaviy holati yaxshilanishiga xizmat qilishi maqsadida o'ziga alohida e'tibor va chuqur o'ylab chiqilgan yondashuv talab qiladi.

6.2. Biznesni rejalashtirishni tayyorlash bosqichlari

Mavjud ilmiy va uslubiy adabiyotlar biznesni rejalashtirishni ishlab chiqish uchun yagona to'g'ri yo'l yo'qligiga alohida e'tibor qaratadi. Biznesni rejalashtirishning tarkibi, tuzilmasi, ko'rsatkichlari va boshqa jihatlari odatda korxonaning hajmi (quvvati), yo'nalishi, iqtisodiy va moliyaviy holati, shuningdek, gap o'z ishini endi boshlayotgan tadbirkor yoki faoliyat yuritayotgan korxona haqida borayotganligiga bog'liq bo'ladi. Agar gap barcha tashvishlar o'z ishini boshlash va buning uchun zarur bo'lgan boshlang'ich kapitalni, jumladan, bank kerditlari hisobiga shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik haqida borsa, biznesni rejalashtirishning mazmuni va uni tayyorlash bosqichlari ma'lum bir (umumiy) ko'rinishga ega bo'lishi, yangiliklar kiritish yoki bankrotlik yoqasida turgan korxona haqida boradigan bo'lsa boshqa ko'rinishga ega bo'ladi. SHunday bo'lsada, har qanday biznesni rejalashtirishda tanlangan biznes konsepsiyasi ochib beriluvchi, taklif qilinayotgan mahsulot, ish yoki xizmatlarnig o'ziga xosligini tavsiflovchi, shuningdek, istiqbolda olinishi lozim bo'lgan foyda (daromad) va biznesni kengaytirish aks ettiriluvchi bo'limlar mavjud bo'ladi.

Xo'jalik amaliyotining dalolat berishicha, umuman rejalashtirish, va xususan biznesni rejalashtirish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda biznesni rejalashtirishning loyiha varianti ishlab chiqilib, unda o'tgan yilda erishilgan natijalar tahlili va kelgusi yillar uchun o'z imkoniyatlarini baholash hisobiga dastlabki hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Biznesni rejalashtirish barcha hisob-kitoblarda belgilangan texnologik jarayonlarga, ichki zahiralardan to'liq foydalanishga asoslanishi hamda zarur hollarda tashkiliy va texnik-iqtisodiy tadbirlar bilan mustahkamlanishi lozim.

Ushbu bosqichda chiqariladigan mahsulotga jamiyat ehtiyojlari va bozor talabini aniqlash katta ahamiyatga ega. Gap shundaki, jamiyatning aniqlangan ehtiyojlaridan tashqari, iste'molchilar mahsulotni xarid qilish uchun sarflaydigan va korxona ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun mahsulot ishlab chiqarishga sarflovchi resurslarning cheklanganligi ham mavjud. SHuning uchun «ehtiyot – resurslar» bog'liqligi biznesni rejalashtirishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ehtiyojlarni aniqlash korxonani iste'molchilik talabiga ega bo'lmagan mahsulot chiqarish uchun xarajatlar sarflashining oldini oladi, talab qilinuvchi resurslar hisob-kitobi esa xato va kamchiliklarga yo'l qo'yamaydi.

Ikkinchi bosqich bu biznesni rejalashtirishni yakuniy ishlab chiqish va uni korxonaning rasmiy hujjati sifatida tasdiqlashdir. Aynan shu sifatda biznesni rejalashtirish huquqiy kuchga ega bo'lib, turli idora va muassasalarga, xususan, banklardan moliyaviy resurslar olish uchun taqdim etilishi mumkin. Agar uni ishlab chiqish o'z navbatida korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy (moliyaviy) strategiyasini ishlab chiqishga imkon beruvchi marketing tadqiqotlari va bozor tahliliga asoslansa to'g'ri bo'lur edi.

Ayrim mutaxassislar bitta biznesni rejalashtirishning ikki xil ko'rinishga ega bo'lishini – hamkorlar, investorlar, aksiyadorlarga taqdim etiluvchi rasmiy biznesni rejalashtirish va korxona rahbariyati va uning komandasi uchun tuzilgan ishchi biznesni rejalashtirishni tavsiya qiladilar.

Ishchi biznesni rejalashtirish xuddi rasmiy biznesni rejalashtirish kabi tartibda va xuddi shu bo'lim va nomlardan iborat bo'lib, tavsiya qiluvchilarning fikricha, quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qilishi lozim:

1. Rasmiy biznesni rejalashtirishning muhimligini tushunish.
2. Yangi tadbirkorlik ishini boshlashdan ancha avval bajariluvchi hatti-harakatlar dasturini aniqlash.
3. YUzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar variantlarini detalli ko'rib chiqish.
4. Ichki va tashqi tavakkalchiliklarni baholash.
5. Bozor muhitidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ish holati nazoratini amalga oshirish.

Bugungi kunda korxonalar turli xil hisobot, reja, statistika, normativ va boshqa materiallardan foydalanadilar. Agar «bitta hujjat kam, bitta hujjat ko'p» tamoyiliga rioya qilinadigan bo'lsa berilayotgan tavsiya e'tiroz uyg'otmasligi mumkin. Biroq ma'lumki, gap sonda emas, balki biznesni rejalashtirishlarning amalga oshishi, ularning real voqelikka mos kelishidadir. Korxona ikkita (rasmiy va ishchi) biznesni rejalashtirishga ega bo'lsada, biroq muvaffaqiyatga erishmasligi ham mumkin. Bitta, lekin korxona faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini hisobga oluvchi, mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan eng samarali foydalanish va kutilayotgan miqdorda foyda (daromad) olishga yo'naltirilgan real biznesni rejalashtirish ko'proq muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Har qanday istiqbolli hujjat kabi, biznesni rejalashtirish ham iste'mol bozorida va umuman iqtisodiyotda ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda vaziyatga ko'ra qayta ko'rib chiqilishi, zarur hollarda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Eng asosiysi u korxonaning bozordagi ulushini saqlab qolishga ko'maklashishi, kelgusida ishlab chiqarish va sotish biznesni rejalashtirishning asosiy qismidan o'rin egallovchi mahsulotning hayotiylik davrini uzaytirishga xizmat qilishi lozim. Biznesni rejalashtirishni ishlab chiqishning dastlabki bosqichi ham, yakuniy bosqichi ham «bir gap bo'lar» qabilida bajarilishi mumkin emas. Bozor ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirishda xatolarni, o'ylanmay qilingan hatti-harakatlarni kechirmaydi.

Yakuniy maqsadning bittaligiga qaramay, biznesni rejalashtirishni ishlab chiqishning har bir bosqichi bajarishi lozim bo'lgan belgilangan vazifalar doirasi mavjud. Birinchi bosqichda asosan korxonaning iste'molchilarga taklif qilishi mo'ljallanayotgan tovar va xizmatlar tarkibini tanlash (yangi mahsulot, modifikatsiyalangan yoki an'anaviy mahsulot), ishlab chiqarish dasturini bajaruvchi bo'yicha taqsimlash, talab qilinadigan xom-ashyo, material va boshqa zarur vositalar hajmini, shuningdek, tayyor mahsulotni sotish kanallarini aniqlash, mahsulot tannarxi, kutilayotgan foyda va hokazolarni hisob-kitob qilish vazifalari bajarilsa, ikkinchi bosqichda barcha dastlabki hisob-kitoblar birlashtiriladi va korxona biznesni rejalashtirishini shakllantirish yakunlanadi.


Biznesni rejalashtirishni ishlab chiqishning birinchi bosqichidagi hisob-kitoblar qanchalik aniq va bexato bajarilgan bo'lsa, uning boshqaruv hujjati va xo'jalik yuritish vositasi sifatidagi ishonchliligi shunchalik yuqori bo'ladi. Biznesni rejalashtirish bosqichlarini ishlab chiqish o'rtasida uzoq tanaffus bo'lmasligi va ortiqcha axborot bilan to'ldirib tashlanmasligi lozim. Amaliyotning ko'rsatishicha, katta hajmda tuzilgan biznesni rejalashtirish hali to'liqlik va yuqori sifatlilikni anglatmaydi. Masalan, bank xizmatchisi korxona ikki yuz yoki besh yuz ming so'm kredit olish uchun yuz varaqdan ortiq biznesni rejalashtirish olib kelgan taqdirda uni o'qib ham o'tirmaydi. Unga yuz million so'm kredit olish uchun tayyorlangan biznesni rejalashtirish bir necha varaqdan iborat bo'lib, asosiy mazmun bir nechta gap bilan ifodalangan bo'lishi ham katta ta'sir ko'rsatmaydi.

To'liq biznesni rejalashtirishning kompyuterda terilgan kursi ellik varaqdan oshmasligi lozim. Biroq so'nggi yillarda, xususan, raqobat kuchli bo'lgan soha va tarmoqlarda qisqartirilgan biznesni rejalashtirishlar keng qo'llanayotgan bo'lib, ularning hajmi 10–15 varaqdan ortmayapti.

SHunday bo'lsada, biznesni rejalashtirish har qanday variantida korxona missiyasini bajarish va uning pirovard maqsadlariga erishishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

YUqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda bevosita biznesni rejalashtirishni ishlab chiqish va rasmiylashtirish bosqichlariga mufassal to'xtalib o'tamiz.

Biznes rejani shakllantirishni yangi korxonani tashkil etish yoki korxona faoliyatiga muhim o'zgartirish kiritish g'oyasi bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Ularni turli darajada yiriklashtirish yoki detallashtirish mumkin (6.1–rasm):



6.1–rasm. Biznesni rejalashtirishni ishlab chiqish bosqichlari.

Biznesni rejalashtirishni tayyorlashning birinchi bosqichida korxona missiyasi (korxona falsafasi) – xo'jalik sub'ektining qisqacha ta'rifi, uning maqsadlari, burchi, faoliyat sohalari, harajat me'yorlari va mintaqa, jamiyatning ijtimoiy vazifalarini xal etishdagi o'rni aniqlanadi.

Ko'pincha korxonalir o'z missiyasi maksimum foyda olish, deb xato qiladilar. Iste'molchilar uchun korxonaning qancha foyda olishi qiziqarli emasdir. Foyda olish korxonaning ichki muammosi bo'lib, uni hammaga e'lon qilish, ta'sis xujjatlariga kiritib qo'yishni ma'lum ma'noda o'rinsiz deb hisoblash mumkin. Har qanday korxona ochiq tizim bo'lib, uning muvaffaqiyati tashqi muxitdagi iste'molchilarning ma'lum bir talablarini qondirish bilan bog'liqdir. Agar korxona shunday missiyani amalga oshirishga imkoniyat topa olmasa, bir vaqtning o'zida kam foyda oladi. SHuning uchun faqatgina tashqi muxitdan korxonaning maqsadi va missiyaning topish mumkin. Foyda maqsad emas, balki maqsadga erishish vositasidir.

Mos keluvchi missiyani tanlab olish uchun kamida ikkita savolga javob topish kerak: "korxona mijozlari, iste'molchilari kim?", Korxona qanday talablarni qondirishi mumkin?". Masalan, foydaning ahamiyatini yaxshi bilgan Genri Ford o'z kompaniyasi missiyasini quyidagicha ta'riflagan: "Biz odamlarga arzon mashinalarni xavola etamiz " SHu bilan birga u doimo ushbu ishni kim amalga oshirsa, uni foyda chetlab o'tmaydi deb ta'kidlab kelgan.

Missiya korxonaning o'zi uchun belgilab olinadi, lekin doimo xaridorga, jamiyatga yo'naltirilgan bo'ladi. Mashhur "Soni" firmasining missiyasi quyidagicha ta'riflanadi: "Taraqqiyotni amalga oshirish orqali jamiyatga xizmat qilish". SHu kabi quyidagi misollarni keltirish mumkin:

- Xalqaro savdo orqali tinchlik sari.
- Mamlakat uchun nima yaxshi bo'lsa, firma uchun ham yaxshidir.
- Bizning mahsulotlar dunyoni hayot uchun yanada qulay qiladi.
- Iste'molchilar tashkilotimiz xayotiy kuchining manbai.

Korxona missiyasining fundamental asoslari bo'lib uning tamoyillari va etikasi hisoblanadi. Ular firma xodimlari xatti–harakatlariga qo'yiladigan universal ijtimoiy talablar majmuini ifodalovchi faoliyatning asosiy qoidalari sifatida yuzaga chiqadi.

Korxona tamoyillari o'z ichiga oladigan talablar quyidagilar:

- mahsulot (ish, xizmatlar) va bozorga talablar;
- boshqaruvga talablar – motivatsiya tizimi, qarorlar qabul qilish, nazorat, yutuqlarni baholash va x.k.;
- xodimlarga talablar – ijodiy fikrlash, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, motivlar, unumdorlikni baholash va x.k.;
- tashqi muhitga talablar – xaridorlar, ta’minotchilar, investorlar, raqobatchilar, jamiyat, davlat.

Tamoyillarni shunday ta’riflash kerakki, bir tomondan, raqobatchilar korxonaning xo‘jalik yuritishdagi niyatlaridan foydalana olmasliklari uchun imkon qadar umumlashgan xolda, ikkinchi tomondan, xaridorlar va xamkorlar hamda boshqa ishtirokchilar ularni yaxshi tushunishi uchun etarlicha aniq bo‘lishi lozim.

Korxona etikasi (yoki o‘zaro aloqalarning ma’naviy jixatlari) biznesmenning vijdoni yordamida tadbirkorlik faoliyati jarayonida firma xodimlari xatti–harakatlariga (hulqiga) bo‘lgan eng yuqori talablarga amal qilishga imkon yaratadi. Korxonaning bozordagi hamkorlariga nisbatan amal qilishi lozim bo‘lgan ma’naviy qadriyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: aldashdan voz kechish, halollik, hamkorlikdagi ishda ishonch, innovatsion g‘oyalar sohibining tadbirkorlik manfaatiga hurmat.

Missiyani belglashda korxona tanlab olgan qadriyatlar yo‘nalishi ham ahamiyatga ega bo‘lib, ular rahbarlar va barcha xodimlarning strategik xatti–harakatlariga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Nazariya va amaliyotda qadriyatlar yo‘nalishining oltita turini ajratib ko‘rsatish mumkin (1–jadval).

1–jadval.

Qadriyatlar yo‘nalishlari va ularning maqsadlar bilan aloqasi.

Yo‘nalish turi	Qadriyatlar kategoriyasi	Korxona ko‘zlayotgan maqsadlar toifalari (tiplari)
Nazariy	▪ Haqiqat ▪ Bilim ▪ Oqilona fikrlash	Uzoq muddatli tadqiqotlar va ishlanmalar
Iqtisodiy	▪ Qulaylik ▪ Foydalilik ▪ Boylik jamg‘arish	▪ O‘shish ▪ Foyda olish ▪ Natijalar
Siyosiy	▪ Xokimiyat ▪ Hurmat qozonish	▪ Kapital va sotishning umumiy xajmi, ishlovchilar soni
Ijtimoiy	▪ Yaxshi munosabatlar ▪ Sadoqat ▪ Nizolarning bo‘lmasligi	▪ Foydalilikdan ijtimoiy mas’uliyatning yuqori turishi ▪ Bilvosita raqobat ▪ Tashkilotdagi yaxshi muxit
Estetik	▪ Badiiy muvofiqlik ▪ SHakl va o‘lchamlar mosligi ▪ Tarkib	▪ Mahsulot dizayni ▪ Sifat ▪ Foydani kamayishi hisobiga bo‘lsa ham ko‘rkamlikni ta’minlash.
Diniy	Borliq bilan muvofiqlik, kelishuv.	▪ Etika ▪ Ma’naviy muammolar

Korxona missiyasi uning madaniyati – korxona ob’ro’sini (marka, imidj) shakllantiruvchi korxona qadriyatlari, me’yor va g‘oyalari majmuasi bilan chambarchas bog‘liqdir. U hayotda quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- korxonaning xatti–harakatlarida – barcha xodimlar uchun yagona bo‘lgan tamoyillarda;

- firma kommunikatsiyalarida – axborotni uzatish usullarida;
- korxonani ko'rgazmali taqdim etish vositalarida – firma belgisi, mahsulotni bezalishi, marosimlar, tashqi ko'rinishi va x.k.

Korxona imidji firmaning iste'molchilar, hamkorlar, jamiyat oldidagi mas'uliyatini bildiradi. Bunday holatda missiya korxonaning tashqi muxitda kerakli taassurot uyg'otishga intilishini aks ettiradi.

Ikkinchi bosqich – biznesni rejalashtirish maqsadlarini ishlab chiqish. Maqsad– bu korxonaning kelgusidagi ko'zda tutilgan, istalgan xolati.

Biznes tizimida maqsad beshta funksiyani bajaradi.

- tashabbus – firmaning xozirgi va ko'zda tutilgan, istalgan xolatini, harakatlar motivlarini taqqoslash, solishtirish.

- qarorlar qabul qilish mezonlari – axborotlar va muqobillarni tanlash, biznesdagi ustivor yo'nalishlarni baholash;

- boshqarish vositalari – harakatlarni boshqaruvchi talablar, biznes yo'nalishlarini aniqlash;

- muvofiqlashtirish – qarorlar qabul qiluvchi shaxslar o'rtasida nizosiz munosabatlarni ta'minlash, maxsuslashtirilgan bo'linmalar ishlarini moslashtirish, muvofiqlashtirish.

Nazorat – bu xo'jalik faoliyatining joriy holati ko'rsatkichlarini maqsadlar bilan taqqoslash, solishtirish.

Missiyadan farqli ravishda maqsadlar korxona faoliyatining bir muncha aniq yo'nalishlarini aks ettiradi (2–jadval).

2–jadval

Korxona missiyasi va maqsadlari orasidagi farqlanish.

Ko'rsatkichlar	Missiya	Maqsadlar
1. Vaqt mezonlari	Kelajakda intilish mavjud, lekin vaqt bo'yicha cheklanishlar yo'q va joriy holatga bog'liq emas.	Doimo amalga oshirish muddatlarini ko'zda tutadi.
2. Axborotni yo'naltirilganligi	Korxonaning tashqi muxitga – iste'molchilar, jamiyat, mintaqa, manfaatlari qadriyatlar va ustuvorliklariga yo'naltirilgan.	Ko'pincha firmaning ichki muxitiga yo'naltirilgan va resurslar, zahiralardan foydalanishni yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.
3. Ta'riflanish xususiyatlari	Umumiy atamalarda ifodalanadi va korxona obrazini, uning markasini, ish usullarini yoritib beradi.	Ko'pincha faoliyat natijalarining aniq natijalarini aks ettiradi.
7. O'lchovlilik	Sifat jixatidan tasniflanadi, natijalarni nisbiy aks ettirish ustun turadi	Asosan miqdoriy o'lchovga ega bo'ladi, birlikda va ko'plikda ifodalanishi mumkin.

Har qanday korxona murakkab ijtimoiy–iqtisodiy tizim sifatida ko'p maqsadli xarakterga ega.


Korxonani faoliyati davomida strategik maqsadlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ko'plab taktik va tezkor maqsadlarni ham hal etadi. Sof iqtisodiy maqsadlar bilan ijtimoiy, texnikaviy va tashkiliy vazifalar chambarchas bog'liqdir. Maqsadlarni tuzilmalarga ajratish turli xil jixatlar bo'yicha amalga oshirish mumkin (3–jadval).

3–jadval.

Korxona maqsadlarining taxminiy tasnifi.

	Tasniflash belgilari	Maqsadlar guruhlar	
	Mazmuni (predmeti)	Iqtisodiy Tashkiliy Siyosiy Ishlab chiqarish	Ijtimoiy Texnologik Ilmiy Estetik Psixologik
	O'lchami	Maksimum Ko'p emas	Minimum Kam emas
	Rejalashtirish miqyoslari	Uzoq muddatli (strategik) O'rta muddatli (taktik)	Qisqa muddatli (tezkor)
	Harakatlar sohasi	Global Regional Oliy Oraliq	Milliy Lokal (mahalliy) Yo'ldosh(qo'shimcha) Quyi
	Ierarxiya darajasi	Korxona	Tuzilmaviy bo'linma
	O'zaro munosabatlar	Komplementar Indeferent	Raqobatli
	O'lchamlilik	Miqdoriy	Sifat jixatdan (o'lchovsiz)
	Yo'naltirilganlik	Tijorat	Notijorat (ijtimoiy)
	Muxit	Ichki	Tashqi
0	Sub'ekt	Individual (shaxsga yo'naltirilgan)	Guruhga (kollektivga) yo'naltirilgan

Maqsadlar aniq tushunarli bir ma'noda tushuniladigan bo'lishi va korxonaning kelajakdagi xolatini aks ettiruvchi atamalar orqali ta'riflanishi kerak. SHuning uchun maqsadlarni ishlab chiqarishda uning mazmuni va shakliga qo'yiladigan talablarni e'tiborga olish lozim (6.3–rasm).



6.3–rasm. Maqsadlarning mazmuni va shakliga qo'yiladigan talablar

Korxonaning maqsadlari faoliyat turining xususiyatlariga ko'ra biznesni rejalashtirishda taxminan quyidagicha belgilanishi mumkin:

- jamiyat talablariga mos keluvchi tovar va xizmatlarni etkazib berish;
- tarmoqda bozorda etakchi mavqelarga erishish;
- biznesni rivojlantirish uchun zaruriy mablag'larni jamg'arish;
- bozordagi ulushni _____% ga oshirish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish;
- mijozlarga xizmat ko'rsatishning me'yoriy muddatlarini _____ kuniga (soatga) qisqartirish;
- yangi sotish bozorlariga _____yilgacha chiqish;
- mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarni _____%ga kamaytirish;
- yangi mahsulot va xizmatlari turlarini o'zlashtirish;

Ma'lumki maqsadlar doimo ma'lum bir cheklanishlar asosida amalga oshiriladi. Ular korxona ichidagi va tashqaridan qo'yiladigan cheklanishlar (chegaralanishlar) bo'lishi mumkin. Tashqi cheklanishlar qatoriga qonun me'yorlari, inflyasiya, raqobatchilar, iqtisodiy ustuvorlikni o'zgarishi, aholi daromadlarini o'zgarishi, qarzдорlarning moliyaviy holati va boshqalar kiritilishi mumkin. Ichki cheklanishlarga esa firma tamoyillari, xarajatlar darajasi, ishlab chiqarish quvvatlari, marketing va boshqaruvning holati, turli darajadagi nomuvofiqliklar va boshqalar kiradi. SHuning uchun korxona missiyasi, maqsadi va vazifalarini ishlab chiqish jarayonida uning faoliyatiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli omillarni baholash zaruriyati tug'iladi.

Biznesni rejalashtirishni ishlab chiqishning **uchinchi bosqichida** biznesni rejalashtirishning tuzilmasi belgilab olinadi (6.3 – bo'limga qarang).

To'rtinchi bosqichda biznesni rejalashtirishning har bir bo'limini ishlab chiqish uchun zaruriy axborotlarni to'plash amalga oshiriladi. Bu rejalashtirishning eng muhim sermehnat qismi hisoblanadi. Axborotlar manbai sifatida tarmoqning maxsus axborotnomalaridan, loyiha tashkilotlari me'yorlaridan, tahlil bilan shug'ullanuvchi maxsus firma xizmatlaridan, statistika idoralari materiallaridan, maxsus tadqiqotlar va kuzatishlardan, yuqori malakali iqtisodchilardan, maslahatchilardan hamda korxonaning ichki muhiti va o'z ishini yaxshi biladigan korxona xodimlaridan foydalanish mumkin.

Rejalashtirishning **beshinchi bosqichi** – bevosita biznesni rejalashtirish bo'limlarini ishlab chiqish va uni yagona xujjat sifatida rasmiylashtirish.

6.3. Biznesni rejalashtirish tuzilmasi

Bundan oldingi materiallar shundan dalolat beradiki, biznesni rejalashtirish bu oddiy bir hujjat emas. U korxonaning konstitutsion asosini tashkil etib, uning ishlab chiqarish faoliyatini, kelgusidagi rivojlanish strategiyasini belgilab beradi. Korxona strategiyasi esa, ma'lumki, turli xil bo'ladi: kimdir mahsuldor, ya'ni ishlab chiqarish strategiyasini afzal ko'rsa, boshqalarga moliyaviy strategiya ko'proq to'g'ri keladi. Bozorga yangi mahsuldor g'oya bilan kirishga harakat qilayotgan yangi korxona va firmalar odatda moliyaviy strategiyaga katta e'tibor qaratadilar. Bozorda ma'lum ma'noda barqaror o'ringa ega bo'lgan boshqa korxonalar esa asosiy e'tiborni ishlab chiqarish strategiyasiga qaratadilar.

Hamma korxonalar bir xil emasligi sababli ularning har biri uchun biznesni rejalashtirishni ishlab chiqish bo'yicha detalli tavsiya berishning imkoni yo'q. SHunday bo'lsada, zamonaviy iqtisodiyot fanida biznesni rejalashtirishning taxminiy tuzilmasi ishlab chiqilgan bo'lib, quyida uning ayrim variantlari keltirilgan (4–jadval).

4–jadval

Biznesni rejalashtirishning taxminiy tuzilmasi

I variant	II	III	IV variant	V variant
1. Bo'lajak biznesni qisqacha ta'riflash. 2. Bozor. 3. Xodimlar malakasi va tajribasi, mavjud moliyaviy vositalar. 4. Taklif qilinayotgan mahsulotning ustunliklari. 5. Bo'lajak biznesni tashkil qilish.	1. Biznesni rejalashtirishga kirish. 2. Biznesni identifikatsiya–lash. 3. Maqsad. 4. Biznesni ta'riflash. 5. Bozor. 6. Raqobat. 7. Menejment. 8. Xodimlar. 9. Joylashuv. 10. Moliyaviy ma'lumotlar. 11. Hisobot . 12. Qisqacha	1. Tanlangan biznes konsepsiyasi. 2. Ayni paytdagi vaziyat. 3. Yaratilayotgan korxona tavsifnomasi. 4. Boshqaruv. 5. Bozor tahlili va tadqiqotlari. 6. Marketing harakatlari rejasi. 7. Ishlab chiqarish rejasi. 8. Tavakkalchi	1. Kirish. 2. Korxonani ta'riflash. 3. Mahsulotni ta'riflash. 4. Marketing rejasi. 5. Ishlab chiqarish rejasi. 6. Tashkiliy reja va menejment. 7. Moliyaviy reja. 8. Loyiha samaradorligi. 9. Ilova.	1. Firma imkoniyatlari (rezyume). 2. Tovar (xizmat) turlari. 3. Tovar (xizmat) sotuv bozori. 4. Sotuv bozorida raqobat. 5. Marketing rejasi. 6. Ishlab chiqarish rejasi. 7. Tashkiliy reja. 8. Firma faoliyatining huquqiy ta'minoti. 9. Tavakkalchilikni baholash va

6. Kelajakka nazar. 7. Moliyaviy vazifalar. 8. Pul mablag'laridan foydalanish. 9. Ilova. 10.	mazmun (rezyume).	likni		sug'urtalash. 10. Moliyaviy reja. 11. Moliyalash tirish
		9. Moliyaviy reja.		

Keltirilgan variantlardan ko'rinib turibdiki, biznesni rejalashtirishning qat'iy tartibga solingan tuzilmasi mavjud emas. Biroq biznesni rejalashtirishlarning har bir turi uchun xarakterli bo'limlar mavjud bo'lib, ularda tanlangan biznes (ishlab chiqarish) konsepsiyasi, taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizkursing o'ziga xosliklari, marketing va menejment, tavakkalchilikni baholash, moliyaviy ta'minot va natijalar aks ettiriladi. Qabul qilingan har bir biznesni rejalashtirish tuzilmasi quyidagi savollarga javob berishi lozim: ishlab chiqarishni nimadan yoki qanday boshlash kerak, ishlab chiqarishni qay tarzda samarali tashkil qilish mumkin, ilk daromad (foyda) qachon olinadi, investorlar va kreditorlar bilan qanchalik tez hisob-kitob qilish mumkin, tavakkalchilik darajasi va uni kamaytirish imkoniyatlari qanday.

Biznesni rejalashtirishning har bir bo'limi o'z mazmuniga, ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisob-kitob qilish usullariga ega bo'ladi. Biroq, bu biznesni rejalashtirishning yaxlit va to'liqligiga putur etkazmaydi. Barcha bo'limlar o'zaro bog'liq bo'lishi hamda korxonaning potentsial ishlab chiqarish imkoniyatlarini amalga oshirishga xizmat qilishi lozim. Biznesni rejalashtirishning bo'limlarini mazkur ma'ruzalar kursining mos keluvchi boblarida alohida ko'rib chiqamiz. Bozor munosabatlari sharoitlarida biznesni rejalashtirish qonun maqomiga ega bo'lmasligi hamda bozordagi vaziyatga bog'liq bo'lgan holda turli o'zgarishlarga uchrashi, iste'molchilarning hali qondirilmagan ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim. Biroq bunday tarzda qayta ko'rib chiqish har bir holatda jiddiy ravishda etarlicha asoslab berilishi zarur.

Aytish kerakki, sho'rolar davrida amal qilgan iqtisodiyotdan farqli o'laroq, zamonaviy biznesni rejalashtirishlarda, garchi ilmiy-texnik va texnologik muammolarsiz hech bir korxona, hech bir biznes ko'ngildagidek rivojlana olmasada, asosiy e'tibor moliyaviy-iqtisodiy, undan keyin esa ilmiy-texnik va texnologik muammolarga qaratiladi. SHu sababli biznesni rejalashtirishlarda ilmiy-texnik muammolarga ham etarlicha e'tibor qaratilishi, ular umumiy jihatdan aks ettirilishi lozim.

7- modul. Raqobatlashuvchi investitsiya loyihalarini baholash .

R E J A

7.1. Muqobil investitsiya loyihalarini tahlili.

Investitsiyalarning safarbar etilishi, ko'p jihat-dan, loyihalarning yuqori samaradorlikka egaligiga asoslanadi. Sababi, bunday investitsiya loyihalari kat-ta foyda olish imkonini beradi. Odatda, yuqori foy-da olish aksariyat investorlarning asosiy maqsadi bo'lganligi bois, bunday loyihalarni moliyalashtirish-dan investorlar manfaatdor bo'ladilar. Lekin hamma investorlar ham investitsiya loyahasini moliyalashti-rishdan avval ularning turli iqtisodiy ko'rsatkichla-rini baholaydilar va loyihani moliyalashtirish uchun o'zlarining turli xil talablarini qo'yadilar, shuning-dek o'z imkoniyatlarini ham hisobga olishga majbur-lar. Xohish va maqsadlarga mos bo'lgan loyihalarning ular tomonidan moliyalashtirishga qabul qilinishla-ri tabiiydir.

Odatda, barcha investitsiya loyihalari ham bir xil ko'rsatkichlarga ega bo'lavermaydi. Ayrim ko'rsatkichlar bir loyihada yuqori ijobiy bo'lsa, boshqa loyihada esa aksincha bo'lishi mumkin va yana bir ayrim ko'rsat-kichlari esa bir loyihada boshqa loyihadagiga nisba-tan pastroq miqsorga ega bo'lishi mumkin. Bir sohaga xos bo'lgan loyihalarning bunday (o'zaro ziddiyatli) ma'lumotlarga ega bo'lishi, ular o'rtasidagi raqobatni vujudga keltiradi. Investitsiya qarorlarini qabul qilish, ayniqsa, raqobatli investitsiyalar sharoitida birmuncha qiyin vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Investitsiya loyihalari o'rtasidagi raqobat kura-shining vujudga kelishi, odatda, quyidagi sabablarga asoslanadi:

1. Investitsiyalarning eng qisqa fursatda (tez) qop-lanishi va yuqori foyda keltirishi.
2. Investorning kapital byudjeti cheklanganligi.

Investitsiyalar u yoki bu natijalarga erishish yoki muayyan turdagi cheklangan resurslardan foydalanish-ning muqobil imkoniyatlari ta'minlangan hollarda o'zaro ziddiyatli investitsiyalar hisoblanadi va raqo-batlashuvchi investitsiyalar deb ataladi. Muqobil (o'za-ro ziddiyatli) investitsiyalarni taqqoslash esa ular ichidan eng yuqori samaralisini aniqlashga va uni ko'zlangan maqsad yo'lida moliyalashtirishga imkon be-radi. Muqobil loyihalarni o'zaro taqqoslashda, eng avvalo:

— ishlab chiqarish rejasi va hajmi yoki loyiha quvvatiga;

—vaqt omiliga;

— yangi texnika yoki progressiv texnologiya bo'yicha bajariladigan ish (xizmat) hajmiga;

— ishlab chiqarish va mahsulotni iste'mol qilish-ning ijtimoiy omillariga (atrof-muhitga ta'sirini ham hisobga olgan holda);

— moliyaviy ko'rsatkichlarga (baho darajasi, inf-lyasiya va kredit uchun foiz stavkalari darajalari va shu kabilar) e'tiborni qaratish lozim^

Investitsiya loyihalarining samaradorligi yuqori ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan reja (bashorat)-larning haqiqiy bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Bu ba-shoratlarning hammasi yuqori sifatli, xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishga va yuqori foyda aso-sida sotishga qaratilgan bo'ladi. Lekin loyihalarning texnologik tarkibi (ishlab chiqarish jarayonining mu-rakkabligi va uzoq davom etishi), loyiha quvvatining bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi va mahsulotni so-tish jarayoni kabilarning loyiha samaradorligiga jid-diy ta'sir ko'rsatishini hisobga olish zarur.

Odatda, ob'ektni ishga tushirishning birinchi bos-qichining o'zidayoq to'liq loyiha quvvatiga erishishni rejalashtirilgan investitsiya loyihalarining aksari-yat qismi noreal hisoblanadi. Sababi, turli xil tex-nologik, ishlab chiqarish va tijorat qiyinchiliklari oqibatida (sotish hajmining tushib ketishi, xom ashyo va ishchi kuchi ta'minotidagi nomuvofiqliklar va shu kabilar) loyihalar ishlab chiqilgan rejalariga mos kelmay qolishligi mumkin. Ayniqsa, bunday holat loyiha quvvatining birinchi yilining o'zidayoq to'liq o'zlashtirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyiha-larida kuzatilishi mumkin. CHunki, aksariyat hollarda, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish ishlarida ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. SHu sababdan loyiha rejasini ishlab chikishda uni loyihaning to'liq quvvatiga erishishini investitsiya ob'ektini ishga tu-shirgan vaqgning uchinchi-to'rtinchi yillariga kelib, yirik va murakkab loyihalarda esa 4-7 yillar ichida o'zlashtirishga moslashtirishga harakat qilinadi. Odat-da, bunday rejalashtirish soha, loyiha xususiyatlari-dan, ishlab chiqarishning turlaridan, bozor holati-dan kelib chiqib amalga oshiriladi va mahsulotning uzluksiz va maksimum imkoniyatlar bilan sotilishiga qaratilgan bo'ladi. Loyihalardagi bu va boshqa jihat-lar ular ichidan eng samaralisini tanlashda ziddiyat-li holatlarni keltirib chiqarishi sababli to'g'ri qaror qabul qilish muammosi har doim dolzarb masala hisob-lanadi.

10.1-misol. Faraz qilaylik, yangi qurilgan ko'p qavatli aholi uylarini isitish uchun korxona isitish va energiya ta'minotining ko'mir, gaz, mazut turlari-dan birini tanlashi lozim. YUqori darajadagi ener-giya ta'minotiga erishish uchun barcha usullarning taq-qoslama tahlili o'tkaziladi (bunda tahlilning oddiy va tushunarli bo'lishi uchun biz investitsiya loyihala-rining barcha variantlarining hayotiylik davri bir xil — 4 yilga teng deb faraz qilamiz) va ular quyi-dagi jadvadda o'z aksini topgan.

10.1-j a d v a l. Muqobil loyihalar tahlili.

Investitsiyalar turlari	Yillik pul tushumlari summasi, yillar bo'yicha mln. so'mda					Sof joriy qiymat, ICHRU, mln. so'm	Investitsiyalar rentabelligi R1	Foydaning ichki me'yori, 1EK, %
	0-y	1-y	2-y	3-y	4-y			
Ko'mir	-	750	500	0	0	95,04	1,095	18
Gaz	1000	350	350	350	350	109,45	1,109	15
Mazut	-	180	180	180	180	70,58	1,141	16
	1000							

- Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ko'mir sarfi sxemasining past samaradorlikka ega bo'lishiga sabab (RI q 1,095) isitish tizimining ishga tushirili-shidan boshlab uchinchi yilga kelib va undan keyingi yillarda hech qanday pul tushumlarining umuman kelib tushmasligidir. Lekin aholi uylariga issikdik uza-tishni to'xtatish imkonining yo'qligigina uni ishla-tishni davom ettirishni oqlaydi, xolos. SHu bilan birga 10% lik diskont stavkasida bu variant ijobiy NPV ga va u mazut sxemasidagiga nisbatan katta miq-dorga ega. Agar muqobil variantlarni IRR miqdori bo'yicha taqqoslasak, ko'mir sxemasi bir muncha afzal-roq hisoblanadi. NPV miqdori bo'yicha muqobil loyihalarning taqqoslanishi natijasida gazsxemasi eng katta miqsorga egaligi ma'lum bo'ladi. O'z navbatida, mazut sxemasi investitsiyalarning rentabelligi ko'rsat-kichi bo'yicha eng yuqori miqdorga egaligi ma'lum.

Amaliyotda ushbu misoldagi kabi muqobil loyiha-larning o'zaro ziddiyatli tahliliga, odatda, quyidagi-lar: Kelgusi pul tushumlari jadvalidagi farqlar-ning mavjudligi.

Investitsiyalarning talab qilingan summasidan farqlarning mavjudligi sabab bo'ladi. Bu holatni yuqorida keltirilgan misol jadvalidan yaqqol ko'ri-shimiz mumkin. Bu erda IRR ko'rsatkichi bo'yicha ko'mir sxemasi gaz sxemasidan yuqori turadi (ya'ni tegishli-cha 18% va 15%). Agar energiya ta'minoti sifatida ko'mirdan foydalanish asosida olingan pul tushumla-ri qisqa davr ichida yuz berishi va keyingi yillarda-gi tushumning butunlay to'xtashiga e'tibor qaratsak, ushbu loyihaning gaz sxemasi bo'yicha muqobil variantga nisbatan qisqaroq davr ichida foyda ichki me'yori-ning yuqoriroq darajasi ta'minlanishini ko'ramiz.

Boshqa tomondan olganda, mazut sxemasi investi-siyalangan har bir so'mga nisbatan eng yuqori foyda keltiruvchi loyiha hisoblanadi. Biroq bu loyiha bo'yicha talab etiladigan investitsiyalar gaz sxemasiga nisba-tan kichik va ular bo'yicha sof joriy qiymat (NPV) ham kichik hisoblanadi. RI va IRR bo'yicha esa gaz sxemasidan yuqoridir. Umuman olganda, muqobil loyiha-larning samaradorligini taqqoslama aniqlashda bel-gilangan diskont stavkasida qaysi loyiha yuqori sof joriy qiymatga ega bo'lsa (turli variantlardagi in-vestitsiyalar hajmi bir xil bo'lgan hollarda) yoki hosil kilingan sof joriy qiymat hisobiga boshlang'ich ka-pitalning eng yuqori o'sishiga erisha olsa, o'sha loyi-haning iqqisodiy samaradorligi yuqori hisoblanadi. Bunda loyihalarning RI ko'rsatkichi ham so'zsiz eng katta miqdorga ega bo'ladi. Lekin uning IRR ko'rsatki boshka loyihaning IRR ko'rsatkichidan kichik bo'lsa diskontlash stavkasini aks ettiruvchi grafikdan foydalaniladi.

6.2. Investitsiyalarning qoplanishi bo'yicha o'zaro ziddiyatli loyihalar tahlili.

Amaliyotda shunday hollar ham uchraydiki, ayrim mashhur yirik kompaniyalar bir vaqtning o'zida bir necha xil loyihalarni moliyalashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bunday paytda ushbu kompaniya bir qancha investitsiya loyihalarini ko'rib chiqish va tanlashga qabul qiladi. Bunda kompaniya ularning eng samarali-larini tanlab oladilar. Tanlab olingan investitsiya loyihalarining qiymati esa o'zining kapital byudje-tiga (moliyalashtirish imkoniyatiga) mos qilib oli-nadi va ularni amalga oshirishdan ko'radigan foydani hisoblaydi.

10.2-misol. Faraz qilaylik, yirik kompaniya mo-liyalashtirish uchun bir nechta loyihalarni qabul qil-di. Biroq u o'zining 130000 ming doll. atrofidagi byudjetidan kelib chiqib, eng samarali loyihalarni tanlashi lozim. Taqdim etilgan loyihalar quyidagi ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

10.2-j a v d a l. Muqobil investitsiya loyihalarini amalga oshirish

tahlili.

Loyiha	Keltirilgan	Keltirilgan	Foyda	Loyiha
--------	-------------	-------------	-------	--------

	investitsiyalar, ming doll.	tushumlar, ming doll.	indeksi, R1	Reytingi
A	10 000	24 000	2,4	2
B	30	80	2,67	1
V	300	360	1,2	7
G	80	78	0,98	9
d	120	170	1,48	5
E	160	240	1,5	3
J	600	680	1,13	8
3	150 000	190 000	1,27	6
i	120 000	175 000	1,46	4

Foydalilik koeffitsienti eng yuqori reytingga ega loyihalar tanlab olinadi va sof joriy qiymati xisoblab chiqiladi. mazkur investitsiyalarni bunday taqqoslama tahlili eng makbul loyihani tanlash imkoniyatini beradi.

Investitsiyalarning muqobil variantlari ichida eng makbulini tanlash investitsiya xarajatlarini qisqa muddat ichida qoplanishini qolgan davr mobaynida loyihadan katta foyda olish imkonini beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muqobil investitsiyalar ichida eng optimalini tanlash ba’zida uzaro ziddiyatli loyihalar o’rtasida birini tanlashga majbur etadi.

Ko’p xollarda investitsiya loyihasida ishtirok etuvchilarda xisob kitoblarni soddalashtirish ishtiyoqi paydo bo’ladi. Agar muqobil loyihalarda sof joriy qiymat asosida amalga oshirilsa doimiy ravishda reinvestitsiya qilish imkoniyatida yuzaga keladi. Bunday xollarda investitsiya davrlarini turliligini inobatga olgan xolda ularni taqqoslash uchun bir xil davrga keltiriladi. Kapitalning koplanish davrini uning sof va joriy qiymatini, necha yilda o’aqiqiy qiymatda qaytishini bilish investorlar uchun qiziqarli. Lekin uning bozor qiymati jixatidan koplanish davri miqdor qo’rsatkichi bo’yicha koplanish davridan farq qiladi. Bu qiymatlar bir biriga qanchalik yaqin bo’lsa investor uchun shunchalik foydali bo’ladi. shuningdek investitsining xayot davri qanchalik uzoq bo’lsa investor uchun yuqori foyda olish imkoniyati katta bshladi.

8-modul. TEXNIKAVIY VA TIJORAT TAHLILI

R E J A

- 8.1. Texnik tahlilning vazifasi.
- 8.2. Loyihalarni ishlab chiqishning texnik muammolari
- 8.3. Loyihani joylashtirish o’rni
- 8.4.Xarajatlar smetasi.
- 8.5. Loyihani amalga oshirish grafigi.
- 8.6. Tijorat tahlilining vazifasi.
- 8.7. Talab va taklif tahlili.

8.1. Texnik tahlilning vazifasi.

Loyihani texnikaviy tahlilining vazifasi bu loyiha maqsadiga loyik texnologiyani aniqlash, loyihadan foydalanuvchi guruhlariga ta’siri, maxalliy sharoitlar, shu jumladan kapitalga egalik qilish imkoni va uni qiymati, xom-ashyo, ishchi kuchlari, bozor o’lchamlarini, hamda loyihani rejalashtirish va imkoniyatlarini tahlil qilishdir.

Loyiha tahlilida birinchi navbatda texnik tahlil o’tkazilib, unda loyihani texnik rejasini muqobilligi va muammolari, xarajatlar va loyihani amalga oshirish jadvalini ko’rib chiqiladi. So’ngra loyihani kim amalga oshirishi ya’ni, mulkga egalik shakli, loyihani ko’lami, joylashgan mintaqasi, amalga oshish muxlati va texnologiyalar to’plami ko’rib chiqiladi.

Loyihani yaratilishida bir qator muammolar bo'lib, ular: mulkga egalik shakli, loyiha ko'lami, joylashtirish mintaqasi, amalga oshirish muxlatlari va texnologiyalar to'plamidir.

Avval loyihalarini asosiy qismi davlat sektoriga tegishli bo'lib uni davlat tomonidan amalga oshiriladi. Xozirda bozor iqtisodiyot sharoitida turli mulkchilik bo'lganligi tufayli loyihalarni investitsiyalash davlat va xususiy investorlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Bu o'zgarishlarni ba'zi birlari siyosatga tegishli o'zgarishlarni aks ettirsa, ko'pchiligi texnologiyadagi fundamental o'zgarishlardan kelib chiqadi, ular esa o'z navbatida avval tarqalgan iqtisodiy va siyosiy argumentlarni iqtisodiy faoliyatida davlat qatnashuvi foydasiga o'tkazishni har tomonlama qayta ko'rib chiqishni dav'at etadi.

Mulk shakli masalasi bir vaqtda loyihani texnik rejasini tanlanishini aniqlaydi. YA'ni loyihani davlat yoki xususiy investor investitsiya bilan ta'minlashiga qarab texnologiya tanlanadi chunki davlat sektori murakkab texnologiyaga asoslangan yirik loyihalarini amalga oshirish imkoniga ega bo'lsa, xususiy investorlar kichikroq arzonroq texnologiyaga asoslangan loyihalarni amalga oshirishi mumkin.

Loyiha ko'lami va to'zishishi deyarli hamma xolatlarda o'zgaruvchi miqdor xisoblanadi va uni loyihani yaratilish davrida aniqlash tavsiya etiladi. Qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi uchun loyiha ko'lami uning mahsulotiga bo'lgan talabi bilan belgilanadi boshqa xollarda loyiha ko'lami eng avval loyihani amalga oshiruvchi idoraning tashqilotchilik imkoniyatiga yoki ishlab chiqaruvchilariga (fermerlar) bog'liqdir.

Ba'zi bir loyihalarda ishlatilishi mo'jallanayotgan tabiiy va xududiy jihatdan jismoniy cheklangan resurslarga bog'liq bo'ladi.

Loyiha ko'lamini eng maqbuli uni SKK miqdorini eng katta bo'lgan holatida xisoblanadi. Xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida ko'p qirrali (tomonli) taraqqiyot dasturlari bo'ladiki ular turli sektorlarga va faoliyat turlariga ta'luqlidir. Masalan, qishloq xo'jaligini taraqqiyot dasturi: sug'orish tizimi va memoratsiya; ishlab chiqarish va infrastruktura turlarini rivojlantirish loyihalarini o'z ichiga oladi bunday holda dastur tarkibidagi aloxida kichik loyihalar o'zaro yaqin bog'langan bo'lsalar unda iqtisodiy tahlilda foyda va xarajatlarni har birini alohida xisoblash shart emas va shuning uchun daromad ichki stavkasini xisoblash zaruriyati yo'q. Bunday xolatlarda SKK yoki daromadning ichki stavkasini butun loyiha uchun xisoblash mumkin.

Agar dasturdagi kichik loyihalar bir biri bilan bog'liq bo'lmasa, unda ular aloxida tahlil qilinishi zarur. Masalan, bir necha uchastkalardan tashkil topgan va turli tumanlarga xizmat qiluvchi avtomobil yo'llar uchun, har bir uchastkasi aloxida tahlil qilinishi kerak.

Dastur tarkibidagi loyihalar foydasiga qarab uchga bo'linadi:

1. o'zaro o'rin almashuvchi loyihalar.
2. o'zini o'zi to'ldiruvchi loyihalar.
3. erkin loyihalar.

O'zaro o'rin almashuvchi loyihalar- dastur tarkibidagi loyihalarni birgalikda amalga oshirishdan keladigan foyda, ularni aloxida amalga oshirishda keladigan jami foydadan kam bo'lgan loyihalardir.

O'zini - o'zi to'ldiruvchi loyihalar - dastur tarkibidagi loyihalarni aloxida-aloxida amalga oshirishdan keladigan jami loyihasi, ularni birgalikda amalga oshirilganda keladigan foydadan kam bo'lgandagi loyihalar.

Erkin loyihalar - dastur tarkibidagi loyihalarni aloxida-aloxida amalga oshirilganda keladigan foydalar yig'indisi ularni birgalikda amalga oshirilganda keladigan foydaga teng bo'lgandagi loyihalar.

SHuningdek dastur tarkibidagi loyihalar xarajatlarga nisbatan ham uchga bo'linadi:

1. o'zaro o'rin almashuvchi loyihalarda - umum loyiha xarajatlari aloxida-aloxida amalga oshirilgan loyihalar xarajati yig'indisidan ortiq bo'ladi.
2. o'zaro birini-biri to'ldiruvchi loyihalarda esa, umum loyiha xarajatlari aloxida - aloxida amalga oshirilgan loyihalar xarajatlari yig'indisidan kam bo'ladi.

3. xarajatlar bo'yicha erkin loyihalarda- umum loyiha xarajatlari aloxida - aloxida amalga oshirilgan loyihalar xarajatlarining yig'indisiga teng bo'ladi.

Loyihalarni bunday guruhlarga bo'lish ko'p maqsadli loyiha dasturini kurilishda uni tarkibidagi loyihalarni aloxida amalga oshirish samaralimi? yoki dasturdagi barcha loyihalarni bir biriga bog'liq holda umumiy amalga oshirish samaralimi? degan masalani hal qilish uchun zarurdir.

Loyihaning joylashtirilishi va muxlati - loyihani joylashtirishga turli omillar ta'sir etib ular ichida SKK bosh hal qiluvchi omil xisoblanadi. Loyiha uchun SKK eng yukori darjasini ta'minlovchi joy- bu eng joylashuv o'rindir.

SHuningdek loyihani qabul qilish uni eng maqbul muxlati ham SKK ni eng ko'p beradigan yil xisoblanadi.

8.2. Loyihalarni ishlab chiqishning texnik muammolari

Turli loyihalarda uchraydigan texnik muammolar o'ziga xos bo'ladi. Ammo ayrim muammolar (barcha loyihalarga bo'l-masada) ko'pchilik loyihalarga xos va ularni identifikatsiya qilish mumkin. Bu muammolar kuyidagi kategoriyalarga bo'linadilar: mulk shakli; loyiha ko'lami; amalga oshirish mud-rdtlari hamda texnologiyalarni tanlash va to'plash.

Loyihaning texnik rejasi, ekspluatatsiyasi va menejmenti loyihani kim amalga oshirishiga bog'liq. Qaysi loyihalarni davlat sektori, qaysisini esa xususiy sektor amalga oshirishi kerakligini aniqlash hozirda ancha muammo. CHunki xususiy investorlar infratuzilmalar va kommunal xizmat singari an'anaviy davlat sektorlariga ham kirib borishayapti. Loyiha qaysi sohaga (tarmoqqa) tegishli ekanligi ham mulk shakli-ni tanlashda muhim rol o'ynaydi. Mulk shakli masalasi shu bilan birga loyihaning qanday texnik rejasi tanlanishini belgilab beradi.

Masalan, bir hududni elektr energiyasi bilan ta'minlash loyihasi davlat sektorida bajarilishi tanlansa, u holda yi-rikroq elektrostansiya qurilishi tanlanadi. Xususiy sektorda esa bir necha kichik, o'zaro raqobat qiluvchi elektrostansiyalar qurilishi tanlanishi mumkin. Yirik elektrostansiya qurish karori bunday investitsiyalarda tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgani uchun xususiy investorlar ishtirokini inkor etadi. SHu sababli xususiy investorlarni loyiha ustida ishlashga jalb qilish qarori qanday texnologiyalar tanlanishini belgilab beradi hamda texnologiyalarni oldindan tanlash loyiha dav-lat sektoridagina bajarilishi mumkin, degan xulosaga olib kelishi mumkin.

Loyiha ko'lami va masshtabi deyarli har doim loyihani ishlab chiqish jarayonida aniqlanadigan o'zgaruvchan mikdor-lar bo'lib kelgan. Qishloq xo'jaligi yoki sanoat ishlab chiqa-rish loyihalari ko'lami loyiha mahsulotiga bo'lgan talabga ko'ra belgilanadi. Boshqa hollarda loyiha ko'lami, avvalo, uni amal-ga oshiruvchi muassasalarning yoki ishlab chiqaruvchilarning imkoniyatlariga bog'liq. Ayrim loyihalar ko'lami foydalanish mo'ljallanayotgan hududiy va tabiiy resurslarning cheklangan-ligi bilan belgilanadi. Lekin har qanday sharoitda ham re-jalashtiruvchi idoralarning mavjud sharoitni hisobga olmas-dan katta ko'lamlarni afzal ko'rishlarini cheklash kerak. Taj-ribadan o'tgan texnologik echimlar yo'q bo'lsa, bosqichma-bosqich yondashushsh tanlashga majbur bo'lipadi. Buiday yondashuv tadqi-qotlar va adaptatsiya ishlaridan boshlanadi. SHundan so'ng loyihaning tajriba varianti yaratiladi va u to'plangan tajriba bilan to'ldira borilib, to'liq loyihaga keltiriladi. Moliya-[viy jihatlar, masalan, loyiha amalga oshirilgandan so'ng uni ekspluatatsiya qilishga xarajatlar qilish zarurati ham loyiha ko'lamini belgilashi mumkin.

Loyiha k5'lami masalasiga tahliliy yondashish ham mum-kin. Oddiy qilib aytganda loyiha uchun sof keltirilgan qiy-mat (SKQ) maksimal bo'lishini ta'minlaydigan ko'lam opti-mal bo'ladi. Bunday tahlil o'tkazilishi uchun loyiha bir nechta alohida komponentlarga bo'lib tashlanadi, so'ngra bu kompo-nentlar (o'z xarajatlari va daromadlari bilan birga) texno-logik jixatdan eng kichik bo'lgan bazis loyihaga birlashtiri-ladi. Bundan keyin bazis loyiha hamda komponentlarning har bir kombinatsiyasi uchun SKQ hisoblanadi. Oxirgi qo'shilgan komponent uchun daromadning cheklangan ichki stavkasi diskont stavkasiga teng bo'lmagunga qadar loyihaning izlanayotgan ko'-lami kattalashtirib borilaveradi. Ayni shu lahzada SKQ bu-tun loyiha uchun musbat bo'ladi va maksimal darajaga etadi. Loyiha bundan keyin ham kengaytirilganda qo'shilgan kompo-nentlar uchun daromadning cheklangan ichki stavkasi diskont stavkasidan past, SKQ esa manfiy bo'ladi.

Iqtisodiyotni qayta qurish sharoitida ko‘limga nisbatan bunday yondashuv yirik korxona tarkibida alohida bo‘linma-larni ajratish qanchalik maksadga muvofiqligini aniqlash uchun qo‘llanilishi mumkin. Ko‘pgina rivojlantirish loyiha-lari turli sektorlarga yoki faoliyat turlariga tegishli komponentlardan tashkil topadi. Masalan, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish loyihasi sugorish tizimi va drenajlar, qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan turli ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish, qishloq yo‘llari va ijtimoiy infratuzilma-ning klublar, suv ta‘minoti tizimi, maktab va tibbiyot muassasalari kabi elementlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

SHu tufayli loyiha-ni turli elementlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Maktablar, klublar va tibbiyot muassasalari bir vaziyatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lsa, boshqa vaziyatda hech qanday aloqaga ega bo‘l-masligi mumkin. Agar loyiha komponentlari o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lsa, u holda iqtisodiy tahlilda daromadlar va xarajatlarni komponentlar bo‘yicha taqsimlash hech qanday mazmunga ega bo‘lmaydi. SHu tufayli turli komponentlar bo‘yicha daromad stavkasini aniqlash kerak emas. Bunday holda da-stlab butun loyiha uchun SKQ va daromadning ichki stavkasini aniqlash, so‘ngra loyiha-ni bir yoki bir necha komponentini o‘zgartirib, aytilgan ko‘rsatkichlarni oshirish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash kerak.

Agar loyiha-ni alohida komponentlari bir-biri bilan deyarli borlanmagan bo‘lsa, ular alohida-alohida tahlil qili-nishi kerak.

Loyiha alohida komponentlarining iqtisodiy tahlili.

Loyiha-ni turli komponentlari o‘zaro bir-birining o‘rnini bosadigan, bir-birini to‘ldiradigan yoki mustaqil komponentlar bo‘lishi mumkin.

Agar loyiha komponentlarini birgalikda amalga oshi-rishdan olinadigan manfaat ularning har biri alohida amal-ga oshirilganda olinadigan manfaatlar yig‘indisidan kam bo‘lsa, bunday komponentlar o‘zaro bir-birining o‘rnini bosadigan komponentlar hisoblanadi.

Agar loyiha-ni alohida komponentlaridan manfaat ko‘rilsa, ular o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar dey-iladi. Agar butun loyihadan ko‘rilgan manfaat alohida komponentlardan ko‘rilgan manfaatlar yig‘indisiga teng bo‘lsa, bu komponentlar mustaqil komponentlar deyiladi.

Loyiha komponentlari, shuningdek, xarajatlarga ko‘ra ham o‘zaro bir-birining o‘rnini bosadigan, o‘rnini to‘ldiradigan va mustaqil komponentlar bo‘lishi mumkin. Bir-birining o‘rnini bosuvchi komponentlar uchun umumiy xarajatlar ularni alohida-alohida amalga oshirish xarajatlari yigindisidan katta bo‘la-di. Bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar uchun esa umumiy xara-jatlar ularni alohida-alohida amalga oshirish xarajatlari yirindisidan kichik bo‘ladi. Mustadil komponentlar uchun xara-jatlar miqdori boshqa komponentlar bor-yo‘kligiga bog‘liq bo‘l-maydi. Ko‘pgina ko‘p maqsadli loyihalar xarajatlarga ko‘ra, bir-birini to‘ldiruvchi, daromadlarga ko‘ra esa, bir-birining o‘rnini bosuvchi xdsoblanadi. Masalan, sug‘orish va gidroelektrostansiya uch^t! umumiy turon qurish alohida-aloxdda tugon qurishga nis-batan kam xarajat talab etadi. Lekin elektr energiyasi olish uchun kishda oqizilgan suv sug‘orish uch^^n foydasiz bo‘lsa, yozda surorish uchun elektr energiyasi olish ehtiyojlaridan ko‘proq suv oqiziladi. Suv oqizish miqdori GES talablari uchun ham, qishloq xo‘jaligi talabi uchun ham zarur bo‘lgan optimal miqdordan ko‘p bo‘ladi. Oqibatda alohida loyihadagiga nisbatan kamroq qishloq xo‘jaligi mahsuloti hamda elektr energiyasi ishlab chiqarilishi mumkin. Bunday holatda iqtisodiy tahlil chog‘ida «loyihasiz»

vaziyat sifatida tegishli inshootlarni alohida qurish varian-ti ko‘rib chikilishi kerak.

Alohida loyihalarni iqtisodiy baholash asosi sifatida qo‘llanilishi loyiha-ni alohida komponentlari-ni turli kombinatsiyalari uchun quyidagi natijalarga olib keladi.

Loyihalarning komponentlari bo‘yicha turlanishi

Loyiha komponentlarni	Xarajatlarga nura mustaqpl	Xa ra jatla rga 1;o‘ra bir-bprpmn to‘ldirunchi	Xarg^jatlariga ko‘ra bir-birshshng o‘rippi bosukchi
Daromadlarga ko‘ra mustatsil	Umumnm OKK mustaqml SK1<^1ar yirssdisiga tomg	Umumii SKK muggakpl SKKlar yirssdisidan katta	Umumii SKK mustaqpl SKKlar yirspdpdpdam kichpk
Daromadlarga ko‘ra bir-birshsh to‘ldpruvchn	Umumpi SKQ muetakil (!KKpar nirindisndan kitta	Umumnb SKQ alohida SKKlar yirindisidan katta	Aniqlanmagai natija. Birma-bir solishtirib kurish talab etnladi

Daromadlarga kura bir-birinishg o'rinshsh bosuvchi	Umumii SKK alohpdn SKKlar yngindigndan 1M1CHIK	Lniqlanmagan natnja. Birma-bnr solishtirib ko'rish talab etnladi	Umumiy OKK aloxnda SKQlar yirssdisidai kichik
--	--	--	---

8.3. Loyihani joylashtirish o'rne

Loyihaning joylashish o'rnini belgilovchi omillar tur-li-tuman bo'lib, bu omillarni ham tahlil qilish mumkin. Loy-iha uchun SKQni maksimallashtiradigan joy eng yaxshi hisob-lanadi. Ko'p hollarda joylashish o'rnini tanlash ham loyiha ko'lamini belgilashdagi kabi bir qator jihatlarni hisobga olishni talab etadi. Masalan, sanoat korxonasi xom ashyo ba-zasi yaqiniga yoki boshlang'ich energiya manbai yaqiniga yoxud mah-sulot bozori yoniga yo bo'lmasa tegishli infratuzilmaga yaqin joyda qurilishi mumkin. Har bir variant o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Maksimal SKQni ta'minlaydigan joylashish o'rne tanlanishi uchun bu afzalliklar va kamchilik-lar baholanishi hamda taqqoslanishi mumkin.

Loyihaga kapital qo'yilmalar muddatlari masalasi ham loyihani tayyorlash boskichida alohida ko'rib chiqilishi lozim. Kapital qo'yilmalar muddatlari bilan oog'liq muammolarning ahamiyati loyiha ko'lamini, joylashish o'rne bilan bog'liq mu-ammolarga nisbatan kam bo'lib ko'rinishi mumkin. Loyihalar ba'zida investitsiyalash muddatlarining maqbul (optimal) ekan-ligi to'liq asoslanmasdan qabul qilinadi. Loyiha iqtisodiy va moliyaviy jixatdan samarali bo'lishini ta'minlash uchun,uning mahsulotiga bo'lgan talab, tsxnologiyalar holati, qo'shim-cha kapital kiritish imkoniyatlari etarlicha rivojlanmagan-ligi tu'fayli vaqtidan erta bo'lishi mumkin.

Boshka tomondan loyihaning iqtisodiyotga hissasi va un-dan kelgan manfaat ancha yukrri bo'lishi, muddatidan kechiki-shi ham Mumkin. Ekspluatatsiyaning birinchi yilidagi daromad darajasi, loyihaning alohida komponentlaridan olinadigan cheklangan daromad singari, loyihalarni amalga oshirishning makbul muddatlarini baholash mezonini hisoblanadi. Agar shu yilgi daromad stavkasi diskont stavkasidan past bo'lsa, u hol-da loyiha muddatini kechiktirish sof keltirilgan qiymatning (SKQ) ko'payishiga olib keladi. Optimal (maksimal SKQni ta'minlovchi) muddatda ekspluatatsiyaning birinchi yili uchun daromad stavkasi diskont stavkasiga teng bo'ladi.

Ekspluatatsiyaning birinchi yilida olingan daromad mezonini

Ekspluatatsiyaning birinchi yilida olingan daromad me-zoni birinchi yilda olingan manfaat etarli daromadlilik darajasini ta'minlay olish-olmasligini aniqlash orqali loy-iha muddatlari to'g'ri tanlanganligini tekshirish imkonini beradi. Bunda ekspluatatsiyaning birinchi yilida olingan sof daromad loyihaga qilingan (kurilish davrida io'qotilgan % daromadini qo'shgan xrla) kapital xarajatlar bilan solish-tiriladi.

Agar daromadlarning xarajatlarga nisbati kapital qo'y-ilmalarning muqobil kiymatidan yukrri bo'lsa, loyiha mudda-tidan kechikkan hisoblanadi. Bu mezonni qo'llash SKQni mak-simallashtirish loyiha rejasi bilan ta'minlanganligini aniqlash uchun keng ko'lamli tekshiruv boshlashda birinchi qadam hisoblanadi. Sof daromad (manfaat) birinchi bor kapital qo'yilmalar rentabelliligi ta'minlangan yil SKQ ko'rsatish birinchi bor musbat bo'lgan yilga mos keladi.

8.4. Xarajatlar smetasi.

Xarajatlar smetasi ikki qismdan : asosiy va qo'shimcha ya'ni kutilmagan jismoniy va narxiy o'zgarishlar bilan bog'liq xolatdagi smetasidan iboratdir.

Asosiy smeta loyxani maqsadga muvoffikligini birlamchi asoslanishining bir qismi sifatida tayyorlanadi va uni aniq muxandislik bilan ishlanishi natijasi asosida, uni ishlab chiqilishi vaqtida qiymatini aniqroq baholab beradi. SHuningdek bunday loyihani rejalashtirilgan muxlatda amalga oshirilishi xisobga olingan holda, sotib olinadigan ashyolar va xizmatlarni hajmi va qiymati talab qilinadigan darajadagi aniqlikda bo'ladi va loyihani ishga tushirishda xech qanday o'zgarishlar qilinmaydi. Binobariin, asosiy smetaga loyihani ishga tushirish davrida son va narx o'zgarishlari bo'yicha xech qanday o'zgartirishlar kiritilmaydi. Ular ko'zda tutilmagan xarajatlar smetasi yordamida xisobga olinadi. Bu smeta shunday fizik va narxga tegishli o'zgarishlar xisobga olinadiki ularni asosiy smetani tuzib belganidan to loyihani ishga

tushirguncha kutish mumkin. Xarajatlar to'la smetasi - asosiy va kutilmagan xarajatlar smetasidan tashqil topib u loyihani oxirgi eng maqbul qiymatini ifodalaydi.

Moddiy ko'rsatkichlarni kutilmagan o'zgarishlari. Moddiy ko'rsatkichlarni kutilmagan o'zgarishlari loyiha amalga oshgan sari bajarilgan ish hajmini, sotib olinadigan dastgohlar soni va turini o'zgarishi xisobiga kelib chiqadi va asosiy smetaga qaraganda loyiha bo'yicha kutilgan ko'lamda xarajatlar hajmini, qiymatini aks ettiradi.

Ko'zda tutilmagan xolat sifatida masalan, geologik faol xududlarda kutilmaganda ko'chmalar yoki er qimirlashlar; iqlim sharoitlarini o'zgarishlari, masalan, tez-tez yog'in-sochinlarni bo'lishi, shamol yo'nalishlarini o'zgarishi, loyihani amalga oshirilayotgan xududga qurilish materiallarini etkazib berilishidagi qiyinchiliklar va x.k. Bu kabi turli qo'yilmagan xarajatlar salmog'i jaxon banki tomonidan qabul qilingan tartibda belgilanadi.

- Loyihalarda muntazam ishlatiladigan andozali dastgohlar uchun 5% yoki fuqaro muxandislik inshaotlarida aniqlanish imkoniga ega ish turlari, ya'ni, masalan yo'l qatlamlarini joylashtirish, kanallarni qoplamalar bilan qoplash.

- Agar takrorlanib turadigan va noaniqlikni oldindan aytib beruvchi omillar bilan umumiy fuqaro qurilishi bo'ladigan bo'lsa 10%. Masalan, imorat inshotlari, kuvur o'tkazgichlari, elektr simlari va tekis erlarda o'tkaziladigan yo'l va tuproq qazish ishlari.

- Agar ishlov beradigan korxonalar, inshootlar, murakkabroq erlardagi muxandislik inshootlari, yirik va mayda sug'orish va drenaj inshootlari va tugonlar bo'ladigan bo'lsa 15%.

Basharti moddiy ko'rsatkichlarni kerakli zaxiralarni kutilmagan o'zgarishlari bo'yicha 15-20% dan ortiq bo'lsa loyiha rejasini takomillashtirish tavsiya kilinadi va joylardagi vaziyatni qo'shimcha ravishda noaniqlik darajasini ushbu bitimga davogarni taklif qilinib uni kamaytirish yo'llarini o'rganib chiqiladi. Ba'zan ishlar bo'yicha ko'zda tutilmagan o'zgarishlarni oldindan to'la aytib bo'lmaydi. Masalan, tog jismida yorilgan joy bo'lgan joylarda er osti yo'llarini qazish yoki tog jinsini ko'chishini tuxtalishi qiyin bo'lgan erlarda 50% li ko'zda tutilmagan moddiy omillar uchun zaxiralar o'zini oqlagan deb xisoblanadi.

Narxlarni kutilmagan o'zgarishlari loyihani turli tarkibiy bo'laklarini asosiy xarajatlar smetasi tuzilgandan keyin yuzaga kelgan narxlar o'zgarishi xisobiga bo'ladi va u loyihani kutilgan qiymatini oshirishiga olib keladi.

Narxni kutilmaganda o'zgarishini aniqlash uchun 2 omil xisobga olinadi.

1. Loyihani amalga oshirish muxlati davomidagi maxalliy va jaxon inflyasiyalar darajasi;
2. Ba'zi bir ish va xizmat turlarini maxalliy va xorijiy narxlarini umumiy inflyasiyaga moyilligidan ogishini kutilgan darajasi.

Agar loyiha bo'yicha tuzilgan bitimlarda ishlar bajarilishga yoki dastgohlarga ma'lum narxni indeksatsiyasi ishlatilishi eslatib o'tilgan bo'lsa, unda bu sharoitni xisobga olinadi.

Tavakkalchilik uchun kushimcha xaq to'lash. Loyihada tavakkalchilik uchun qo'shimcha xaq muammoli fizikaviy sharoitlar evaziga to'lanadi. Masalan, loyiha joylashgan joyga uni kirishi murakabligi, transportni yomon ishlashi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, pudratchilarni buyurtma bo'yicha bajarilgan ishlari gayri tabbiy tavakkalchilik tufayli bo'lganda to'lanadi.

Tavakkalchilik uchun to'lanadigan xaqni har qanday qismi, agar buyurtma qabul qilingan va baho belgilangan bo'lsa, unda uning zarurati bulmay qoladi va bekor qilinishi kerak. SHuning uchun smetaga aloxida "tavakkalchilik uchun kushimcha xaq to'lash" ni o'rniga savdoni kutib turish buyurtmani olish ahamiyatliroqdir. Bu esa loyihani moliya bilan ta'min etishdan oldin ishonchliroq xarajatlar smetasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Loyihani texnik tomonini ishlab chiqishda o'z ichiga loyihani amalga oshirish rejasini ko'rsatishni ham oladi. Bunda har bir ko'rsatilgan ishni kim va qachon bajarilishi bayon etiladi.

Loyihani amalga oshirish jadvali aniq, ya'ni loyiha uchun javobgar shaxs va tashqilotlar ko'rsatigan va uni oddiy hamda samarali ishlatiladigan bo'lmog'i lozim aks holda loyihani amalga oshirish reja topshirigi muxlatlarini kechiqishiga, bu o'z navbatida turli bo'limlar orasida noxush kelishmovchiliklar kelib chiqishiga olib keladi. Pirovardida loyihani samarasiga

salbiy ta'sir etadi.

8.5. Loyihani amalga oshirish grafigi.

Loyihaning texnik jihatlarini ishlab chiqish hech bo'lmaganda loyihani amalga oshirishning kim, nimani va kachon bajarilishi ko'rsatib o'tilgan dastlabki rejasini tuzishni o'z ichiga olishi kerak. Bunday faoliyat ba'zida tarmokli tahlil yoki kritik yo'l uslubida tahlil deb yuritiladi. Oxirgi atama dastur-larni baholash va izohlash uslubi kabi murakkab tizimlarni o'z ichiga oladi. Bu tizimlar bir tadbir boshlanishidan oldin tugallanishi kerak bo'lgan yoki belgilangan muddatda tugallanmay qolishi butun loyiha bo'yicha ishlarning kechikishiga olib keli-shi mumkin bo'lgan tadbirlarni aniqlashga mo'ljallangan. Bu tizimlar yirik fuqaro inshootlarini o'z ichiga olgan loyiha-larni rejalashtirishning samarali vositasi bo'lsa-da, boshka loyihalar uchun tadbirlar ketma-ketligini belgilovchi va izoh-lar bilan to'ldirilgan oddiy kalendar rejalari ham etarli xdsoblanadi. Har ikkala holda ham o'z vaqtida bajarilishi loyihani amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlarni aniqlash va ularni tugallashga etarli vaqtni ta'minlashi kerak. Bu tadbirlarni etarli darajada rejalashtirmaslik oqibatida loyihani rejalashtirish muddatlari cho'zilib ketishi mumkin.

Loyihani amalga oshirish bo'yicha ishlar grafigi real, ya'ni tashkilot va shaxslarning imkoniyatlari darajasiga asoslangan bo'lishi shart. Haddan ortiq optimistik grafiklardan foydalanish salbiy natijalarga, operativ rejalashtirishning izdan chiqishi, ishlar rejadani orqada qolganda turli tashkilotlar o'rtasida kelishmovchiliklarga olib keladi. Bundan tashqari ishlar grafigi noreal tuzilganda iqtisodiy va moliyaviy tahlilda noto'g'ri xulosalarga kelishga sabab bo'ladi.

8.6. Tijorat tahlilining vazifasi.

Ma'lumki har qanday loyihani muvaffaqiyati va barbod bo'lishi istemolchi va foydalanuvchilarga bevosita bog'liqdir. SHu boisdan tijorat tahlili loyiha tahlilida hal qiluvchi rol o'ynaydi. CHunki, tijorat tahlilining asosiy maqsadi loyiha taklif etadigan mahsulot va xizmatning bozorini kelajak nuqtai-nazaridan baholashdir. SHuningdek, loyihani mahsulot ishlab chiqarish masalasi, uning mahsuloti uchun ko'zda tutilgan bozorni har tomonlama tahlil qiladiki, ko'rsatilgan mahsulot uchun samarali talabni va foydasi katta narxni ta'minlashdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda tijorat tahlili loyihani ishlab chiqarish va mahsulotini sotish bo'yicha barcha tadbirlarni baholashdir.

Tijorat tahlilida loyihani quyidagi savollar bo'yicha batafsil ko'rib chiqiladi.

1. Mahsulot qayerda sotiladi?
2. Narxlarini o'zgarishida loyiha moliyaviy nuqtai-nazardan yashash qobiliyatini saqlab qoladimi?
3. Bozorni hajmi loyihani ta'minlaydimi?
4. YAngi mahsulot ishlab chiqarishini o'zlashtirish uchun ishlab chiqarish quvvatlari mavjudmi?
5. Loyiha quvvati darajasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotni qayta ishlash va marketinggi uchun yangi loyiha yaratish kerak bo'ladimi?
6. Ishlab chiqiladigan mahsulot ichki iste'molgami yoki eksportga mo'lajallanganmi?
7. Ishlab chiqaradigan mahsulot sifati va navi ichki va jaxon bozori talabiga mosmi?
8. Loyiha amalida marketingni moliya bilan ta'minlashda qanday maxsus choralar ko'rilishi talab etiladi?
9. Loyiha talab qiladigan resurslarni kerakli muddatda ta'minlashni etarli imkoniyatlariga egami?
10. Loyiha uchun kerakli resurslarni etkazib beruvchilarni moliyaviy holati qanday? Ishlab chiqaruvchilarni ushbu resurslarni sotib olish uchun kredit bilan ta'min etilishichi?

YUqorida bayon etilganlardan ko'rinib turibdiki loyiha tahlilida tijorat tahlil muhim ahamiyatni kasb etadi. U loyiha mahsulotiga bo'ladigan talabni so'ngra kelajak narxlarini, kelajakdagi talabdan kelib chiqqan holda, oldindan bashorat qiladi.

Loyiha mahsulotiga bo'ladigan talab tahlilini loyiha potensialini baholash zaminida yotgan bo'lsa ham ko'pchilik xollarda ushbu tahlilni o'tkazish o'ziga xos nuqsonlarga ega. Ba'zida talab kelajagining bashorati (prognozi) har qanday bilimdonlik bilan o'tkazilsa ham tez-tez xatoliklarga yo'l qo'yish mumkin. Ayniqsa, o'zoq muddatli oldindan bashorat qilishlar juda katta xatoliklarga olib kelishi mumkin.

SHunga qaramasdan bugungi kunda shunday qaror qabul qilish kerakki u o'zoq muddatli kelajakga ega bo'lsin. Masalan, transport loyihasi yoki sanoat korxonasi ko'rish loyihasi katta kapital mablag'lar kiritilishini talab qiladi va katta ko'lamga egadirlar. Loyiha ko'lamini muxlatini yoki joylashgan mintaqani tanlashda yo'l qo'yilgan xato qimmatga tushishi muqarar. Bu kabi loyihalar bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida talabni oldindan bashorat qilish muhim o'rin egallayd

Mavjud ma'lumotlarni noaniqlik darajasiga qarab bashorat bo'yicha mutaxassis bitta ehtimoli talabni muqobil narxlanishlarni tuzishi, muhim noaniqliklarni xisobga olgan holda kelajak vaziyatlarni aks ettiruvchi keng bashoratni taklif etishi yoki ssenariyasini ishlab chiqishi mumkin. Turli bashoratlardan foydalanish loyiha tahlilining moliya yoki boshqa bo'limlariga xilma xil kelajak shartlarini va kutilgan natijalar uchun zarur bo'lgan taxminlarni aks ettirish imkonini beradi.

Talab bashoratiga loyihani tayyorlash va uni ko'rish va boshlangich davridagi ishlatilishida vaqti vaqti bilan tuzatishlar kiritilib turilishi kerak bo'ladi, bu bashorat bilan aniq vaziyat oraligidagi o'zilishni kamaytiradi.

8.7. Talab va taklif tahlili.

Talab va taklif tahlili. Ma'lumki, har doim bozorda tovarning narxi va bu tovarga bo'lgan talab miqdori oraligida ma'lum nisbat mavjud bo'ladi. Narx va sotib olingan tovar soni oraligidagi nisbat talab jadvali yoki talab eg'ri chizig'i deb nomlanadi. Bundan shu xulosani ko'rish mumkinki, agar narx yuqori bo'lsa loyiha mahsulotiga talab kamayadi, aksincha narx past bo'lsa loyiha mahsulotiga talab ortadi.

Loyiha mahsulotiga bo'lgan talabga uning narxidan tashqari quyidagi omillar ham ta'sir etadi:

1. Iste'molchilarni o'rtacha daromadi. Daromad oshgan sari xalqning barcha mahsulotlarga bo'lgan talabi oshib boradi.
2. Bozor ko'lam. Bozor ko'lam qancha katta bo'lsa talab shuncha ko'p bo'ladi, va aksincha. Masalan, katta shahardagi bozorda kichik shahardagi bozorga nisbatan mahsulotga bo'lgan talab yuqoridir va aksincha.
3. Bir-birini to'ldiruvchi, o'rin bosuvchi tovarlar narxi.
4. Iste'molchilarning didi va mahsulotni sifati.
5. Aloxida sharoitlar. Masalan, ob-havo, kelgusi iqtisodiy sharoitlar va boshqalar.

Mahsulotning narxi va uning bozorga kelib tushgan soni oraligidagi nisbat taklif jadvali yoki taklif egri chizigi deb nomlanadi. Narx o'sishi bilan ishlab chiqaruvchilar mahsulot ishlab chiqarishni va uni sotilish hajmini ko'paytirishga intiladi, narx pasayishi bilan esa aksincha.

Mahsulot taklif jadvaliga narxdan tashqari quyidagi omillar ta'sir etadi.

1. Ishlab chiqarish xarajatlarni pasayishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini orttiradi, ya'ni mahsulot taklifini ko'paytiradi.
2. Ishlab chiqarishga ser unum texnika va texnologiyalarni qo'llash.
3. Ishlatiladigan resurslar va xom ashyo narxining o'zgarishi.
4. Bozorda faoliyat ko'rsatayotgan firmalar soni.
5. Takomillashgan raqobat.

YUqorida bayon etilgan omillarning o'zgarishi taklif hajmini har bir bozor narxi uchun o'zgarishiga olib keladi.

Nazorat va mulohaza savollari

1. Loyihalarni texnik tahlil qilishning vazifalarini tushuntirib bering.
2. Ko'p komponentli loyihalarga misol keltiring. Ko'p komponentli loyihalarda loyiha ko'lami qanday aniqlanadi?
3. Bir vaqtning o'zida bir-birining o'rnini bosuvchi vadaromadlarga ko'ra bir-birining o'rnini to'ldiruvchi komponentlarda umumiy SJQ mustakil SKQ yig'indisidan kattami yokikichikmi?
4. Loyihani joylashtirish o'rnini qaysi mezonlarga ko'ratanlanadi?
5. Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlari loyihaga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Loyihani amalga oshirish ishlari grafigining ahamiyatini ochib bering.
7. Tijorat tahlilining vazifasi nima?
8. Talab va taklifning mohiyatini bayon qiling.

9-modul. EKOLOGIK TAHLIL

R E J A

- 9.1. Ekologik tahlilning mohiyati, vazifasi
- 9.2. Ekologiya bo'yicha loyiha smeta xujjatlarini tayyorlash.
- 9.3. Atrof-muhitni ximoya qilishning iqtisodiy tahlili.
- 9.4 Atrof-muhitni ximoya qilishga sarflanadigan mablag'larni qoplash manbalari

9.1. Ekologik tahlilning mohiyati, vazifasi

Insonlarning o'ziga xos xususiyati shundaki ular o'zlarni cheksiz ehtiyojini qondirish uchun tinimsiz harakat qiladilar. Bunda fan texnika taraqqiyotiga (FTT) suyanib, uning yutuqlaridan keng foydalanishga harakat qiladi. FTT esa amaldagi ekologik muvozanatga ta'sir etadi. Ko'p xollarda u salbiy bo'ladi. SHu boisdan har qanday loyihani ekologik tahlil qilish juda muhimdir, CHunki gap kishilarni o'zlari yashab turgan atrof muhit xaqida bormoqda.

Loyihani ekologik tahlilining asosiy vazifasi loyihani amalga oshirish tufayli atrof muhitga etkaziladigan zararlarni aniqlab, uni yo'l qo'yiladigan darajagacha pasaytirish yoki bartaraf etish tadbirlarini tahlil qilishdir. Atrof muhitni o'zi kapital xisoblanadi: undan keladigan foyda va uni xizmati-daryo oqimi va tuproqlarni himoyalash, ifloslovchi vositalarni chirishi-iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantiradi va qo'llab quvvatlaydi. Noto'g'ri rejalashtirilgan taraqqiyot jarayoni milliy kapitalni emirilishiga, uni qimmatini pasayishiga olib keladi.

Ekologik boshqaruvni vazifasi odamlarni tabiiy resurslarga bo'lgan talabini (hozir va kelajakda) qondirish va atrof muhitni bu talabni bajarilishidagi kobiliyati oraligidagi balansni belgilashdan iboratdir.

Loyiha tahlilida atrof muhitga keltiradigan zararlarni qoplash uchun belgilangan tadbirlardan ko'ra, uni oldini olish tadbirlari bo'lishiga aloxida e'tibor berilmog'i zarur. CHunki, etkazilgan zararni qoplashdan ko'ra, uni oldini olish muhim va arzonroqdir. SHu boisdan har qanday loyihani yoki taraqqiyot dasturini ekologik tahlil qilinmogi zarur. Agar loyiha samarali bo'lib u atrof muhitga jiddiy zarar keltirsa, unda loyihani qayta ishlash zarur. Bordi-yu qayta ishlash xatarni kamaytirmasa unda loyihadan vos kechmoq kerak.

Xavfsizlikning kichik me'yorlari va himoyalash kafolatlari.

Xavfsizlikning kichik me'yorlari deyilganda-odamlar hayoti va sog'ligi xavfsizligining me'yori belgilash, maxsus ajratilgan xududlarni himoyalash (xiyobonlar, saylgohlar, ko'rikxonalar) va boshqalar xaqida kat'iy belgilangan tartib hamda me'yoriy ko'rsatkichlar

tushuniladi. Xalqaro kelishuvga binoan loyihalar qo'shni davlatlar ekologiyasiga ta'sir etadigan bo'lsa ular bilan tuzilgan bitimga binoan ulardan tegishli ruxsatnomasiz amalga oshirilmaligi zarur. Biroq bu qoida xali keng taraqqiyotga ega emas. Masalan, Tojikistonning Tursunzoda rayonidan qurilgan alyumiiy ishlab chiqarish korxonasi unga qo'shni bo'lgan O'zbekistonning Surxondaryo viloyatining Sari osiyo rayoni ekologiyaiga katta salbiy ta'sir etmoqda.

Amaliyotda ma'lum darajada ekologik degradatsiyaga (yomonlashishga) ham ruxsat bo'lishi mumkin, qachonki u kishilar hayotiga va tabiatiga katta ta'sir etmasa. Masalan, qishloqqa yaqin joyda temir yo'l o'tkazish bunda temir yo'l shovqini kishilar ruxiyatiga salbiy ta'sir etadi. Buning uchun qishloq axolisiga zararni qoplashi uchun to'lov to'lanadi. SHuningdek suv ombori, GES ko'rish uchun ma'lum bir axolini kuchirilishi mumkin, buning uchun kam to'lov amalga oshiriladi

Atrof muhitni himoyalash bilan bog'liq xarajatlar turli tarmoqlarning loyihalarida umumiy xarajatni 3-5% atrofida bo'ladi.

Ekologik muammolarni eng yuqori samaradorligi uchun loyiha-smeta xujjatlarida ekologik zararni oz xarajatlar bilan xal qilinishini aks ettirilishi lozim. Masalalarni aniqlash davrida va loyihani tayyorlanishida, ekologik "razvedka" tavakkalchilik va imkoniyatlarni aniqlab berish va atrof muhitni himoyalashga asoslangan qonunlar bo'yicha ixtisoslashgan ekolog va yuristlar yordamida kerakli ish rejasini tuzish zarur. Bunda ishlabchiqarish rejalari, loyihani amalga oshirish va baholash atrof muhit uchun imkonli oqibatlarni, ularni ogohlantirish chora tadbirlarini o'z ichiga oladi. Ba'zi bir jiddiy ekologik oqibatlarga ega loyihalar uchun bosh institut doirasidagi, atrof muhit monitorligi uchun javobgar, loyihani amalga oshiruvchi tashkilot va uni aloxida bo'limi bo'lishi samarali choradir.

Ba'zan bir loyihani amalga oshirishni unga aloqador bo'lgan boshqa bir loyiha bilan birgalikda olib borishni taqazo etadi. Masalan, yangi erni o'zlashtirish loyihasi uni er osti suvlarini ko'tarilishini bartaraf etuvchi loyiha bilan birga amalga oshirilgandagina samarali bo'ladi. Aks holda katta zarar keltiriladi.

Atrof muhitni himoya qilishning ekologik tahlili. Amalda loyihaga atrof muhitni himoya qilish tadbirlarini kiritilishi iqtisodiy va ijtimoiy foydani oshirib xarajatlarni pasaytiradi.

Loyihalar ichida ekologik loyihalarni iqtisodiy samarasini andozaviy tahlilini o'tkazishni ko'pchilik xolatlarda imkoni bo'lmaydi. Ekologik g'oyaga ega loyihalarni baholashda ham eng kam xarajat xisobiga eng ko'p foyda olinishi asos qilib olinadi. SHuningdek diskontlashtirilgan xarajatlar va "Loyiha bilan" "Loyihasiz" vaziyatlarni solishtirilgandagi daromadlar daromadni ichki stavkasi kabi ko'rsatkichlar bilan tahlil etiladi. Biroq o'zoq vaqtlar evaziga aniqlanuvchi ekologik xarajat va daromadlar bilan bog'liq muammoni oldindan bashorat qilish va o'zgartirish ancha mushkildir.

Tabiyat muhiti faqat ma'lum resurslar manbai bo'lib kolmay, balki u turli ekologik xizmatlarni ham bajaradi. Masalan, daryolar suv oqimini ta'minlash, tuproqni tiklanishi, ifloslantiruvchi moddalarni chirishi, iqlimni tartibga solish vazifalarni bajaradi. Bunday vazifalarga ko'pchilik xollarda etarli diqqat e'tibor berilmaydi, ularni qiymati yaxshi baholanmaydi, chunki ularni jamiyatni tovari xisoblanib bozor narxiga ega bo'lmay kelgan. SHu sababli bunday xizmatlarga etkaziladigan zararni o'lchash juda mushkil bo'lsa ba'zida esa butunlay mumkin emas.

Ekologik muvozanatni bo'zish natijasida insonlar sog'ligiga etkazilgan oqibatlarni o'lchash juda qiyin bo'lib ular havo saviyasini yoki ichimlik suv sifatini pasayishi xisobiga yuzaga keladi. Bu kabi oqibatlarini ba'zi birlarini qiymatini kasalxonalaridan olinadigan statistik ma'lumotlar yoki shifokorlarni gonorarlari asosida ozmi ko'pmi baholash mumkin; xalqni majburiy ko'chirilishi bilan bog'liq xarajatlarni ham o'lchash mumkin. Ammo ko'pgina xarajatlarni o'lchash imkoni yo'q va salbiy oqibatlar qurbonlari odatda xech qachon amaliyotda biror nima bilan qoplanmaydi.

Odatda ekologik tahlilda loyihani atrof muhitga chiqarayotgan zararli chiqindilari miqdorini eng kam me'yoriga nisbatan farqiga qarab baholanadi. Agar zararli chiqindi eng

kichik me'yoridan ortiq bo'lsa uni bartaraf etish miqdoridagi to'lov belgilanadi va shu asosida ekologik muvozanat tartibga keltirilib beriladi.

Agar tabiatga etkaziladigan zarar beqiyos bo'lib uni qoplash imkoni yo'q bo'lsa, ya'ni tabiatga to'zatiq bo'lmas zarar keltirsa bunday loyihalardan vos kechish darkor.

Qoidaga binoan begona shaxslarni jabirlanishiga javobgarlar buning evaziga xaq to'lashga majburdirlar. SHunga qaramasdan ko'pchilik xokimiyatlar ifloslanganlik uchun javobgarlardan atrof muhitni himoyalash tadbirlarini to'la qiymatini undirib olish o'rniga, aksincha, amaldagi korxonalarda tozalash jixatlarini o'rnatishni yoki bu korxonalarini yangi, yoki amaldagi normativlarga rioya qilish bilan bog'liq xarajatlarni oshishini subsidiyalaydi. Bu xol ba'zan samarasiz investitsiya loyihasini qabul qilishni taqdirlashdir. SHuning uchun sof ekologik maqsadlarga oid xarajatlarni oddiy ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki uni samaradorligini oshirish bilan bog'liq xarajatlardan farqlanishini bilmog' kerak va shu asosda qaror qabul qilinishi zarur. Bu masalani ijobiy xal etishda to'siq bo'layotgan sabablardan biri ekologik bilimga ega kadrlarni etishmasligidir. SHuning uchun bu boradi ishlarni jadallashtirish kelgusida loyihalarga ekologik baho berishni yuqori darajaga ko'tarishga imkon beradi.

9.2. Ekologiya bo'yicha loyiha smeta xujjatlarini tayyorlash.

Atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarini ko'zlash loyiha- smeta xarajatlarida o'z aksini topadi. Iqtisodiy ri-vojlantirish muammolarini insonlar tomonidan ilmiy o'rganish kuchayishi bilan, loyihacharning ekosistemaga ta'sirini juda bo'lmaganda minimal xavfsizlik me'yor darajasiga tushirish imkoni paydo bo'ladi. Bu me'yorlarga inson salomatligiga bo'l-gan xavf darajasi, atrof-muhitga zararli moddalarni chiqarish me'yorlari va boshqalar misol bo'ladi. Loyihalar ekosistemani muhofaza qilish bo'yicha chet el mamlakatlari bilan tu-zilgan shartnomalar buzilishiga olib kelishi kerak emas.

Ayrim hollarda loyiha ta'sirida ekologik holat salbiy tomonga qarab o'zgarishi va bunga ruxsat berilishi ham mum-kin. Masalan, aholi joylashgan joy yaqiniga temir yo'l qurish loyihalashtirilsa va bu loyiha amalga ohsa, shovqin ko'payadi hamda bu aholi yashash tarziga salbiy ta'sir etishi mumkin. Loyihada bu salbiy ta'sirni bartaraf qilish yo'llari bo'lishi kerak. Buning uchun aholini boshqa joyga ko'chirish (bu esa juda qiyin, chuiki odamlar o'zlari o'rganib qolgan joylardan, yaxshiroq sharoit yaratib berilishiga qaramasdan, ko'chishga ro-zilik bermasliklari mumkin) yoki shovqinni kamaytiradigan, yaxshisi, umuman yo'krtadigan moslamalarni uylarga o'rnatigp kerak. Bu, albatta, qo'shimcha xarajatlarga olib ksladi. Undan tashqari ayrim vaqtlarda aholini kompensatsiya berish yo'li bilan ham rozi qilish mumkin. Masalan, elektrogapsiya qurish loyihasi amalga ohsa, kompaniya egalari atrofda yashovchi aho-liga elektroenergiyani tekinga berishni o'z bo'yniga oladi.

Ayrim hollarda loyihalarni amalga oshirishda vujz^dga keltiriladigan ekologik xavfni bartaraf qilish juda oson, ayrim hollarda esa juda murakkab kechadi. 1970 yildan bosh-lab, Jahon banki hamma investitsiya loyihalarining ekosiste-maga salbiy ta'sirini tahlil qila boshladi. 1971-1980 yil-lar ichida 1342 loyihani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ulardan 845 tasi yoki 63%i ekologik jihatdan bexatar loyi-halar, 365 tasi yoki 27%i ekologik muammolarni engil hal kilsa bo'ladigan loyihalar ekan. 22 loyiha bo'yicha loyihalarni qayta ko'rib chiqish tavsiya etildi va 110 ta loyiha ekosistemaga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosa berildi. Bu loyihalar bo'yicha maxsus maslahatchilarning maslahati zarur. Ekologik ta'sirni bartaraf kilish muammosi investitsiya oldi bosqichida hal qilinishi kerak, shunda bu jarayonga qilinadi-gan xarajatlar eng kam miqdorda bo'ladi. Umuman, loyihalar-ni ishlab chiqish va amalga oshirish xarajatlarida atrof-muhitni himoya qilish xarajatlari taxminan 5% ini tashkil etadi. Jahon bankining atrof-muhitni himoya qilish bo'limi loyihalarining turli kategoriyalari uchun maxsus qo'llanma yarat-gan bo'lib, u loyiha tahlili bilan shueullanadigan mutaxassis-lar uchun tavsiya etiladi. Tajribada eng ko'p sodir bo'ladigan va atrof-muhit uchun katta ziyon etkazadigan omillar havo-ning buzilishi, suvga zararli moddalarning oqizshshshi va bosh-qalar hisoblanadi. Umuman, ekosistemaga loyihalarining ta'siri har xil bo'ladi.

9.3. Atrof-muhitni ximoya qilishning iqtisodiy tahlili.

Umuman olganda, loyihalarni ekologik tahlil qilish uchun sarf etilgan xarajatlar unchalik katta emas, lekin ularni o'tkazmaslik, ya'ni loyihada ekologik xavfni e'tiborga olmaslik keyinchalik juda katta xarajatlarga olib kelishi mumkin. Ekologik xavfni standart tahlil qilish uslubiyati mavjud emas. Ekologik loyiha va ekologik tadbirlarni o'z ichiga olgan loyihalar natijasi kapitalni boshqa muqobil loyihalarga jalb etishdan olinadigan natijalardan yuqoriroq bo'lishi kerak. Darhaqiqat, ekologik loyihalarni iqtisodiy tahlil qilish umuman loyihani iqtisodiy tahlil qilishdan farq qilmaydi. Muammo shundan iboratki, ekologik loyihalarning natijasi juda kech namoyon bo'ladi, shuning ularni oldindan bashorat qilish va o'lchash juda murakkab.

Tabiiy muhit faqatgina tabiiy resurslarning manbai bo'lib qolmasdan, shu bilan birga u har xil ekologik xizmatlar ham ko'rsatadi (tuproqni tiklash, chiqindilarni chiritish va h.k.). Tabiatning bu vazifalariga ko'pincha etarli e'tibor berilmaydi, chunki ularning bozor bahosi mavjud emas. Suv va havoning ifloslanishi natijasida odam organizmidagi o'zgarishlarning salbiy oqibatlarini statistik ma'lumotlar yordamida taxminiy aniqlash mumkin bo'lsada, bu ham ancha kiyni kechadi. SHuning uchun ko'p hollarda bu zararlarni aniqlash uslubi bo'lmaganligi sababli bunday holatdan zarar ko'rgan odamlar tovon puli olmay qoladilar.

Ayrim hollarda xarajatlarni hisoblash vaqtida bilvosita uslublardan foydalanish mumkin. Masalan, Braziliyada kanalizatsiya tarmog'ini vujudga keltirish atrofidagi er va binolar bahosini oshiradi, ya'ni boshqa mahsulotlar bahosi bilan ekologik tadbirlarga ketgan xarajatlar aniqlanadi. Loyihalarni amalga oshirish natijasida um)TUlari tiklab bo'lmaydigan tabiat va uning elementlarini baholash deyarli amalga oshirib bo'lmaydigan eng qiyin hodisadir.

9.4. Atrof-muhitni ximoya qilishga sarflanadigan mablag'larni qoplash manbalari

Ekologik loyihalar xarajatini umumiy loyihadan foyda ko'radigan shaxslar krplashi kerak. Agar loyiha davlat tomonidan ro'yobga chiqarilsa, xarajatlar manbai davlat byudjeti hisoblanadi. Lekin masalaga bunday yondashning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Masalan, pirovardda ekologik loyiha tufayli kim manfaatdor ekanligini aniqlash juda qiyin, undan tashqari loyihaning maqsadi yo'krtilgan yoki buzilgan ekologik elementlarni tiklash yoki xavf oldini olish bo'lishi mumkin. Bunda yutuk to'g'risida fikr yuritilmaydi. Agar metallurgiya kombinati atrof-muhitni bo'lg'ayotgan bo'lsa, ekolo-gik xavfni bartaraf qilish harajatlarni o'z bo'yniga olishi kerak. Sel xavfidan saqlanish uchun kanal qurilishi xarajatlarining manbai davlat byudjetidir.

Atrof-muhitni ifloslanishdan asrash uchun kurash ruxsatnomalar va litsenziyalar olish tartibini joriy etish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Korxonalar tashqi muhitga ma'lum miqdorda zararli moddalar chiqarishi uchun litsenziya oladilar. Buning uchun zaharli moddalarni atmosferaga chiqarish, vaqt birligida suvlarga oqavalarni tashlash me'yorlarini vujudga keltirish zarur.

Bu me'yorlar hamma turdagi korxonalar uchun umumiy qilib tuzilganligi uchun ham yaxshi samara bermaydi. SHuning uchun tajribada har xil sohadagi korxonalar uchun alohida me'yorlar belgilanadi. Individual me'yorlar korxona turgan rayon-ga qarab o'zgarishi mumkin. Tadbirlardan yana biri atrof-muhitning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan korxonalarga jarima solish hisoblanadi. Jarimalar tizimini puxta o'ylab vujudga keltirish atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlab qoladi.

Jahon banki tomonidan amalga oshiriladigan loyiha-lar asosan individual me'yorlarga asoslangan. Ayrim mamlakatlar tajribasida me'yordan yuqori bo'lgan chiqindilar savdo-sotig'i amalga oshiriladi. Masalan, shaharlarda havoga zaharli moddalar chiqarishni kamaytirishda ana shunday tadbir qo'llaniladi va bu ijobiy natijaga olib kelgan. SHaharlarda joy-lashgan korxonalarga havoga ma'lum miqdorda (shaharni o'rtacha ifloslash darajasiga unchalik ta'sir etmaydigan miqdor-da) zaharli moddalar chiqarish uchun ruxsat berilgan. Aytaylik, yo bir korxona yangi texnologiya joriy qilish yo'li bilan havoga zaharli moddalar chiqarishni ma'lum miqdorda kamaytirdi. Qolgan korxonalar bu korxonadan ortiqcha chiqarilgan zaharli moddalarni

sotib olishlari kerak. Bunday hol boshqa korxonalarni ham yangi, ilg'or texnologiyalarni tatbiq qilishga undaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ekologik tahlilining mohiyati va vazifasini tushuiti-rib bering.
2. Loyihalarning salbiy ekologik oqibatlarini bartaraf qilishning kandy yo'llari bor?
3. Atrof-muhitga ta'siri to'liq va qisman tahlil qili-nishi zarur bo'lgan loyihalarning turlarini sanab o'ting.
4. Loyihalarning ekologik oqibatlarini iktisodiy baholash muammolari nimada?
5. Ekologik loyihalar xarajatlarini qoplash manbalariga izoh bering.
6. Normativdan yuqori bo'lgan chiqindilarni sotib olishtajribasining mohiyati nimada?

10-modul. IJTIMOIIY TAHLIL

R E J A

- 10.1. Ijtimoiy tahlilning mohiyati va tarkibiy qismlari.
- 10.2. Axolining ijtimoiy-madaniy va demografik xususiyatlari.
- 10.3. Loyiha va maxalliy madaniyat talablari
- 10.4 Loyihalardan manfaatdorlikni ta'minlash masalalari.

10.1. Ijtimoiy tahlilning mohiyati va tarkibiy qismlari.

Har qanday loyiha samarali amalga oshirilishi uchun ijtimoiy tahlilning ahamiyati katta. Loyihaning taklif etilayotgan u yoki bu varianti aholining maqsadli guruhi manfaati talablariga javob berishi yoki bermasligini aniqlash ijtimoiy tahlilning vazifasi hisoblanadi. Ijtimoiy tahlil loyiha va u yo'naltirilgan ijtimoiy guruhning o'zaro muvofiq kelishini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni taklif etadi. SHuningdek, ijtimoiy tahlil aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigats hamda jamoatchilik srikri va qarashlaridagi o'zgarishlarni rag'batlantirish yo'li bilan loyiha maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan loyiha strategiyasini belgilaydi.

Ijtimoiy tahlil qilinmagan loyiha mazmuniga uni ishlab chiqaruvchilarning madaniy qarashlari loyiha mo'ljallangan kishilarning madaniy qarashlariga nisbatan ko'proq ta'sir ko'r-satadi, Ijtimoiy tahlil loyiha tahlilishshg boshkd turlari bilan birga o'tkazilishi kerak. Loyiha tahlilining boshka turlari singari ijtimoiy tahlil ham indentifikatsiya bosqichida boshlanib, loyiha davrining keyingi har bir bosqichida davom etishi kerak.

Ijtimoiy tahlil to'rt asosiy sohaga e'tiborni jamlay-di. Bular:

1. Loyihaga ta'sir ko'rsatadigan aholining ijtimoiy-madaniy tavsifi, miqdoriy tavsifi va ijtimoiy tuzilmasibo'yicha tahlil.
2. Loyiha amal qiladigan hududdagi aholi tomonidanishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, shu jumladan, oilalar, uy xo'jaliklari t}tuzilmasi, ishchi kuchining mavjudliligi, erga egalik qilish shakllari, resurslardan foydalanish imkoniyati va ulardan foydalanishni tartibga solish masalalaritahlili.
3. Loyihaning mahalliy madaniyat nuqtai nazaridan ta-labga javob berishi, xususiy loyihaning mavjud ijtimoiy me'yorlarga moslash}tvchanligi, kishilarning qarashlarida, o'z ehtiyojlarini anglashlarida zarur o'zgarishlar yasashga krbilligi.
4. Loyihadan uni amalga oshiruvchi tashkilot hamda mahalliy aholi manfaatdorligini ta'minlash strategiyasi. Bundan maqsad aholi va tashkilotlarning loyihaning barcha bosqichlarida uzluksiz ishtirokini ta'minlashdir.

10.2. Aholining ijtimoiy-madaniy va demografik xususiyatlari.

Ijtimoiy tahlilning birinchi bosqichi loyiha yo'naltirilgan aholi guruhi, uning miqdori va tarkibini aniqlashdan ibo-rat.

Loyiha yo'naltirilgan aholining turmush tarzi ko'pincha uni ishlab chiquvchi kishilarning turmush tarzidan farq qiladi. SHu tufayli rejalashtirish jarayonlariga mahalliy aholi jalb etilmasa, loyiha mahalliy sharoitga mos kelmasligi mumkin. Mahal-liy sharoitlarni bilmaslik, bu to'g'rida bir guruh shaxslar, xusu-san, yo'lboshchilarning intervyu yo'li bilan olingan fikriga ko'ra ish yuritish aholi ko'pchilik tabaqalari qarashlarining e'tibo-ridan chetda qolishiga olib keladi.

SHahar hamda qishlok joylaridagi oilaviy xo'jaliklar tarkibi to'g'risida to'g'ri tassavurga ega bo'lish ham katta kuch talab etadi. SHahar joylari uchun mo'ljallangan ayrim loyihalarda bu erlarda oila a'zolari qishloq joylarida muhim rol o'ynovchi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimidan butunlay aloqasini uzgan deb qaralgan. Aslida kam ta'minlangan shahar oilasi tez o'zgarib turuvchi ijtimoiy koalitsiya hisoblanadi. Iqtisodiy va siyosiy sharoitlar o'zgarishi ta'sirida bu oila bolalari bir uy xo'jali-gidan boshqasiga o'tib turadilar, boshqa a'zolari esa boyroq qarindoshlarinikiga ko'chib o'tadilar. Bunday o'zgarishlar oila a'zola-ri sonining o'zgarib turishiga moslasha oladigan uy-joy maydonini talab etadi.

Ko'pchilik shahar oilalari o'z daromadlarining kattagina qismini karindoshlaridan yordam tariqasida oladilar. SHunday yo'l bilan ijtimoiy himoya tizimi yaratiladi va minimal zarur iste'mol darajasi ta'minlab turiladi. Uy-joy qurilishi loyi-halashtirilganda bu jihatlar e'tiborga olinishi kerak. Agar loyiha aholini ko'chirishni ko'zda tutsa, ularning ijtimoiy madaniyati va demografik xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur. Majburiy ko'chirish o'ziga xos ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. U ojizlik, begonalik tuyg'ularini tug'diradi hamda ijtimoiy birdamlik va guruh ishlab chiqarish potentsiali pasayishiga olib keladi.

Ko'chirish dasturlari uy-joy bilan ta'mishyush, tovon puli to'lash, ishga joylashtirish tadbirlari bilan bir qatorda, kishilarga ularning turmush darajalari yaxshilanishini kafolatlashi kerak.

Ko'p hollarda loyiha ta'sir ko'rsatadigan aholi (ayniqsa, qishloq joylarida) resurslar va mavjud cheklovlarni hisobga olgan holda uyushgan bo'ladilar. Bunda mulk huquqi va er hamda suvdan foydalanish huquqlari muhim ahamiyatga ega. Uyushmalarining boshqa bir tashkiliy elementi resurslarni birgalikda va individual boshqarish usullari, kapitalga ega bo'lish xarakteri, ishchi kuchini mavsumiy taklif etish, mehnat taqsimoti, ragoatlantirish tizimi, mahalliy ishlab chiqarish uyushmalarining tiplari, savdo va hukumat muassasalari bilan o'zaro munosabatlar hisoblanadi. Bir qancha kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramasdan bu tashkiliy elementlarni doimo hisobga olib borish kerak, chunki ular loyiha tuzish uchun asos bo'ladi.

Ko'p sonli aholiga ta'sir etuvchi loyihalar muvafaqqiyatli bo'lishi uchun ularning ko'pchiligi loyiha maqsadini tushinishlari va uni qo'llab-quvvatlashlari kerak. SHu tufayli loyihalarny ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida mahalliy qadriyat-lar tizimini, urf-odatlar, an'analar, aniqlangan ehtiyojlar va maqsadlarni hisobga olish zarur.

Milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan samarali bo'lgan loy-ihalar maqsadi mahalliy aholi uchun tushunarsiz yoki ular fikriga ko'ra, ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Oqibatda loyihalar mahal-liy aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Ijtimoiy tahlil mahalliy sharoitlarga asoslangan holda loyiha vazifalari va umumiy maqsadlarni mahalliy aholining individual maqsadlari bilan bog'lash yo'llarini ko'rsatib beradi.

Oilani rejalashtirish masalasida ham mahalliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari loyiha maqsadiga yoki umumiy maq-sadlarga erishishga ta'sir ko'rsatadi. Loyiha natijalari odamlarning loyiha va undan keladigan foyda o'rtasidagi bog'liqlik-ni qanchalik tushunishiga aloqador bo'lgan yana bir soha sog'liqni saqlash sohasidir.

10.3. Loyiha va mahalliy madaniyat talablari

Ko'p sonli aholiga ta'sir etuvchi loyihalar muvafaqqiyatli bo'lishi uchun ularning ko'pchiligi loyiha maqsadini tushinishlari va uni qo'llab -quvvatlashlari kerak. SHu tufayli loyihalarny ishlab

chiqish va amalga oshirish jarayonida mahalliy qadriyat-lar tizimini, urf-odatlar, an'analar, aniqlangan ehtiyojlar va maqsadlarni hisobga olish zarur.

Milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan samarali bo'lgan loyihalar maqsadi mahalliy aholi uchun tushunarsiz yoki ular fikriga ko'ra, ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Oqibatda loyihalar mahalliy aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Ijtimoiy tahlil mahalliy sharoitlarga asoslangan holda loyiha vazifalari va umumiy maqsadlarni mahalliy aholining individual maqsadlari bilan bog'lash yo'llarini ko'rsatib beradi.

Oilani rejalashtirish masalasida ham mahalliy madaniyat-ning o'ziga xos xususiyatlari loyiha maqsadiga yoki umumiy maqsadlarga erishishga ta'sir ko'rsatadi. Loyiha natijalari odamlarning loyiha va undan keladigan foyda o'rtasidagi bog'liqlik-ni qanchalik tushunishiga aloqador bo'lgan yana bir soha sog'liqni saqlash sohasidir.

10.4. Loyihalardan manfaatdorlikni ta'minlash masalalari.

Loyiha muvaffaqiyatining yana bir shartidan maqsad guruhning loyihada manfaatdorligini, uni ko'llab-quvvatlash va ishgirokinini ta'minlashdir. Bu, loyihani samarali ekspluatatsiya qilish garovidir. Kishilar o'zgarishlar qilish uchun tavakkalchilikka borishlari va loyiha maqsadlariga erishishlari uchun sarflagan kuch-kshratlari o'zini oqlashiga ishoich hosil qilishlari kerak. Loyihada ishtirok etish barcha bosqichlarda va shakllarda bo'lishi mumkin:

1. Investitsiyalarni tanlash va rejalashtirish borasida maslahat.
2. Ishchi kuchi bilan ishtirok etish.
3. Moddiy va pul resurslari bilan ishtirok etish;
4. Loyiha bajarilishini kuzatib borish va hokazo.

Mahalliy aholining loyihada ishtirok etishi loyiha rah-barlariga jami xarajatlarni o'zgartirmagan holda ko'proq sonli aholiga loyihadan manfaat etkazish imkonini beradi. Qaror qabul qilingunga qadar mahalliy aholidan maslahat olish loyihalarga ko'rsatiladigan qarshilikni minimallashtirish, undan keladigan manfaatni ko'paytirish, xizmat muddatini uzaytirish imkonini yaratadi. Masalan, fermerlar, kishloq xo'jaligi xodim-lari uchun bu ishlab chiqarish texnologiyalari bozorlarining ho-lati, loyihaning mumkin bo'lgan ekologik oqibatlari to'g'risida muhim axborot manbai hisoblanadilar. Suv inshootlari qurish va qishloq xo'jaligiga tegishli boshqa loyihalarda bu axborot-lar juda muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy aholining loyihada ishtirok etish imkoniyatlari-ni kengaytirish strategiyasi muvaffaqiyati aholining uyushmalar-ga birlasha olish qobiliyatiga bog'liq. Bu uyushmalar orqali ular o'z manfaatlarini anikdaydilar va himoya qiladilar. Tashkiliy va texnik imkoniyatlar tajriba orttirish bilan kengaytirib bo-riladi. Ammo loyihani ekspluatatsiya qilish boshlangunga kadar mahalliy aholini o'qitib, bu jarayonlarga tayyorlash ko'proq samara beradi (UzDeuAvto loyihasida bo'lgani kabi).

Mahalliy institutsional tizimlarni yaratish uchun vaqt ta-lab qilinishi sababi ko'p loyihalarda ilgarida mavjud bo'lgan tashkilotlarga tayaniladi. Ammo bu tashkilotlarga yangi vazifalar yuklatilganda ular oldindan bajarib kelgan vazifalarni keskin emas, balki asta-sekin kengaytirib borishi kerak.

Mavjud mahalliy tashkilotlardan foydalanish o'z afzallik-lariga ega bo'lsa-da, bu yangi tashkilotlar muvaffaqiyatsiz ishla-shini anglatmaydi. Yangi tashkilotlar faoliyatining muvaffaqiya-ti boshqa omillar qatorida yangi guruh mavjud ehtiyojlarni lozim darajada qondira olishiga, xodimlarning tayyorgarligi darajasiga, muddatlarning realligiga ham bog'liq.

Ijtimoiy muammolar loyiha davrining turli bosqichlarida yuzaga chiqadi. Loyiha nafaqat salbiy oqibatlarining oldini olish uchun, shuningdek, ijtimoiy o'zgarishlarni boshlash maqsadida ki-shilar kuch-g'ayratlarini safarbar etishi uchun ham aholi urf-odat-lari, an'analariga moslangan bo'lishi kerak. Ko'pgina ijtimoiy muammolarni aniqdab, mohiyatiga etishning o'ziyoq ularning loyi-xaga salbiy ta'sirini keskin kamaytirish imkonini oeradi.

Professional tayyorgarlik va ijtimoiy tahlil tajribasi po-tensial ijtimoiy muammolarni aniklash uchun o'ta zarur. SHu sababli loyiha tahlilida sotsiolog, antropolog kabi mugaxassislar

rshggirokini ta'minlash kerak. Turli qishloq xo'jaligi muassasalarining chorvachilik bo'limlarida chorva bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bo'lga-ni holda chorvani etishtirish (chorvadorlar) bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning yo'kligi ko'pgana mamlakatlarda chorvachilik loyihalari samaradorligining pastligi sabablaridan biridir.

Loyihani samarali ishlab chiqish va amalga oshirish quyi-dan mahalliy aholi ishtiroki va yuqoridan hukumat tomonidan rahbarlik qilinishini talab etadi. Muvaffaqiyatli va iqtisodiy samarali loyihalar kishilarni o'zlarining bir yoki bir necha maqsadlariga erishish yo'lida safarbar etadi va ularni o'z uchla-riga tayanishga o'rgatadi. Rivojlantirish loyihalarida ko'pincha bir-biriga zid keluvchi va o'zaro bog'langan bu ikki shart bir vaqtda bajarilishi kerak. Ijtimoiy tahlil ular o'rtasida mu-him bog'lovchi bo'g'in sifatida xizmat qiladi.

Ijtimoiy tahlil boshqa loyihalar tajribasiga, mutaxassislar tajribasi va malakasiga tayangan holda kishilarning ehtimol bo'lgan xatti-harakatlarini ob'ektiv baholash orqali loyihalarni ishlab chiqishni takomillashtirish va amalga oshirishga yordam beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy tahlilning vazifasi va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Ijtimoiy tahlilning to'rt asosiy sohasiga (vazifalariga) izoh bering.
3. Mahalliy aholi madaniy xususiyatlari e'tiborga olin-masligining loyiha uchun salbiy oqibatlari nimalarda ko'rinadi?
4. Aholining demografik xususiyatlari va loyiha sama-rasi o'zaro qanday bog'langan?
5. Nima uchun mahalliy aholi axborot manbai xisoblanadi?
6. Ijtimoiy tahlilda boshqa mutaxassislarning qatnashishining ahamiyati nimada?

11-modul. INSTITUTIONAL TAHLIL

R E J A

- 11.1. Institutsional tahlilning mohiyati va maqsadlari.
- 11.2. Loyiha ishtirokchilarining faoliyatidagi doimiy muammolar.
- 11.3. Zaruriy institutlarni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar.

11.1. Institutsional tahlilning mohiyati va maqsadlari.

Loyiha natijalari ko'p jixatdan tashkiliy tarkibni sifatiga bog'liqdir. Chunki, davr talabiga javob beradigan kuchli boshqaruv tizimiga ega bo'lgan tashkilotlarning malakali, qobiliyatli mutaxassislorigina loyihani samarali natijaga erishishni ta'minlaydilar, aksincha, ya'ni noqobil zaif boshqaruv tarkibiga ega. Tashkilot eng yaxshi loyihani ham samarasiz natija olishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan har bir loyiha institutsional tahlil qilinadiki, undan maqsad-loyihani tashkiliy, xuquqiy, siyosiy va ma'muriy xolatlarini tahlil qilib, ular doirasida loyihalarni amalga oshirilishini va ishlatilishiga jalb qilingan tashkilotlarni tadbirlari to'g'risida tavsiyanomalar ishlab chiqarish hamda uni baholashdir. Bunda quyidagi masalalar bo'yicha imkoniyatlarni o'rganib zarur tavsiyalar beriladi:

- a) Menejmentning usul va uslublari;
- b) Tashkiliy tarkib va undagi o'zgarishlar;
- v) Rejalashtirish, shu jumladan investitsiyalarni joylashtirishni tartibga solish;

- g) Xodimlarni tanlov asosida qabul qilish va o'qitish;
- d) Molyaiviy faoliyatni boshqarish;
- e) Loyihalarni moddiy-texnika ta'minoti;
- j) Loyihani ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish tuzimi;
- z) Tashkilotlararo muvofiqlashtirish;
- i) Tarmoqlar munosabatidagi siyosat.

Xozirda mamlakatimizda davlat ixtiyorida bo'lgan ko'plab korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib turli mulkchilik shakllariga aylantirildi va bu jarayon yana davom etmoqda.

Mulkni egasini bo'lishi loyihani amalga oshiruvchi tashkilotni loyiha bo'yicha barcha javobgarlikni o'z zimmasiga olishni ta'minlaydi. Bu o'z navbatida respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarni samarasini ta'minlaydi. Chunki mulkga egalik qilish xukuki, loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlarning menejerlari loyiha maqsadini aniq tasavvur qilib unga erishish yo'lidagi zarur qararlarni o'zlari mustaqil qabul qilish imkonini beradi. Binobarin ular loyihaga rahbarlik qilishda xususiy manfaatdorlikka ega bo'ladilar.

Loyihani institutsional tahlili uchun amalda aniq sharoitlarga moslashuvchi andozaviy echimlar yo'q. Ba'zan iqtisodiy xolatlardagi noxush o'zgarishlar tufayli belgilangan rejani bajarilishida o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Institutsional tahlil quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) Loyihani amalga oshirilishi va ishlatilishi doirasida unga ko'proq ta'sir etadigan qonunlarni, tashkilotlarni, me'yoriy xujjatlarni va siyosiy omillarni ko'rib chiqish;
- b) Loyiha ishida qatnashuvchi tashkilotlarni zaif va kuchli tomonlarini, moddiy va mexnat resurslar nisbatini, texnik malakasini tashkiliy tarkibini, boshqaruv va ma'muriy imkoniyatlarini, moliyaviy xolatlarni baholash;
- v) Loyihani amalga oshirishi va ishlatilishiga qonunlarni, siyosatni va tavsiyanomalarni imkonli ta'sirni, atrof muhitni himoyalashga munosabatni, ish xaqi, narxlarni, subsidiyalarni, tashqi savdo, valyuta kursi va boshqalarni baholash;
- g) Loyiha ishida mavjud kamchiliklarni bartaraf etuvchi muqobil usullarni taklif etish;
- d) Tavsiya qilinayotgan tashqiliy o'zgarishlarni amalga oshirish jadvalini ishlab chiqishda texnik yordam ko'rsatish va xokazolar.

11.2. Loyiha ishtirokchilarining faoliyatidagi doimiy muammolar.

Iqtisodiyotni qayta qurish jarayonida ikki muhim institutsional muammo kuzatiladi. Birinchidan, bu mavjud hukumat muassasalarini isloh qilish zarurati, ikkinchidan, eski tuzumda mavjud bo'lmagan yangi institutlarni tashkil etish. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarida bank tizimi, birjalar va boshqa bir qator institutlar mavjud emas edi. Iqtisodiy islohotlar, shubhasiz, ishsizlik va boshqa ij-timoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Xususiy sektor va bandlikning boshqa muqobil sohalari ishga tushguniga qadar esa ancha uzilish yuzaga keladi. SHu tufayli o'tish davri iqtisodiyotida institutsional islohotlar ijtimoiy himoya tizimini yaratish bilan birga bormasa, amalga oshirib bo'lmaydigan vazifaga aylanadi.

Institutsional muammolarni xarakterlash uchun ko'pincha zarur echimlarni topishga halaqit beruvchi yuzaki atamalar qo'llaniladi. Masalan, qiyinchilikka uchragan loyiha haqida, uning "rahbarlari zaif" deyilsa, loyiha muvaffaqiyatini "loyihaning harakatchan menejeri" bilan bog'lashadi. Moliya-viy faoliyatni nazorat qilishda yuzaga kelgan qiyinchilik-larni esa ko'pincha buxgalteriyada personal kompyuterlarning yo'qligi bilan izohlashadi, xodimlar va ma'muriyatning qoni-qarsiz ishi esa, xodimlarda etarli malaka yo'q, deb osongina izohlab qo'yiladi.

Ammo bu ko'rinish turgan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha taklif qilingan qarorlar ko'pincha navbatdagi muammolar qat-lamini aniqlashning ancha qimmat turadigan yo'lidir. Albatta, yaxshi menejer kerak. Lekin menejerlar aslida ishga layoqatli bo'lsalaru bir-biriga zid

talablarga duch kelishsa hamda bu ziddiyatni echish vakolatiga ega bo'lishmasa menejerlarni o'zgartirishdek ko'p vaqt talab qiluvchi va kimmat turuvchi, jarayon hech kanday ijobiy natija bermaydi. SHu singari haqiqiy muammo buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish emas, balki anik axborotning kelib turishi bo'lsa, kompyuter o'rnatish bilan masala echilib krlmaydi.

Ko'pgina davlatlarda vazirliklardagi byudjet hisob-kitoblarida personal kompyuterlarni qo'llash nafaqat axbo-rotlarni kayta ishlash hajmlarini ko'paytirish va tezligini oshirish tufayli, shuningdek, vazirliklar rahbarlariga axborot tizimining o'zini o'zgartirish imkonini bergani uchun ham muvaffaqiyatli bo'ldi. Natijada hisobotlarni topshirish tartibi sodsalashdi va shu qadar tezlashdiki, topshirish muddatlari hafta va oylar o'rniga kunlarga qisqardi hamda turli xildagi va xajmdagi xarajatlar okibatini ancha aniqroq ba-holash tizimini o'rnatishga erishildi.

Xuddi shuningdek, ayrim hollarda xodimlar malakasining etishmasligi ular qoniqarsiz ishlashining vazifalarini bel-gilash va stimullar tizimida aniqlik etishmasligi, xizmatda ko'tarilish imkoniyatlari cheklanganligi kabi omillarga nisbatan ikvdnchi darajali sababi bo'lishi mumkin. Bu omillarda o'zgarish yasamasdan turib, xodimlarni o'kitish borasidagi chora-tadbirlar kutilgan natijani bermaydi.

Qisqacha qilib aytganda, odatda, loyihalarni amalga oshi-rayotganda paydo bo'ladigan ko'pgina institutsional muammolar juda chuqur sabablarga ega. Bu sabablarni aniqlamasdan turib esa uzoq muddatli qarorlar kabul qilish qiyin. Sanab o'tilgan qiyinchiliklardan ko'pini xal etish o'nlab yillarni talab qili-shi mumkin. CHunki ular chuqur iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va madaniy cheklanishlarni aks ettiradi. YAngi institutlar o'z ja-miyatida ildiz otishi va o'z madaniy muhitiga moslashishi kerak. Texnik va boshqaruv layoqati siyosatni samarali rejalashtirish, ishlarni dasturlash, moliya va kadrlarni boshqarish va hozirgi zamon tashkilotining boshqa muxdm vazifalarini bajarishni ta'minlashi uchun asta-sekin yaxshilanib borishi kerak.

11.3. Zaruriy institutlarni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar.

Zaruriy institutlarni tashkil etish (ayniqsa, rivojlan-tirish loyihalari bilan bog'liq hollarda) uch guruh omillar 'ta'sirida murakkablashadi. Bular:

- a) noqulay siyosiy shart-sharoitlarning salbiy ta'siri;
- b) loyiha oldiga qo'yilgan maqsadlarning murakkabligi;
- v) loyihaning investitsiyadan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik.

SHu tufayli institutsional muammolarni aniqlash, baho lash hamda echish borasida tavsiyalar ishlab chiqish uchun (bu borada umumiy modellar, andozalar yo'qligini ham e'tiborga olgan holda) sanab o'tilgan omillarni e'tiborga olish zarur.

Siyosiy omillar ta'siri

Barcha rivojlantirish loyihalari u xoh davlat sektorida, xoh xususiy sektorda bo'lsin, hukumat makroiqtisodiy siyosatining hamda bu siyosatni o'zida mujassamlashtirgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar kuchli ta'siri ostida bo'ladi. Agar tashkiliy tuzilmalar o'z kuch va resurslarini siyosiy karorla-rining salbiy ta'siriga qarshi kurashga sarflashga majbur bo'lsalar, bu tuzilmalar uzok istiqbolga muvaffakiyat bilan ishlay olmaydilar. Hukumat siyosati loyiha amalga oshirila-yotgan iqtisodiy shart-sharoitlarni (jiddiy sur'atda) buzib ko'rsatsa, instit^{tsional} muammolar soni ortib ketadi. Asos-lanmagan valyuta almashuv kursi yoki savdo siyosati nafakat loyiha bo'yicha olinadigan daromadlar darajasiga ta'sir ko'r-satadi, shuningdek, ehtiyot qismlarni qidirib topish, eksport-import operatsiyalari yo'lidagi byurokratik to'siqlarni engish kabilarga ortiqcha kuch sarflashga sabab bo'ladi. Davlat baho va soliq siyosati bozor signallarini buzib ko'rsatib, menejerlarning adashishiga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa, davlat baho va byudjet siyosatining loyiha-ning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatiga ta'siri katta. SHu-ningdek, buninr ta'sirida loyiha menejerlari hamda xodim-lar faoliyatini baholash mumkin bo'lmay qoladi. CHunki tash-kilotning qoniqarsiz ishiga doimo yaxshi ishlashga xalaqit berayotgan siyosiy vaziyatni sabab qilib ko'rsatish m[^]tkin. Dav-lat

tomonidan tartibga solish, nazorat qilish va bevosita aralashuvning murakkab tizimi mavjudligi ta'sirida siyosiy vaziyatning salbiy ta'siri yanada chuqurlashishi mumkin.

Maqsadlar murakkabligi

Ko'pchilik iste'molchilar va manfaat ko'ruvchilar talabi-ni ifoda etuvchi yirik, ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanti-rish loyihalarida k}T1 hollarda loyiha maqsadi va unga eri-shish vositalarini belgilash qiyin b5'ladi. Bunga misol tari-qasida ta'lim dasturi va mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga investitsiya sarflari loyihalarini taqqoslashimiz mumkin. Ma'lumotli va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashuvchan kishi-larni tayyorlash vazifasini ma'lum miqdordagi o'g'it ishlab chiqarish vazifasiga ko'ra baholash qiyin. Uqitish dasturida maqsadga erishish usullari ham ancha murakkab va noanikdir.

Ayrim loyihalarda maqsadlar aniq-ravshan bo'lsa-da, ular shunchalik ko'pki, ularning hammasiga bir tekis erishishni ta'-minlab bo'lmaydi. Masalan, qishloq tumanlarini kompleks rivojlantirish loyihalari qishloq xo'jaligi ishlab chiqari-shini ko'tarish, infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, madaniy an'analarni o'zgartirish kabi maqsadlarga duch keldi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar ko'p sonli aholi bi-lan ish ko'radiki, loyiha agentligi ularga doim ham bevosita ta'sir ko'rsata olmaydi (elektrostansiya direktori o'z xodim-lariga ta'sir ko'rsatishiga o'xshab).

Loyihani o'rab turgan muhitga nisbatan uni boshqarishning uch jihatiga alohida to'xtalib o'tish zarur:

1. Standart va eksperimental loyihalardan foydala-nish.
2. Ishlari muvofiqlashtirish uslublari.
3. Boshqaruv nazoratini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar.

Infratuzilmalar, kommunal inshootlar va yirik sanoat korxonalari qurish loyihalari tashkiliy jihatdan birmuncha afzallikka egalar. YA'ni ular uchun zarur tashkiliy tadbirlar va texnologiyalar, standart echimlar mavjud. Ko'pchilik loyi-halar uchun esa standart echimlar, texnologiyalarni qo'llab bo'l-maydi. Bunday sharoitda moslashtirish qobiliyati tashkiliy tuzilmaning muvaffaqiyat garovi bo'lishi mumkin. Moslashtiruv ishi byurokratik muassasalar uchun ayniqsa qiyin kecha-di. Bunga ularning rejali xarajatlar haqida doimiy hisobot berishga majburliklari va har qanday xavfdan qochishlari sababki, bu hol ularni konservativ qilib qo'yadi. Ayrim hollarda loyihani amalga oshiruvchi tashkilotga murakkab in-stitutsional va mopdiy-texnik talablar qo'yiladigan bitta yirik loyihadan ko'ra, o'rnatilgan grafik bo'yicha bir nechta eksperimental loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Eksperimental loyihalarga muqobil variant - kichik dasturlarni subpudratchi tashkilotlarga topshirishdir. Bunda bosh pudratchi bunday dasturlarni moliyalashtirish, texnik yor-dam ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi.

Muvofiqlashtirish muammolari

" Yirik loyihalarga xos bo'lgan tashkiliy muammolarni hal etishning yana bir yo'li loyihaning bosh maqsadiga eri-shish uchun qaysi faoliyat turlari asosiy ekanligini aniqlab, cheklangan tashkiliy resurslarni shu faoliyatga jamlash hamda ikkinchi darajali vazifalarni keyinroqqa qoldirishdir. SHunday yondashuvni loyiha bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirishga nisbatan ham qo'llash mumkin, chunki ko'p sonli ijrochi-lar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'p vaqt talab etadi va kerakli natija bermasligi mumkin. Muvofiklashtirishni inkor etib bo'lmaydigan sharoitlarda turli ijrochilar vazi-falari aniq-ravshan belgilanishi kerak. Ikkinchi darajali resurslarni nazorat etuvchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi komitet tuzgandan ko'ra, ularni kichik ishchi guruhlariga birlashtirish muvofiqlashtirishning samaraliroq mexanizmi bo'-lishi mumkin. Boshqaruv nazoratini takomillashtirish chora-tadbirlari

Loyiha natijalarini baholashdagi qiyinchiliklarni loy-iha faoliyatining mumkin qadar kichikroq, nazorat va boshqa-ruv oson bo'lgan vazifalarga bo'lish yo'li bilan kamaytirish mumkin. Ta'lim va ijtimoiy masalalar bo'yicha loyihalarda moliya faoliyatini boshqarishga katta e'tibor beriladi. Mo-diyaviy oqimlarni hisobga olish va nazorat qilish esa bu loy-ihalardagi noaniqliklarni kamaytirgan va ularni boshqarishni yaxshilagan, moliyaviy tartibni

mustahkamlagan bo'lar edi. SHuningdek, zamonaviy boshqaruv axborat tizimini yaratish imkoniyatini beradiki, bu, o'z navbatida loyihani samarali bo'shqarishning asosiy unsuridir. Patent berish yoki kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha xususiy korxonalar bilan kontrakt tuzish uslublari boshqaruv nazoratini takomillashtirish usuli sifatida keyingi yillarda alohida e'tibor jalb etayapti. Turli sabablarga ko'ra, hukumat idoralari bilan shartnoma asosida ishlovchi xususiy korxonalar tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish transport, sog'liqni saqlash kabi sohalarda xizmat sifatini oshirishga, xarajatlar qisqartirilishiga olib keladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Institutsional tahlilning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Institutsional tahlilning vazifalari nimalardan iborat, ya'ni tuzilmasi qanday?
3. Loyihalar uchun zarur institutlarni tashkil etishgata'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
4. Loyihalarning investitsiyalardan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik.
5. Institutsional tahlil loyiha tahlilining boshqa turlari bilan qanday bog'langan?

12-modul. MOLIYAVIY TAHLIL

R E J A

- 12.1. Moliyaviy tahlilning mohiyati va turlari.
- 12.2. Moliyaviy rentabellikni tahlili.
- 12.3. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili.
- 12.4. Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy tahlili.

12.1. Moliyaviy tahlilning mohiyati va turlari.

Moliyaviy tahlilning mohiyati va turlari

Loyihani moliyaviy tahlil qilish bir necha ko'rinishga ega bo'lib, loyiha turiga qarab, ikki yoki undan ko'proq turdagi moliyaviy tahlil amalga oshirilishi mumkin. Moliyaviy tahlil quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy rentabellik tahlili.
2. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili.
3. Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy tahlili.
4. Xarajatlarning qoplanishi tahlili.

Moliyaviy tahlilning sanab o'tilgan turlari qaysi vazifalarga ega bo'lishi, loyihaning moliyaviy jihatdan maqsadga muvofiqligi u qaysi nuqtai nazardan turib ko'rib chiqilayotganligiga bog'liq.

Buni quyidagi jadvalda ko'ramiz:

Moliyaviy tahlil turlari

Tahlil turi	Moliyaviy rentabellik tahlili	Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili	Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi	Xarajatlar koplanishi tahlili
-------------	-------------------------------	------------------------------------	----------------------------------	-------------------------------

			tashkilotni moliyaviy tahlil	
Tahlil maqsadi	Loyihaga qo'yilgan kapital mablag'lar samaradorligini aniqlash	Loyihani amalga oshirish uchun mablag' biln ta'minlashni rejalashtirish	Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy ahvoli va boshqaruv harakatini aniqlash	Davlat loyihalarida foydalanuvchilardan tushadigan to'lovlar hisobiga xarajatlar qoplanishini baholash
Loyiha tahlili qaysi pozitsiyadan turib amalga oshiriladi.	Loyiha pozitsiyasidan turib	Hukumat, Loyihadagi foydalanuvchilar va undan manfaat kuruvchilar pozitsiyasidan turib	Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot pozitsiyasidan turib	Hukumat loyihadan foydalanuvchilar undan manfaat ko'ruvchilar hamda loyihani boshqarish pozitsiyasidan turib
Foydalaniladiga n moliyaviy hisobotlar tizimi	Diskontlangan pul tushumlari va chiqimlari oqimi hisoboti	Moliyaviy reja	Foyda va zararlar hisoboti. Pul mablag'lari tushumlari va chiqimlari oqimi hisoboti, balans hisoboti	Xarajatlarni qoplash ko'rsatkichlari, to'lov hajmi yoki foydalanuvchilardan olinadigan soliq hajmi
Mezonlar	Ichki foyda me'yori. Sof keltirilgan qiymat	Qarzlarni va ular bo'yicha foizlarni to'lash uchun qilingan xarajatlarni qoplash darajasi.	Samaradorlik me'yori moliyaviy ko'rsatkichlar	To'lov hajmi va tarkibi
Qaysi obektga nisbatan qo'llaniladi.	Xususiy sektordagi loyihalarga davlat sektoridagi tijorat loyihalariga nisbatan	Hamma loyihalarga nisbatan	Firmalarga va davlat loyihalariga nisbatan	Davlat sektoridagi ta'lim, sog'liqni saqlash, suv ta'minoti, transport kabi xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan loyihalarga nisbatan

Moliyaviy tahlilning har xil tflari loyihaning maqsadga muvofiqligini, resuslardan foydalanish samaradorligini, loyiha ishtirokchilari uchun ragbatlarni, moliyaviy rejalarining asoslanganligini, moliyaviy boshqaruvning layoqatliligi darajasini hamda loyihani amalga oshirish natijasida kutilayotgan foyda darajasini baholash qo'llaniladi.

U yoki bu turdagi tahlilni o'tkazish zarurati loyihaning murakkablik darajasiga, uning xususiy sektordagi yoki davlat loyihasi ekanligiga hamda iqtisodiyotning qaysi tarmog'iga taalluqligiga borliq.

Moliyaviy tahlilda daromad va xarajatlarni xisoblashda:

- faqat alohida bozor baholari ko'llaniladi;
- kapital xarajatlar loyihaning butun xizmat davrigataqsimlab chiqiladi (amortizatsiya);
- soliqlar va turli guruhlar o'rtasidagi bir tomonlamato'lovlar hisobga olinadi;

- xususiy diskont stavkasi qo'llaniladi.

12.2. Moliyaviy rentabellikni tahlili.

Moliyaviy rentabellik tahlilining maqsadi loyiha-ning xayot davri davomida investitsiyalardan keladigan sama-rani baholashdan iborat. Bu tahlilni ba'zida loyihaning moliyaviy maqsadga muvofikligi tahlili deb ham yuritiladi. Bu tahlilni o'tkazishning uslubiy asoslari ikkinchi va uchinchi mavzularda k^fib chiqilgan. SHu asosga tayanilgan holda rentabellik ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi.

Bu tahlil loyihadagi pul t}1P5TUshari va chiqimlari oqimiga asoslangan holda o'tkaziladi. Bunda e'tibor loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlarga(ularning moliyaviy holatiga) emas, balki loyihaning o'ziga qaratiladi. Moliyaviy rentabellik tahlili tovarlar va xizmatlar savdosini amalga oshiruvchi loyihalar uchun o'ta muhim, lekin kommunal xizmat ko'rsatuvchi va davlatdan kisman dotatsiya olib ishlovchi tashkilotlar uchun uncha ham muhim emas.

Xarajatlarni qoplash tahlili rentabellik tahlilining deyarli xuddi o'zi bo'lib, davlat xarajatlari foydalanuvchilar to'lovlari va soliqlar hisobiga qoplanadigan loyihalar uchun qo'llaniladi.

Moliyaviy rentabellik tahlilida xarajatlar va daromadlar qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib aniqlanadi. Xarajatlarni firma yoki ijrochi tashkilotning foydasini kamay-tiruvchi moliyaviy oqimlar tashkil etsa, daromadlarni foyda yoki daromadni ko'paytiruvchi moliyaviy oqimlar tashkil etadi.

Xarajatlar va daromadlar oqimlarini loyihalashtirish uchun ishlab chiqarish faoliyatining texnik darajasini belgi-lab olish, investitsiyalardan ko'zda tutilgan texnik resurslar-ning loyihaga kirish va chiqishdagi oqimini, loyihalarning bozor va ma'm^fiy o'rnatiladigan baholarda hisoblangan na-tijalarini aniqlab olish talab etiladi.

Tushumlar oqimi mahsulot sotish (xizmat ko'rsatish) hajmini ularning xarid baholariga, xarajatlar oqimi esa ishlab chiqarishda foydalanilgan moddiy resurslar va xizmatlar miqdorini ularni sotib olish bahosiga ko'paytirib topiladi. Bunday baholash loyihaning butun yashash davriga, har bir yil uchun o'tkaziladi.

Loyiha uchun zarur resurslar va undan kutilayotgan natijalarni baholashda birinchidan, ichki va tashqi bozorda yaqinda bo'lib o'tgan bitimlarda qo'llanilgan amaldagi baholar asosida real bozor baholarini; ikkinchidan, kelgusidagi baholarni prognoz qiliga lozim.

Odatda, iqtisodiy va moliyaviy taxlshshi o'tkazishda inflyasiya ta'siridan tozalangan doimiy baholar, shuningdek, inflyasiya Ta'siridan tozalangan diskont koeffitsienti qo'llaniladi.

Loyiha bo'yicha ishlab chikarilgan tovar (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun tushgan barcha to'lovlar, debitorlik qarzlari, subsidiyalar va boshqa daromadlar (ijara haqi va boshqalar) loyiha bo'yicha tushumlarga kiritiladi va uning umumiy sama-rasini ko'rsatadi.

Xarajatlar o'z ichiga ekspluatatsiya va kapital xarajatlarini oladi. Ekspluatatsiya xarajatlariga ish haqi, material, yoqilg'i xarajatlari, ijara haqi to'lovlari, kommunal to'lovlar, umumiy va ma'muriy xarajatlar, soliqlar, joriy ta'mirlash xarajatlari, hali to'lanmagan, ammo xisobga olingan kreditor-lik qarzlari va boshqalar kiradi. Kapital xarajatlarga esa investitsiyalar, loyiha fondlarini alishtirish, modernizatsiya qilish va kapital ta'mirlash xarajatlari kiradi.

Pul oqimlari baholab bo'lingandan so'ng rentabellik ko'rsatkichlari kalkulyasiya qilinadi, loyihalashtirilayotgan tushumlar va xarajatlar diskontlanadi va ilovada keltiril-gan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Moliyaviy ehtiyojni tahlil qilishda loyihani amalga oshirishga ketadigan aylanma mablag'lar alohida valyutada hamda so'mda hisoblanadi. O'zbekis-ton sharoitida aylanma mablag'larni valyutada shakllantirish ayniqsa katta amaliy ahamiyatga ega. Agar loyihada aylanma mablaglar valyutada to'g'ri rejalashtirilmasa, loyiha muammoga duch keladi. Misol uchun, loyiha mahsulotining ingredient-lari import qilinsa, uni sotib olish uchun valyuta ko'rinishidagi aylanma mablag'lar etarli bo'lishi kerak. SHunda mahsu-lot ingredientlarni sotib olishda muammoga duch kelinmaydi. Ba'zi loyihalarda aylanma mablag'lar

soʻmda etarli boʻlsada, valyutada etarli boʻlmagani uchun korxonalar ingredientlarni import qila olmaydi. Natijada ishlab chiqarish toʻxtab qoladi.

12.3. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili.

Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili loyihani investitsiyalash va uni ekspluatatsiya qilish uchun kerak boʻlgan barcha moliyaviy ehtiyojlarni prognoz qilishni oʻz ichiga oladi.

Bu esa zarur resurslar kelib tushishini taʼminlaydigan moliyaviy reja tuzish imkonini beradi. Moliyaviy rejani tayyorlashda xorijiy kreditorlar talablarini bajarishni engallashti-rish uchun xorijiy valyutaga boʻlgai ehtiyoj aloxdsa koʻrsatiladi.

Moliyaviy rejada, shuningdek, moliyalashtirishning mahalliy manbalari, loyiha uchun masʼul boʻlgan tashkilotnpg oʻz mablagʻlari va fondlari, davlat va tijorat tashkilotlaridan olinishi mumkin boʻlgan qarzlar ham eʼtiborga olinadi.

Moliyaviy rejada loyihani ekspluatatsiya qilish davri xarajatlari oʻz aksini topmasa, ekspluatatsiya qilish, joriy xizmat koʻrsatish va taʼmirlash uchun fondlar yoʻqligi tufayli loyiha uskunalari eskirib, tezda yaroqsiz holga kelib qoladi.

Moliyaviy reja loyihadan manfaat koʻruvchilarning u taklif etayotgan mahsulotni sotib olish qobiliyatini hisobga olishi zarur.

Moliyaviy reja joriy baholarda tuzilishi hamda yillar boʻyicha loyihaning butun amal qilish davriga kuyidagilarni koʻrsatishi kerak:

- moʻljallanayotgan kapital mablagʻlar va ekspluatatsiyaxarajatlari (shu jumladan, baho va fizik koʻrsatkichlarningkoʻzda tutilmagan oʻzgarishlari hisobga olib kiritilgan tuza-tishlar);
 - loyiha mahsulotini sotish va boshqa manbalardan keladigan daromad;
 - qarzlarni, investitsiyalarni va loyihaning boshqa ehtiyojlarini qoplashning boshqa manbaalari.
- Loyihani moliyalashtirishda korxonaning oʻz mablagʻlari qancha koʻp boʻlsa, uning investor tomonidan baholanshsh shuncha engil boʻladi.

12.4. Loyihani eksplutatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy tahlili.

Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni moliyaviy tahlilga uchta moliyaviy hisobotni tayyorlash, tahlil etish va prognoz qilish kiradi:

- daromadlar(foйда va zararlar) hisoboti;
- pul mablaglari tushumlari va chiqimlari hisoboti; balans hisoboti.

Bu hisobotlar loyihaning butun amalda boʻladigan davri yoki hech boʻlmaganda uni ekspluatatsiya qilishning dastlabki bir necha yiliga tuziladi.

Koʻrsatilgan moliyaviy hisobotlarni prognoz qilish ularning barcha komponentlarini chuqur tahlil qilish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning umumiy qabul qilingan qoidalarini bilishni talab etadi. SHu tufayli bu ishni taj-ribali buxgalter auditorlarga yoki moliyaviy tahlilchiga top-shirish kerak.

(Roydd sh zararlar hisoboti korxoia^shng maʼlum davrdaga (chorak, yil) ishlab chigarshi faoliyatidap olgap daromadlartsh shu davrda-gi qilingan va daromad oligl bilai boklshch boʻlgan xarakltlari oʻr-tasidagi nisbatni koʻrsatadi. Bu hisobot yayuriy xoʻjalik faoliyati samaradorligi, loyihaning oʻz kapitalshsh oshirish zahiralarini ba-holshp uchun zar^r. Bu shaklning yana bir vazifasi turli soliq toʻlov-lari va dividendlar mikdorini aniklashdan iborat.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Loyihalarning moliyaviy tahlili nima maqsadda oʻtkaziladi?
2. Moliyaviy rentabellik tahlilining mohiyati nimada?
3. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili qanday amalga oshiriladi?
4. Xarajatlarning qoplanishi tahliliga tavsif bering.
5. Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliya-viy tahlilida qoʻllaniladigan hisobot

shakllarini izohlabbering.

6. Loyiha tahlili turlari bo'yicha qo'llaniladigan me-zonlarni tushuntirib bering.

7. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan qaysi koeffitsi-entlarni bilasiz?

8. Moliyaviy tahlilda aylanma mablag'larga talab so'mdava valyutada hisoblanishi sababi nimada?

13-modul. IQTISODIY TAHLIL

R E J A

13.1. Iqtisodiy tahlilning mohiyati va maqsadi.

13.2. Iqtisodiy tahlil vazifalari. Loyiha maqsadlarini va tahlil chiziasini aniqlash.

13.3. Iqtisodiy tahlilda yashirish baholar.

13.4. Manfaatlar va xarajatlarni o'lchash uslublari va muammolari

13.5. Iste'molchining qo'shimcha daromadi.

13.6. Loyihani tashqi samarasi.

13.1. Iqtisodiy tahlilning mohiyati va maqsadi.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi bir qancha loyiha variantlari ichidan eng kam xarajatlar qilib eng ko'p foyda oluvchi loyiha aniqlashdir. Bunda loyihani umumjamiyat uchun qanchalik daromadli bo'lishini, jamiyatlar va boshqalarga ta'sirini xisobga olgan holda tahlil qiladi. SHuningdek loyihani amalga oshirilishi uchun resurslar ajratilishi jamiyat nuqtai- nazaridan qanchalik afzalligini tahlil etadi. Xulosa qilib aytganda iqtisodiy tahlil loyiha bilan bog'liq barcha samaralarni asosini ko'rib chiqishdan iborat bo'lib, bunda:

a) bozor bitimlarida aks ettirilgan iqtisodiy o'zgaruvchilarni aniqlaydi.(masalan, uy narxi va uni joylashgan tumani, transportni qulayligi, shahar arxitekturasini zamonaviligi va boshqa mavjud uylar soni ularni o'lchamlaridan tashqari tavsiflarini aks ettiradi);

b) loyiha ustivorligi qatoriga pulga tegishli bo'lmagan qiymatlarini ya'ni, kishilarning xulq-atvori kabi belgilariga qarab baholaydi;

v) loyihani amalga oshirishda olinadigan daromadlarni uni xarajatlaridan yuqori yoki kam bo'lishini batavsil tahlil etib bu xaqida qaror qabul qiladi.

Moliyaviy tahlil va iqtisodiy tahlillar bir-birini shunday ma'noda to'ldiradiki, moliyaviy tahlil loyihani aloxida ishtirokchilari tutgan o'rnidan olib borsa, iqtisodiy tahlil esa to'la jamiyatni tutgan o'rnidan olib boradi.

Iqtisodiy tahlilda quyidagilar amalga oshiriladi:

a) loyiha maqsadlarini aniqlash;

b) loyihani baholanishini aniqlash;

v) loyiha natijalariga bo'ladigan talabni bashorat qilish;

g) foyda va xarajatlarni o'lchanishi;

d) rentabellik ko'rsatkichlarini baholash;

e) sezgirlik va tavakkalchilikni tahlil qilish;

Iqtisodiy tahlilda loyihani muqobil variantlarini ko'rib chiqish muhim qism hisoblanadi. Masalan, texnik muqqobilliklarda turli texnika va texnologiyalar son va sifat jihatidan bir xil natijaga (foydaga) ega bo'lsa, unda tahlil investitsiya va ishlab chiqarish xarajatlari eng kam

bo'lgan variantini aniqlab berish kerak. Agar barcha variantlar uchun foyda va xarajatlar turlicha bo'lsa, unda amaldagi variantlar orasidan eng ko'p sof foyda keltiruvchi tanlab olinadi.

Loyihani iqtisodiy tahlili loyihani foyda va xarajatlarining resurslarini boshqacha ishlatilishidagi yuzaga keladigan foyda va xarajatlar bilan taqqoslaydi. Loyihalar resurslar bilan foydalanib mahsulot chiqaradi, loyiha bo'lmaganda esa bu resurslar va mahsulotlarga egalik qilish begona iqtisodi uchun o'zgaradi. Ko'plab ishbilarmonlar investitsiyalar xaqidagi qarorlarni shu kabi oddiy usul bilan qabul qiladilar. Ko'rib chiqilgan xolatda loyiha bo'lmaganda investorlar o'z mablag'larini boshqa loyihalarga sarflash imkoniga ega bo'ladi, agar loyiha mavjud bo'lsa ular maskur loyihaga sarflaydilar. Bu bilan maskur loyihani amalga oshirish muayan turdagi mahsulotni ko'plab ishlab chiqarilishi uning bozorida ko'payishiga va narxini pasayishiga olib keladi, bu o'z navbatida haridorlarning (iste'molchilarni) ko'shimcha daromadini paydo bo'lishiga olib keladi.

Xarajatlar samaradorligini tahlili.

Ma'lumki, loyihadan keladigan foydani to'la sonli baholashni ko'p xollarda imkoni bo'lmaydi. Bu qiyinchilikni ayniqsa amaldagi bozor axboroti asosida ya'ni loyihadan foyda quruvchilarni qanchalik o'z ixtiyorlari bilan loyiha mahsulotiga pul to'lashlarini baholashda yuzaga keladi va loyiha mahsulotiga ko'shimcha iste'mol miqdorini aniqlash xaqida ma'lumotlarin yo'qligida yuzaga keladi. YAnada ko'prok qiyinchilik bu tibbiy xizmatni yaxshilash natijasida kasalga chalinishi va o'lim xolatlarini kamayish xisobiga keladigan foydani baholashdir.

Xarajatlarni samaradorligini tahlil qilish turli variantdagi loyihalarda belgilangan maqsadni eng kam mablag' sarflagan holda amalga oshiruvchisini tanlab olish imkonini beradi. Bu ayniqsa foydasini aniqlash qiyin soxalarni masalan, sog'liqni saqlash, maorif, uy-joy qurilishi, jamiyat boshqaruvi, suv ta'minoti va boshqa ijtimoiy soxalar uchun tayyorlangan loyihalarga baho berishda keng qo'llaniladi. Bunda asosiy diqqat e'tibor xarajatlarga va qo'yilgan maqsadga erishishni eng arzon variantiga qaratiladi. Masalan, loyiha ma'lum bir kasallikkga qarshi ko'rishdan iborat bo'lsa, unda iqtisodiy tahlilchi quyidagi savolga javob bermogi kerak, ya'ni muqobil variantlarni qaysi biri bu muammoni echishda eng arzon xisoblanadi?

Ishlab chiqarish soxalari uchun tavsiya etilgan loyihalar xarajatlarining samaradorligini aniqlashda mahsulot birligiga to'g'ri kelgan xarajatlar taqqoslanib, ulardan eng kam xarajat to'g'ri kelgan loyiha varianti tanlab olinadi va u samarali deb xisoblanadi. Agar loyiha bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarni sifat tafovuti mavjud bo'lsa, unda bu tafovut muqobil variantni tanlab olinishida xisobga olinishi lozim.

13.2. Iqtisodiy tahlil vazifalari. Loyiha maqsadlarini va tahlil chizmasini aniqlash.

Daromadlar va xarajatlarning tahlili quyidagi tadbir-larni o'tkazishdan iborat:

1. Loyiha maqsadlarini aniqlash va bosh maqsadning iqtisodiy mazmuni, okibatlarini anglash;
2. Loyihani baholash chizmasini va bosqichlarini aniqlash;
3. Loyiha natijalari bo'yicha talabni prognoz qilish;
4. Daromad va xarajatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari-ni hisoblash;
5. Rentabellshshk ko'rsatkichlarini baholash;
6. Ta'sirchanlik va tavakkal xavfi (qaltislik) daraja-sini tahlil qilish.

Loyiha maqsadlari uni moliyalashtiruvchi tashkilotning operativ vazifalarini aks ettiradi. Masalan, transport soha-si bo'yicha loyiha maqsadi transport qatnovi samaradorligini ta'minlash, sanoat loyahasining maqsadi esa ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'lishi mumkin.

Mukrbil varianglarni ko'rib chiqish loyihani tayyorlash va uni ishlab chiqshshshng muhim qismi xdsoblanadi. Texnik, mukrbil variantlar (ya'ni yokilg'i uchun yo ko'mir yoki gazni kullash,

temir yo'lni uzaytirish yoki yangi avtomobil shossesini qurish)ni bir-biri bilan taqqoslash va eng makbulini tanlab olish kerak. Agar hamma variantlar miqdor va sifat jihatdan bir xil natija bersa, ham investitsiya, ham eksploatatsiya xarajatlari xisobga olgavda eng kam xarajat talab etiladigan loyiha tanlanadi.

Iqtisodiy tahlil chizmasi turlicha bo'lishi mumkin. Bunda loyiha maqsadlariga salbiy ta'sir etuvchi hamma narsa xarajatlarga, ijobiy ta'sir etuvchi hamma narsa daromadlarga kiritiladi.

Loyiha tahlili daromad va xarajatlarni resurslardan foydalanishning boshqa variantlari bo'yicha erishilishi mumkin bo'lgan daromad va xarajatlarga qiyoslaydi. Ko'pincha loyihasiz va loyiha bilan degan chizma qo'llaniladi.

Masalan, sement zavodi qurishdagi bo'yicha loyiha bor bo'lsa, investorlar boshqa loyihalarga sarmoya ko'yish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Ammo sement ishlab chiqarishning ko'payishi natijasida uning narxi tushib ketishi, xaridorlar uchun sementga kamroq pul to'lash, ayrim xaridorlar uchun esa boshqa qurilish materiallari o'rniga sement ishlatish imkoniyatini paydo qilish mumkin.

Loyiha bilan va loyihasiz vaziyatlarni solishtirish loyiha amalga oshirish natijasida olinadigan qo'shimcha va o'sgan daromatlarni hisoblashning asosiy uslubidir. Loyihasiz vaziyatlarni istiqbolga baholashda xarajatlarning taxmin qilina-yotgan o'suvi yoki daromadlarning pasayishiga nisbatan reaksiyani hisobga olish kerak. Bu loyihani amalga oshirish yuzaga keltiradigan o'zgarishlarni to'liq aks etirish imkonini beradi.

Loyiha natijalariga talabni tahlil va prognoz qilish kiritiladigan resurslar va ishlab chiqariladigan mahsulot bozorlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi hamda talab va taklif o'rtasidagi nisbatni bilishni, loyihaga taalluqli resurslar va mahsulotlar marketingi haqida ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi.

13.3. Iqtisodiy tahlilda yashirin baholar.

Jamiyat nuqtai nazaridan qaraganda loyiha mahsuloti-ni sotish yoki resurslarini sotib olish baholari doim ham xarajatlarga va daromadlarning maqbul darajasini kursata olmaydi. Masalan, baholar bo'larga soliq to'lashga ketgan xarajatlarga ko'shib yuboriligi natijasida oshirib yuborilishi davlat subsidiyasi ta'sirida pasaytirib yuborilishi mumkin. Iqtisodiy tahlil uchun, ikki yoqlama hisoblashga yo'l ko'ymaslik maqsadida, baholarni bu elementlardan tozalash kerak.

Ikki yoqlama hisoblash shu tufayli ro'y beradiki, jamiyat, dastlab, ishlab chiqaruvchiga sotib olinayotgan mahsulot baho-siga soliqlar (subsidiyalar) ko'shilishi natijasida oshirilgan (kamaytirilgan) narxda haq to'laydi, keyin esa ishlab chiqaruvchi daromadining bir qismini soliq sifatida olib qo'yadi (ishlab chiqaruvchiga subsidiya ko'rinishida qo'shimcha daromad beradi), ya'ni bu bilan soliq va subsidiyalarni ikki bor hisobga oladi. Boshqa holatlarda baholar monopolistik amaliyoti ta'sirida, ularning davlat tomonidan tartibga solinishi, boj to'lovlari hamda boshqalar ta'sirida muvozanat darajasida-gidan farq qilishi, ya'ni xatoli bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy tahlilda baholarni tozalash uchun hisoblab topilgan, ya'ni boshqacha aytganda, yashirin (soyadagi) baholar-dan foydalaniladi. Yashirin baholarni aniqlashda ichki bozorda baholar yuqorida keltirib chiqaruvchi omillar mavjud bo'lmagan paytda qanday bo'lar edi, degan shartga asoslaniladi. Yashirin baholarni aniqlashning eng oddiy uslubi jahon baholarini olib, bir necha usullarni qo'llagan holda, so'nda qayta hisoblab chiqishdir.

Bu muqobilikka asoslangan yondashuvni (lekin yuqorida keltirilgan uslubni emas) jahon bahosi bo'lmagan tovarlar-ning, ya'ni er, ishchi kuchi, turli xizmatlar va hokazolarning «yashirin» baholarini hisoblab topishda ham qo'llash mumkin.

Agar firma loyihani o'z erida amalga oshirayotgan bo'lsa va shuning uchun ham moliyaviy tahlil jarayonida urning qiy-mati xarajatlarga deyarli kiritilmasa, u holda iqtisodiy tahlilda "yashirin" bahoni:

- a) mahalliy er bozoridagi shunga o'xshash maydonlarning qiymati asosida;

- b) agar bunday bozor bo'lmasa, u holda shunga o'xshash may-Donlarning ijara bahosi asosida;
- v) ijara berilgan shunga o'xshash maydonlar bo'lmasa, u holda sh} erdan olinishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jaligimahsuloti qiymati asosida aniqlanadi.

13.4. Manfaatlar va xarajatlarni o'lchash uslublari va muammolari

Loyihadan olinadigan manfaat (foyda)ni doim ham to'liq miqdoriy baholash mumkin emas. Masalan, loyiha natijasida yo'l harakati xavfsizligi yoki tibbiyot xizmati yaxshilanishitufayli aholi sog'lig'i yaxshilanishini baholash juda qiyii. Lgar loyiha umumiy foydalanish uchun qulaylik yaratasa (toza-lash inshootlari, jamoat markazlari), olinadigan manfaatni alohida iste'molchining tulashga tayyorligi to'g'risidagi ma'lumotga asoslanib baholab bo'lmaydi. Resurslar hududiy taqsimlanishining yaxshilanishi, mamlakat ichidagi (milliy) in-tegratsiyaning kuchayishi kabi loyihadan olinadigan bir qancha o'lchab bo'lmaydigan manfaatlar mamlakat ichida resurslarni joylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Olinadigan foydani mikdoriy o'lchash mumkin bo'lmagan yoki ularni sifat jihatdan qismangina baholash mumkin bo'l-gan hollarda boshqacha yondashuvlar qo'llaniladi. Bunday yonda-shuvlardan biriga loyiha natijasida uning yaroqliligini ta'minlaydigan foyda-manfaatlar minimumini olish ehtimoli-ni tahlil qilish kerak. Ikkinchi yondashuv u yoki bu xizmatni ko'rsatish uchun bajarilishi shart deb hisoblangan, ilgaridan o'rnatilgan fizik yoki kiymat me'yorlariga asoslanish hisob-lanadi (masalan, yo'lga asfalt yotqizish xarajatlari 1 km.ga X so'mdan ortmasligi kerak, birinchi yordam ko'rsatuvchi punkt-gacha bo'lgan masofa U km. dan oshmasligi zarur).

O'lchash muammolari tarmoqlar bo'yicha farq qiladi. Ma-salan, ta'lim, sog'liqni saqlash va umumiy ovqatlanish sohala-rida daromadga asoslangan manfaat mezonlari yaroqsiz bo'lib qoladi, ya'ni ulardan foydalanib bo'lmaydi.

Bu hollarda yoki eng kam xarajatlar uslubidan yoki tex-nik ko'rinishdagi muammolar uchun (masalan, maktab qurish uchun qulay me'yorlarni anikdashda) xarajatlar samaradorligi us-lubidan foydalanish mumkin.

Xarajatlar samaradorligi tahlili bir necha muqobil variantlardan qo'yilgan vazifa bajarilishini ta'minlaydi-gan eng arzon loyihani tanlab olish uchun qo'llaniladi.

Ba'zi hollarda manfaatlar faqat fizik kurinishda bo'ladi va shu sababli ularni moliyaviy xarajatlar bilan taq-qoslab bo'lmaydi. Bunday hollarda yuqoridagi uslublarni qo'l-lashdan boshqa imkon ham bo'lmaydi.

Xarajatlar samaradorligi tahlili qo'yilgan vazifani hal etishning eng samarali yo'lini tanlash uchun qo'llaniladi. Bu tahlilga loyihaga qilinadigan barcha xarajatlarni tegish-li yashirin baholar asosida kalkulyasiya qilish va ularning keltirilgan qiymatini topish uchun olingan xarajatlar oqimi-ni diskontlash kiradi.

Bu tadbir loyihani amalga oshirishning barcha variant-lari bo'yicha o'tkaziladi. Ko'zda tutilgan natijalarga eng kichik diskontlangan xarajatlar bilan yoki mahsulot birligiga eng kam xarajatlar bilan erishishni ta'minlaydigan loyiha eng yaxshi hisoblanadi. Bu mezon barcha loyihalar loyiha maq-sadini sifat jihatlaridan bir xilda krndiradi, degan shar-tga asoslanadi. Agar loyiha bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar sifatida farq bo'lsa, eng ma'qul variantni aniqlashda bu hol ko'zda tutilmosh lozim.

Iste'mol tejami

Ko'pgina investitsiya loyihalari natijasida iste'mol tovarlari va xizmatlarining baholari pasayadi. CHunki bunday loyihalar ta'minotni yaxshilaydi va tovarlar takchilligiga barham beradi (masalan, yo'llarning yaxshilanishi yo'l xarajat-larini pasaytiradi). Baholar pasayishidan iste'molchilar manfaat ko'radilar, chunki loyihani amalga oshirishi natija-sida tejalgan resurslardan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Iste'mol tejami — iste'molchi tovar va xizmat uchun to'lashga tayyor bo'lgan summa - haqiqatdan sarflangan summa. Iste'mol tejami qo'shimcha mahsulot faqat uning bahosi pa-saytirilgan sharoitda sotilgandagina paydo bo'ladi. Bunday vaziyat ko'proq tartibga solinadigan bozorlar uchun xos. Masa-lan, kommunal xizmat, elektr ta'minoti va hokazo. Ayrim hol-larda paydo bo'lgan iste'mol

tejamini aniqlash oson bo'lsada, ko'pincha buni (masalan, umumiy elektr tarmog'iga ulangan zavod uchun o'z elektrostansiyasidan olingan qimmat elektr energiya-sidan voz kechishi hisobiga olgan tejamni) hisoolash ancha qiyin bo'ladi.

Amaliyotda olingan iste'mol tejami e'tiborga olinmay-di va loyihadan olingan manfaat (hisoblash oson bo'lgan) iste'molchilardan olinadigan to'lovlarga teyglashtiriladi. Ammo iste'mol tejami iqtisodiy manfaatning muhim qismi bo'lganligi tufayli, uni hisobga olmaslik loyihadan olinadi-gan samarani ancha kam qilib ko'rsatishga olib keladi.

Agar iste'mol tejamining taqribiy miqdorini olishga ham imkon bo'lmasa, loyiha variantlarini taqqoslayotganda bu hol e'tiborda tutilishi kerak. Ayrim loyihalarni amalga oshirish natijasida «loyihasiz» holatga nisbatan mahsulot hajmi shunchalik ko'payadiki, u baholarning pasayishiga olib keladi. Bunday hollarda pasaygan baholardan foydalanish qo'shimcha mahsulotdan keladigan iqtisodiy manfaat etarlicha baholanmasligiga sabab bo'ladi (chunki iste'molchilar u uchun ko'proq tulashga tayyor edilar). «Loyihasiz» holatga nisbatan loyiha natijasida baholar pasayipsh iete'mol tejamini oshi-radi va bu hol iktisodiy tahlilda e'tiborga olinishi lozim. Odatda, bu fikrlar tovarlar va xizmatlar umumiy taklifini keskin o'zgartirishga qodir bo'lgan juda yirik loyihalarga nisbatan tegishli bo'lgandagina ahamiyatga ega bo'ladi.

13.5. Iste'molchining qo'shimcha daromadi.

Har qanday loyiha u yoki bu yangi mahsulot, xizmat to'rini yaratishga yoki mavjud mahsulot va xizmat hajmini, sifatini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Bu loyihalarni amalga oshirish esa tovar va xizmatlar etishmasligiga hamda ishlab chiqarishdagi barham beradi. Natijada tovar va xizmatlar narxi pasayib undan iste'molchilar qo'shimcha daromad ko'radilar. Binobarin, bunday iste'molchilarning qo'shimcha daromadlari qo'shimcha yaratilgan mahsulot yoki xizmat past narxda sotilgandagina namoyon bo'ladi.

Iste'molchini qo'shimcha daromadi hamma vaqt loyiha narxini avvalgi narxga qaraganda kamaytira olganda oshadi. Iste'mochini ega bo'ladigan qo'shimcha daromadi loyihadan keladigan iqtisodiy foydasiga qo'shilib baholanishi zarur. Binobarin, iste'molchini oladigan qo'shimcha daromadini mayishiy xizmat taraqqiyoti loyihasidan keladigan iqtisodiy foydaga qo'shmaslik maskur loyihani umumiy samarasini pasayishiga olib keladi.

Loyihani amalga oshirish tufayli uni xududida yashayotgan ishcilarga, atrof muhitga va davlat oldiga qo'ygan maqsadlarga ma'lum darajada ijobiy yoki salbiy ta'sir bo'ladi. Bu ta'sir ijobiy bo'lsa, uni loyihani tashqi samarasi deb, agar salbiy bo'lsa loyihani tashqi xarajati deyiladi. Bu samara va xarajatlar loyiha doirasidagi daromad va xarajatlar tarkibiga kirmaydi, shu boisdan ularni loyihani moliyaviy xisoblarida xisobga olinmaydi. Biroq ular, loyiha tufayli yuzaga kelganligi uchun loyihani iqtisodiy tahlil doirasida xisoblash kerak bo'ladi.

13.6. Loyihani tashqi samarasi.

Loyihani tashqi samarasiga loyiha tufayli milliy kadrlarni o'qitish orqali olgan bilimlari, loyiha amal qiladigan xududda infrastrukturalarini rivojlanishi, qishloq joylarida madaniyat va ma'rifatni rivojlanishi, yangi axoli punktlarini, yangi shaharchalarni paydo bo'lishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, Asaka shaxrida bunyod etilgan "O'zDEU avto" qo'shma korxonasi Ruspublikamizda, xususan Andijon viloyatida xalq xo'jaligini yangi yo'nalishi bo'lgan avtomobilsozlik bo'yicha minglab milliy kadrlarni xorijiy mamlakatlarda, jumladan Janubiy Koreyada o'qitib zamonaviy kasb egasi bo'lishiga olib keldi. Endi bular xozirda murakkab texnika texnologiyalarni boshqarib, jaxon andozasidagi O'zbekistonning o'z engil avtomobillarini chiqarishmoqda. Bular «O'zDEU avto» loyihasining tashqi samarasi bo'lib, endi ular mamlakatimizning milliy boyligidir.

Loyiha tufayli tashqi samaradan tashkari tashqi xarajatlar ham yuzaga keladi. Ularga misol qilib atrof muhitni ifloslanishi, suvni ko'p foydalanishi sababli daryolarni sayozlanishi va suv zaxiralarini kamayishi, sug'orish tizimini kishilar va er osti suv satxiga salbiy ta'siri, muayyan xududda xalqni ko'payishi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Masalan, Markaziy Farg'onadagi, Mirzacho'ldagi, Qarshi cho'llaridagi erlarni qishloq xo'jaligi maqsadida o'zlashtirilishi u erdagi o'simlik va xayvonot dunyosiga ma'lum darajadi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu erlarni samarasiz uslublarda sug'orish oqibatida qayta shurlanish tufayli minglab gektar erlar qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib qolmoqda, buni eng katta salbiy oqibati orol dengizidagi suv balansini bo'zishiga olib keladi. Yana bir misol, Farg'ona vodiysida qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida Andijon suv ombori 1977 yili qurib bitkazildi. To'g'ri bu loyiha vodiya yangi erlar o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi uchun suv ta'minotini to'la qondirish imkonini berdi. Biroq bu loyiha suv omborga yaqin joylashgan tuman xo'jaliklarida er osti suvi satxini ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bu salbiy oqibatni bartaraf etish yangi ko'lektir, brinjalar ko'rish uchun ko'shimcha xarajatlar qilishni talab etmoqda.

Loyihani tashqi samarasini ko'p xollarda aniqlash va o'lchash mushkil xisoblanadi, biroq uni aniqlashga hamma vaqt harakat qilmog'i kerak. Agar loyihani tashqi samarasini miqdor jihatdan o'lchashni iloji bo'lmasa, unda ular sifat jihatidan muloxaza qilinmog'i zarur. SHundan so'ngina, loyiha iqtisodiy naqtai-nazardan makolani amalga oshirish yoki qayta ishlash bo'yicha qaror qabul qilinmogi lozim.

Bozor iqtisodiyoti mulkchilikni turli shakllarini payda bo'lishiga olib keldi. Bu o'z navbatida xalq iste'mol tovarlarin va xizmatlarini turli mulkchilikdagi ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan yaratilishini hamda amalga oshirilishini ta'minladi. Binobarin, tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida raqobatdoshlik mahsulot hajmi hamda xizmat to'rini ko'paytirish, uni sifatini yaxshilashga olib kelmoqda. SHunga qaramasdan shunday tovar va xizmatlar borki, ularni jamoa bo'lib ishlab chiqarish yuqori samarani beradi. Xuddi shu ishlab chiqarish soxasida jamiyat va jamoa tovarlari bo'yicha davlat ularni manfaati yo'lida iqtisodiy faoliyat olib borishi mumkin. Albatta bu, davlat nuqtai-nazaridan qaralganda mamlakatning umumiy manfaatlari uchun o'ta muhim bo'lgan soxalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, Respublikamizning iqtisodiy, siyosiy mustakilligini ta'minlash uchun amalga oshirilaytgan qator dasturlar: don mustaqilligi, energetika mustaqilligi, axolini ichimlik suvi va gaz bilan ta'minlash, milliy kadrlarni tayyorlash kabi dasturlarni amalga oshirishda davlatni roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Xozirga kunda respublikamizdagi barcha turdagi mulkchilikda faoliyat ko'rsatayotgan tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar davlat tomonidan muxofaza etilib ularni faoliyati qo'llab-quvvatlanmoqda. Buning uchun zarur konunlar, qarorlar va me'yoriy xujjatlar qabul qilingan.

Xulosa qilib aytganimizda loyihani iqtisodiy tahlili mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshishida katta ahamiyatga egadir. CHunki ko'p loyihalar o'z xomiylari tomonidan keladigan foydalarni sun'iy oshirib, xarajatlarni pasaytirib oldinga suriladi. Bu kabi takliflarga qarshi turish va uni oldini olishda eng yaxshi qurol loyihalarni tizimli iqtisodiy baholashdir. SHundagina biz yosh mutaql respublikamizning rivojlangan mamlakatlar qatoriga ko'tarilishiga va o'z mahsulotlari hamda xizmatlari bilan jaxon bozorida munosib, mustahkam o'rin egallashini ta'minlashga erishamiz.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlil vazifalarini tushuntirib bering.
2. Iktisodiy tahlilning maksadi va moliyaviy tahlildanfarqi nimada?
3. YAshirin baholar nima? Iqtisodiy tahlilda nima uchunyashirin baholardan foydalaniladi?
4. Manfaat va xarajatlarni o'lchash muammolariga izohbering.
5. Iste'mol tejami nima?
6. Tashqi samara, jumladan, xalqaro samaraning mohiyatinimada?

14-modul. INVESTITSIYA LOYIHALARIDA TAVAKKAL XAVFI TAHLILI

R E J A

14.1. Investitsiyalarda tavakkal xavfi darajasi.

14.2. Investitsiyalarda tavakkal xavfi darajasini bosqichma-bosqich baholash.

14.1. Investitsiyalarda tavakkal xavfi darajasi.

Investitsiyalashda tavakkal xavfi deganda investitsiya daromadlarining ko'zda tutilgan miqdoridan kamayish holati tushuniladi. Daromadlarning o'zgarishi shkalasi qanchalik keng bo'lsa, investitsiyalashda tavakkal xavfi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Investitsiyalashda tavakkal xavfi manbaalari bir-biri bilan juda bog'liq bo'lganligi sababli ularning qaysi biri daromadga qanchalik ta'sir etganligini aniqlash juda mushkul. Investitsiyalashda tavakkal xavfining (keyinchalik xavf deb yuritiladi) asosiy turlari: ish bilan bog'liq tavakkal xavfi, moliyaviy bozor tasodifi xavflari, aholining sotib olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xavf, foiz xavfi va boshqalar hisoblanadi.

Ish bilan bog'liq tavakkal xavfi kelayotgan daromadlarning hamma investorlar bilan hisob-kitob qilishga etishi kafotlanganligidir. Bunday holatda jami daromad investitsiya xarajatlarini qoplay olmaydi. Albatta, davlat (ayrim mamlakatlarda) bunday holatda xarajatlarning ma'lum bir qismini o'z zimmasiga oladi. Asosan bu xavf biznes bilan bog'liq bo'ladi. Moliyaviy xavf deganda o'z mablag'lari va qarz-ga olingan mablag'lar kompensatsiyalari natijasida kelib chi-qadigan xavf tushuniladi.

Investitsiya uchun qanchalik ko'p chetdan qarz jalb etilsa, moliyaviy shunchalik xavf ko'payadi. Bu xavfning oshishi asosan korxonalar qarz beruvchi investorlar o'z vaqtida foiz to'lovlari to'lashga ilojisizligi oqibatidan kelib chikadi. Belgilangan, ya'ni vaqti aniq ko'rsatilgan qarzlari yoki qarz foizlari loyiha ishga tushmasdan, daromad hali kelmagan vaqtdan boshlab to'lanishi kerak. Korxonalarning bunday qarzlarni to'lay olish qobiliyati yo'qligi moliyaviy xavfni tug'diradi.

Aholini tovarlar sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bogliq bo'lgan xavf asosan taklif inflyatsiyasi vaqtida bo'ladi. Bu davrda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi. Ayrim qimmatbaho qog'ozlar belgilangan vaqtda investorga foyda keltirishni ko'zda tutganligi uchun ayrim hollarda foiz xavfiga ega bo'ladi. Ko'p hollarda qimmatbaho qog'ozlarning kurslari oldingi kurslarga nisbatan o'zgarib turadi. Natija-da qimmatbaho qog'ozlar chikargan kompaniyalar belgilab qo'yilgan foizlarni bera olmaydilar. Bu jarayon qimmatbaho qog'ozlarning bozor baxrlari tez-tez o'zgarib turishi natijasida vujudga keladi. Likvidlik xavfi korxonalarning aksiyalarni kerakli vaqtda ko'zda tutilgan summaga sotishga imkoniyati bo'lmay qolishini anglatadi. Agar kecha 1000 dollarga aksiya sotib olgan bo'lsangaz, bugun uni 800 dollarga sotasiz, bunday aksiya yuqori likvidli emas.

Bozor xavfi deganda bu daromadlarni qimmatbaho qog'ozlar kursi o'zgarishi emas, balki iqtisodiy-ijtimoiy voqealardan kelib chiqadigan xavf tushunchalaridir. Masalan, YAqin SHarqda urush kelib chiqish xavfi qurol-aslaha ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan aksiyalar hamda neft mahsulotlari ishlab chikarishga bog'langan aksiyalar kursiga ta'sir etadi. Tasodif xavfi tusat-dai vujudga keladigan xavf bo'lib, investitsiya natijalariga juda tez ta'sir etadi. Bunga ikkita yirik kompaniyaning bir-biriga qushilishi va boshqalar misol bo'la oladi. Umuman, xavflarni baholashga uch xil yo'nalishda yonda-shish mumkin. An'anaviy ishlab chiqarishni tubdan o'zgartiradigan yoki uning tuzilmasiga salmoqli o'zgartirish kiritadigan investitsiyalarni joriy etish bilan bog'liq loyihalarni qabul qilishda ayrim hollarda start davrini mukammal tahlil qilmaslik natijasida yaratiladigan mahsulotga etarli xaridor topa olmaslik hollari vujudga kelishi

mumkin. Bunda, albatta, mukammal variantlarni chuqur o'rganish kerak. Har xil muqobil variantlar mavjud bo'lmagan hollarda oldindan ma'lum tadbirlarni amalga oshirish kerakki, ular xavfni yo'qotishga qaratilgan bo'lsin. Navbatdagi yondashuv asosan oddiy loyihalarni o'z ichiga oladi. Bu loyihalarda ma'lum xavf mavjud. Masalan, loyihani vujudga keltirish davrida o'rtacha ko'rsatkichlardan foydalanamiz, lekin keyinchalik bu ko'rsatkichlardan ma'lum chekinish vujudga kelishi mumkin. Mana shu yo'nalishlarni misolda ko'rib chiqamiz.

Loyihada temir-beton zavodi qurish ko'zda tutilgan deylik. Zavod aholi yashaydigan mikrorayonda bo'lib, u erdan avto-trassa o'tishi ko'zda tutilgan. Zavod qurshshshi trassaga yaqin joyda bo'ladi. Zavod qurilishi uchun 5 mlrd.so'm mablag' ajratilgan. Bu zavod shshgab chiqaradigan mahsulot hajmi 2 mlrd. bilan 4 mlrd.so'm orasida bo'ladi. Loyihaning yashash davri 5 yil, bu vaqtdan so'ng zavod sotib yuboriladi. Zavodning qoldiq bahosi avtotrassa qurilishi davri bilan bog'liq bo'lib, 1 mlrd. bilan 3 mlrd.so'm orasidadir. Agar zavod qurilgandan keyingi birinchi yili avtotrassa qurilishi haqida qaror qabul qilin-masa, uning qoldiq qiymati 3,5 mlrd.so'm. Diskontning qabul qilingan stavkasi 10% va ikkita variantda mahsulot sotish hajmi 0,5 mlrd yoki 1,5 mlrd.so'm bo'ladi. Buni variantlar bo'y-icha aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$NPV = [\sum NP_1 / (1+k) + RV / (1+k)] - I$$

Bu erda: NP_1 - sof foyda va amortizatsiya summasi; PV - qoldiq qiymat.

14.2. Investitsiyalarda tavakkal xavfi darajasini bosqichma-bosqich baholash.

Loyiha amalga kirgunga qadar har xil bosqichlardan o'ta-di. Har bir bosqichda o'ziga xos tavakkal xavfi bo'lib, ularni bosqichma-bosqich baholash va barchasining yig'indisini topish kerak. Oldingi mavzulardan ma'lumki, loyiha quyidagi bosqichlardan iborat:

- loyihani vujudga keltarshidan oldingi, tayyorlash bosqichi;
- qurilish: inshoot, uskunalar qurish, qurilish uchun za-RUR bo'lgan materiallarni sotib olish va ularni montaj qilish;
- loyiha asosida vujudga keltirilgan ob'ektni ishga tu-shurish va uni to'liq quvvatga olib chiqish hamda shu asosdafoyd olish.

Hamma xisob-kitoblar ikki martadan, ya'ni:

- 1) loyihani vujudga keltirish paytida;
- 2) loyihaning xavfli elementlari aniqlangandan keyinamalga oshiriladi.

O'z ta'sir kuchi bo'yicha tavakkal xavf (risk)lari oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy xavflar biri-biri bilan bog'liq bo'lmagan xavflardir. Loyihani vujudga keltirish davrida (hamma xavflarning ro'yxatini tuzib ulardan har birining xavflardagi salmog'ini aniqlab olish kerak. Aytilgan hol-larni quyidagi bir misolda ko'rib chiqamiz:

Har bir ekspertga ehtimolli xavflar ustida chuqur tah-lil ishlarini olib borish topshiriladi va ularga quyidagi baholash tizimidan foydalanish tavsiya etiladi:

- 0 - xavf yo'q deb qabul kilingan;
- 25 - xavf asosan yuzaga chiqmaydi;
- 50 - bu holat hali hech qanday mulohaza yuritishga asosbo'la olmaydi;
- 75 - har qalay xavf o'z kuchini ko'rsatsa kerak;
- 100 - xavf yuzaga chiqsa kerak.

Ekspertlar baholarining bir-biriga zid kelmasligi q^idagi qoidalarga ko'ra tahlil qilinadi:

1- qoida: ikkita ekspertning fikri orasidagi farq 50 dan oshishi kerak emas. Max I a.-. $I <$

Bu erda: a va v ikkita ekspertning fikri.

Agar ekspertlar soni n ^chta bo'lsa, birinchi va ikkinchi, bi-rinchi va uchinchi, ikkinchi va uchinchi ekspertlar fikrining na-tijasi olinadi. Masalan, alohida oddiy xavf bo'yicha uchta eks-pert quyidagicha fikr berdi a-0 , v-25, s-50, bunda av q25; asq50; vsq|25 bu natijalar birinchi qoida talablarini qoniqtiradi.

2 - Qoida. Agar ekspertlar ko'p bo'lsa xdiODag ularning fikrlari bir-biridan tubdan farq qilsa, quyvdagi formula-dan foydalaniladi:

$$\sum_{i=1}^n q_i \left| \alpha_i - \beta_i \right| / N \leq 25$$

Misol: 3 ta ekspert A,V,S quyidagi loyiha bahosiniberdi: A (100,75,50,25); V(75,75,75,75); S(25,50,75,100);

AV[(100-75) + ((75-75) + 50-75) + (25-75)]/4=25.

Xudsi shunday AS=50 va VS=25 topiladi. Agar yuqoridagi-dek ekspertlarning fikri bir-biridan farq qilsa, unda maxsus mutaxassislar yigalishida bu masala o'rganiladi. Aytashshk, loyi-ha maqsadi jamoa xo'jaligi xududida aksiyadorlik jamiyati sutni qayta ishlaydigan korxona vujudga keltirishdan iborat. Xom ashyo bazasi korxona atrofidagi fermer xo'jaligi hisoblanadi. Korxo-na o'z mahsulotini yaqinda joylashgan shaharda sotadi. Korxonada yirik muzlatgich bo'lib, u avariya bo'lsa atrof-muxdgai ammiak bi-lan ifloslashga olib kelish ehtamoli bor. Xavf darajasini aniq-lash uchun 3 ta ekspert chaqirilgan. 1-ekspert aksionerlik jami-yati direktori; 2-ekspert mahalliy rahbar; 3-ekspert pensioner.

Oddiy harflar	1-ekspert	2-ekspert	3-ekspert	O'rtacha Vi	Ahamiyatlilik Pi
1	2	3	4	5	6
TAYYORLOV KURSI					
1. Muhandislik tarmoqlaridan loyihaning uzoq-yaqinligi	25	0	25	17	3
2. Mahalliy rahbarlarning loyihaga munosabati	25	0	50	25	1
3. Qo'shimcha ishlarning mavjudligi	0	0	0	0	3
QURILISH BOSQICHI					
1. Buyurtmachining haq to'lash imkoniyati	0	25	50	25	1
2. ko'zda tutilmagan xarajatlar, shu jumladan, inflatsiya natijasida	75	75	100	78	1
3.Qurilishga zarur bo'lgan uskunalarni o'z vaqtida etkazmaslik xavfi	50	50	50	50	3
EKSPLUATATSIYA BOSQICHI					
Iqtisodiy va moliyaviy xavf					
1. Mahsulotga bo'lgan talabning barqaror emasligi	25	25	50	33	3
2. Muqobil mahsulotning paydo bo'lishi	75	25	50	50	3
3. Raqobatchilar tomonidan mahsulot	75	50	25	50	3

bahosining pasaytirilishi					
4. Raqobatchilar mahsulot miqdorini oshirishi xavfi	25	0	0	8	3
5. Soliqlarning oshirishi xavfi	25	25	50	33	3
6. Iste'molchilarning haq to'lolmaslik xavfi	25	0	0	8	1
7. Xom ashyoni va transport xizmati baholarining oshishi xavfi	100	75	100	90	3
8. Etkazib beruvchilarga bog'liqlik xavfi	25	0	25	17	3
9. O'z aylanma mablag'larining etmasligi xavfi	100	100	100	100	1
IJTIMOIY XAVFLAR					
1. Malakali ishchilar bilan ta'minlashni eplay olmaslik xavfi	0	0	25	8	3
2. Ish tashlash xavfi	100	75	75	83	1
3. Mahalliy rahbarlarning munosabati	50	25	100	58	3
4. Ish haqi etarli emasligi xavfi	100	50	75	75	2
5. Kadrlar malakasi	25	25	50	33	3
TEXNIK XAVFLAR					
1. Xom Ashyo va materiallar sifatining barqaror emasligi	25	0	25	17	3
2. Texnologiyaning yangilik darajasi	50	25	50	41	3
3. Texnologiya yetarli darajada ishonchli emasligi xavfi	75	50	75	67	2
4. Qo'shimcha quvvatlarning yo'qligi xavfi	25	0	0	8	3
EKOLOGIK XAVFLAR					
1. Atrof-muhitga chiqindii chiqarish xavfi	50	75	50	58	3
2. Ishlab chiqarishning zararliligi xavfi	0	25	0	8	3

Birinchi bosqich bo'yicha, ya'ni tayyorlov davridagi xavflar bo'yicha ma'lum bo'ladiki, ikkinchi ekspert optimist, uchinchi ekspert esa pessimist. Bu, albatta, kelgusida to'g'ri qaror

qabul qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. YUqoridagi keltirilgan xavflardan tashqari kushdat xavflar ham mavjud bo'lib, ularni tayyorlov bosqichiga kiritish mumkin:

- transportdan uzoqda joylashganligi;
- muqobil xom ashyo manbalariga ega yoki ega emasligi;
- qurilishga doir bo'ladigan yuridik hujjatlar tayyorlash;
- ob'ektni boshqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan xavflar.

Bularni yuqoridagi xavflarga qo'shish uchun muqobil ja-voblar bo'lishi kerak. Agar ekspertlarning fikrlari bir joy-dan chiqsa, unda bularni qo'shish shart emas. YUqoridagi jadvalda ekspertlar tomonidan baholangan xavf darajasining dastlabki natijalari qayd etilgan. Har bir xavfning jami xavfdagi vazni yoki boshqacha aytganda ahamiyati ekspertlar tomonidan emas, balki loyihani vujudga keltiruvchilar tomonidan belgilangan. Bizning misolimizda tavakkal xavfini tug'diruvchi sabablar ahamiyatiga ko'ra, uchga bo'lingan. Bir bosqichga kiruvchi hamda turli ustuvorliklarga tegishli tavakkal xavflarining jami tavakkal xavfida hisobga olinadigan vazni turlicha bo'ladi. Bir bosqichga kiruvchi 1- va 3-ahamiyatlilik orasidagi nisbat 10 ga teng deb olsak va uchinchi ahamiyatli-likni x bilan belgilasak, birinchi ahamiyatlilik $10x$ ga, ikkinchi ahamiyatlilik esa $5,5 \cdot x = (10+1) \cdot x / 2$ ga teng bo'ladi. SHu asosda yuqoridagi jadvalni qo'shimcha materiallar yordamida quyidagi shaklga keltiramiz:

Tavakkal xavfini bosqichma-bosqich hisoblash

Oddiy xavflar	O'rtacha Vi	ahamiyatlilik	Wi	Pi
Tayyorlov bosqichi				
1. Muhandislik tarmoqlaridan loyihaning uzoq-yaqinligi	17	3	0,01	0,2
2. Mahalliy rahbarlarning loyihaga munosabati.	25	1	0,10	2,5
3. Qo'shimcha ishlarning mavjudligi	0	3	0,10	0
O'rtacha ehtimollik				2,67
1. Buyurtmachining haq to'lash imkoniyati	25	1	0,10	2.5
2. ko'zda tutilmagan xarajatlar, shu jumladan, inflatsiya natijasida	83	1	0.10	8.3
3. Qurilishga zarur bo'lgan uskunalarni o'z vaqtida etkazmaslik xavfi	67	3	0.01	0.7
4. Loyiha-smeta xujjatlarini o'z vaqtida etkazib bermaslik xavfi	50	3	0.01	0.5
5. Muhandis-texnik xodimlar va malakali ishchilarni o'z vaqtida tayyorlashning kechikishi xavfi	0	2	0,055	0
6. Qurilishni bajaradigan pudratchilarning ishga loqaydliligi xavfi	50	3	0.01	0.5
O'rtacha ehtimollik				12.5
EKSPLUATATSIYA BOSQICHI				
Iqtisodiy va moliyaviy				

xavf				
1. Mahsulotga bo'lgan taabning barqaror emasligi	33	3	0,01	0.3
2. Muqobil mahsulotning paydo bo'lishi	58	3	0.01	0.6
3. Raqobatchilar tomonidan mahsulot bahosining pasaytirilishi	42	3	0.01	0.4
4. Raqobatchilar mahsulot miqdorini oshirishi xavfi	8	3	0.01	0.1
5. Soliqlarning oshirilishi xavfi	33	3	0.01	0.3
6. Iste'molchilarning haq to'laolmaslik xavfi	8	3	0.10	0.8
7. Xom ashe va transport xizmati baholarining oshishi xavfi	90	3	0.01	0.9
8. Etkazib beruvchilarga bog'liqlik xavfi	17	3	0.01	0.2
9. O'z aylanma mablag'larining etmasligi xavfi	100	1	0.1	0.2
O'rtacha ehtimollik				13.6
IJTIMOIY XAVFLAR				
1. Malakali ishchilar bilan ta'minlashni eplay olmaslik xavfi	8	3	0.01	0.1
2. Ish tashlash xavfi				
3. Mahalliy rahbarlarning munosabati	67	3	0.01	0.7
4. Ish haqi etarli emasligi xavfi	75	2	0.055	4.1
5. Kadrlar malakasi	33	3	0.1	0.3
O'rtacha ehtimollik				13.5
TEXNIK XAVFLAR				
1. Xom ashe va materillar sifatining barqaror emasligi	17	3	0.01	0.2
2. Texnologiyaning yangiligi darajasi	41	3	0.01	0.4
3. Texnologiya etarli darajada ishonchli emasligi xavfi	67	2	0.055	3.7
4. Qo'shimcha quvvatlarning yo'qligi xavfi	8	3	0.01	0.1
O'rtacha ehtimollik				4.4
EKOLOGIK XAVFLAR				
1. Atrof-muhitga chiqindii chiqarish xavfi	58	3	0.01	0.6
2. Ishlab chiqarishning	8	3	0.01	0.1

zararligi xavfi				
O'rtacha ehtimollik				0.7

Ekspluatatsiya bosqichi tavakkal xavfi

Tavakkal xavfi turi	Tavakkal xavfi
Moliyaviy-iqtisodiy	13.6
Sotsial	13.5
Texnik	4.4
Ekologik	0.7
JAMI	32.2

Endi barcha bosqichlar bo'yicha tavakkal xavfini bir jad-valga to'playmiz.

Bosqichlar bo'yicha xavflar darajasi

Bosqichlar bo'yicha xavflar darajasi	
Bosqich	Xavf
Loyihaning tayyorlov bosqichiga xos xavflar	2.7
Qurilish bosqichidagi xavflar	12.5
Ekspluatatsiya bosqichidagi xavflar	32.2
JAMI	47.4

Bu loyiha xavfi 47,4 foizni tashkil etdi. SHuning uchun tavakkal qilishdan oldin chuqur o'ylab ko'rish kerak. Tavakkal xavflarining ahamiyatliligi orasidagi nisbat o'zgartirilsa ham natija taxminan shunday chiqadi:

Nisbat	100	10	5	3
Havf ehtimolligi	52,7	47,4	47	44,9

Xavf asosan juda muhim bo'lgan omillardan tashkil topadi. Bizning misodimizda bular quyidagilar:

O'z aylanma mablag'i etishmasliligi xavfi - 10,0%; ish tashlash xavfi 8,3%; ko'zda tutilmagan xarajatlar shu jumla-dan inflyasiya 8,3%. Bu uchta omilga yarmidan ko'proq - 26,6% xavf to'g'ri keladi. Agar shu xavflarni bartaraf qila olsak, unda loyihani investitsiyalash mumkin bo'ladi. YUqorida qayd etilgan xavflardan tashqari belgilanishi qiyin bo'lgan yoki umuman aniqlab bo'lmaydigan xavflar ham mavjud. Bu har xil tabiiy ofatlar, hukumat siyosatining o'zgarishi kabilar kiradi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki loyihani tayyorlov davrida vujudga keladigan xavf 2.7%ni tashkil etadi. Ijti-moiy xavf darajasi 14 foiz ekan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

Investitsiya loyihalari bilan bogliq tavakkal xavfideganda nimani tushunasiz?

Tavakkal xavfi turlarini izohlab bering.

Oddiy va murakkab xavflarni tushuntirib bering.

Tavakkal xavfini bosqichma-bosqich baholash tartibi qanday?

Iqtisodiy va moliyaviy xavfga izoh bering.

Sotsial xavf va texnikaviy xavf mohiyati nimada?